

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI  
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**D. A. RAXMONOV  
L. O‘. MINGISHOV**

# **M O L I Y A**

**O‘quv qo‘llanma**

**TOSHKENT – 2014**

D.A.Raxmonov, L.O'.Mingishov Moliya. O'quv qo'llanma. JIDU. – Toshkent, 2014. 176-bet.

O'quv qo'llanma JIDUning «Moliya» fani bo'yicha ishchi dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda moliyaning mohiyati va funksiyalari, moliyaviy resurslarning mikro va makro darajada amal qilishning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urtaning nazariyasi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida moliyaning o'rni va ahamiyati to'g'risidagi nazariy yondashuvlar berilgan.

O'quv qo'llanma universitetning moliya fani o'qituvchilari, talabalari va moliyaning nazariy jihatlarini bilan qiziquvchi barcha o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti O'quv-uslubiy kengashi tomonidan (bayonnoma №8 2013-yil 5-dekabr) nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

**E.A.Hoshimov** – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Ji va XIM” kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

**I.K.Ochilov** – Toshkent moliya instituti «Sug'urta ishi» kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	5
<b>1-MAVZU. MOLIYA VA MOLIYAVIY SIYOSAT</b> .....	6
1. Moliyaning paydo bo‘lishi, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	6
2. Moliyaning funksiyalari .....	11
3. Moliyaviy siyosatning turlari.....	15
<b>2 - MAVZU. MOLIYAVIY TIZIM VA MOLIYAVIY BOSHQARUV</b> .....	22
1. Moliya tizimining ahamiyati, uning tuzilishi.....	22
3. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi .....	28
4. Moliyani boshqarishning mohiyati va organlari, ularning vazifalari.....	32
<b>3-MAVZU. DAVLAT BYUDJETI MOHIYATI TUSHUNCHASI</b> .....	38
1. Davlat byudjeti .....	38
2. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi .....	41
3. Davlat byudjetining solikli daromadlari .....	44
4. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari .....	48
<b>4-MAVZU. G‘AZNACHILIK</b> .....	53
1. G‘aznachilikning mohiyati va ahamiyati.....	53
2. O‘zbekistonda g‘aznachilikni joriy etilishi.....	63
<b>5-MAVZU: SOLIQ VA SOLIQ SOLISH</b> .....	67
1. Soliqlarning paydo bo‘lishi, ilk ko‘rinishlari va rivojlanish bosqichlari ....	67
2. Mamlakatimiz hududida soliqlarning paydo bo‘lishi, o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi.....	67
3. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar, soliqqa tortishning xususiyatlari.....	68
<b>6-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ TIZIMI</b> .....	70
1. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi, siyosati va uning mohiyati.....	70
2. O‘zbekiston Respublikasida mavjud soliqlarning mohiyati (bevosita va bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari, mol-mulk to‘lovi).....	70
1. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi, siyosati va uning mohiyati .....	70
2. O‘zbekiston Respublikasida mavjud soliqlarning mohiyati (bevosita va bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari, mol-mulk to‘lovi).....	73
<b>7-MAVZU. DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI</b> .....	83

1. Davlat byudjetini byudjetdan moliyalashtirish asoslari .....	83
2. Davlat byudjeti xarajatlari yo‘nalishlari .....	87
3. Davlat byudjetidan ijtimoiy nafaqalarni to‘lash .....	89
<b>8-MAVZU. MAHALLIY “MINTAQAVIY” MOLIYA .....</b>	<b>93</b>
1. Mahalliy moliyaning nazariy asoslari.....	93
2. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini rejalashtirish va uning vazifalari.....	96
<b>9-MAVZU. BYUDJETDAN TASHQARI FONDLARNING MOHIYATI .....</b>	<b>101</b>
1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi .....	101
2. O‘zbekiston Respublikasi Respublika yo‘l jamg‘armasi .....	105
3. Byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg‘armasi.....	106
4. Byudjetdan tashqari Ish bilan ta'minlashga ko‘maklashuvchi jamg‘armasi .....	110
5. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi ....	111
6. O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi.....	112
<b>10-MAVZU. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI: MOHIYATI VA O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI. DAVLAT KREDITI.....</b>	<b>116</b>
1. Davlat kreditining mazmun-mohiyati va vazifalari .....	116
2. Davlat krediti tasnifi .....	119
3. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarzlar. ....	122
4. Davlat qarzlarini boshqarish .....	125
<b>“MOLIYA” FANIDAN TEST SAVOLLARI TO‘PLAMI.....</b>	<b>128</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>142</b>

## KIRISH

«Moliya» fani mamlakatimizning iqtisodiyoti uchun boʻlajak mutaxassislarda moliyaning nazariy masalalari toʻgʻrisida aniq va tushunarli tasavvurlarni shakllantirish hamda uni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan fanlardan biri boʻlib hisoblanadi. Moliya fani oʻtgan asrning yarmiga kelib mustaqil rivojlana boshladi. Mustaqil fan sifatida shakllanishi va hozirgi moliyaning zamonaviy nazariyalariga mansub va uncha uzoq boʻlmagan oʻziga xos yoʻlni bosib oʻtdi. Xususan, Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotining amalga oshirilishi bilan bogʻliq tarzda shakllangan moliya tizimi va uning nazariy qoidalarini tadqiq qilish va shunga mos tarzda uni boʻlajak iqtisodchi mutaxassislarga yetkazish dolzarb masalaga aylandi. Binobarin, mamlakatimizda taʼlim tizimida olib borilgan keng koʻlamli ishlar samarasi oʻlaroq, maktab taʼlimidan soʻng yosh avlodni kasbga yoʻnaltirishni koʻzlagan taʼlim tizimi bu – kasb-hunar kollejlari sifatida yuzaga keldi. Undan soʻng esa oliy taʼlimning ikki bosqichli tizimi joriy qilindi. Shu boisdan, yosh mutaxassislarni tayyorlash va ularning bilim saviyalarini xalqaro andozalar asosida shakllantirish borasidagi muhim tadbirlardan biri bu – ular uchun yaratilayotgan oʻquv adabiyotlarga bevosita bogʻliqdir.

Mazkur masalaning nechogʻlik muhim ekanligini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan bildirilgan ushbu «Taʼlim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini oʻzgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, oʻz kelajagiga boʻlgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolagʻa boʻlmaydi. Bizning yangi avlodimiz, bilimli, oʻtmishning har qanday illatlaridan ozod boʻlgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda<sup>1</sup>» – soʻzlaridan anglab olish mumkin.

Oʻquv qoʻllanmani tayyorlashda mamlakatimizning qator olimlari va mutaxassislarining asarlari hamda ularning fikrlaridan keng foydalanilgan.

Jumladan, oʻquv qoʻllanmaning 10-mavzusini tayyorlashda professor T.Malikovning ilmiy asarlaridan keng foydalanildi.

Moliya deb nomlangan mazkur oʻquv qoʻllanma JIDUning “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” yoʻnalishi talabalari uchun moʻljallangan va u talabalar eʼtiboriga ilk marotaba taqdim qilinayotganligi bois, baʼzi bir kamchiliklardan xoli boʻlmasligi tabiiy. Oʻquv qoʻllanmaning keyingi nashrlari sifatini oshirish maqsadida yoʻllangan har qanday taklif va mulohazalaringizni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

---


<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. //Xalq soʻzi. 18-fevral 2012-yil.

# 1-MAVZU. MOLIYA VA MOLIYAVIY SIYOSAT

1. Moliyaning paydo bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.
2. Moliyaning funksiyalari.
3. Moliyaviy siyosatning turlari.

## 1. Moliyaning paydo bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

«Moliya» so'zining kelib chiqishi arabcha bo'lib, ona tilimizda «pul mablag'lari», degan ma'noni bildiradi.



### 1.1-rasm. Moliyaning qo'llanilishi

«Mol» so'zi arab tilidan tarjima qilinganda «boylik, mulk, pul jamg'armasi», hamda «moliyat, pul mablag'lari, soliq» kabi so'zlar ham moliyaga tegishlidir. Lug'aviy kelib chiqishi bo'yicha «moliya» so'zi fransuzcha «finance», lotincha «financia» va ruscha «financi» so'zlarining parallel sinonimi bo'lib, birlamchi tarzda «daromad», «pul mablag'lari» yoki «to'lov» kabi tushunchalarda ham ishlatiladi. Moliya davlatning paydo bo'lishi va mamlakatda moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojining taraqqiyoti bilan bevosita tovar-pul munosabatlarining natijasida yuzaga keldi. Moliya tushunchasi mamlakatda yaratilayotgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash yuzasidan hokimiyat organi sifatida davlat bilan ishlab chiqarishni va takror ishlab chiqarishni ta'minlovchilar o'rtasida ma'lum darajada munosabatlarning o'rnatilishini va ularni o'zida aks etishini ta'minlaydi.

Moliyaning vujudga kelish tarixi insoniyat tarixining bir bo'lagi sifatida uzoq ming yillar oldin vujudga kelgan. Qadimgi Babil davlatida amal qilgan Xammurapi qonunlari yoki Qadimgi Hindistonning Manu qonunlari, Xitoy,

Yunoniston imperiyasi qonunlarining barcha shakllarida moliyaviy munosabatlarning dastlabki ko‘rinishlari davlat xazinasini uchun soliqlar to‘plash, uning hisob-kitobi kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. Mazkur qonunlarda davlat va aholi hayotida mustahkam o‘rin tutgan pul hisob-kitobi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarga yuqori o‘rin ajratilgan. Sababi, moliya (soliqlar, yig‘imlar) sohasida oqilona siyosat olib borilishi jamiyat rivojining asosiy sharti hisoblangan.

Dastlab moliyaning paydo bo‘lishi bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ham o‘z aksini topib borgan. Xususan, moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati rivojlanishining o‘ziga xos shakl-shamoyillari, tovar-pul munosabatlarini o‘zida aks ettirishi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati jamiyatning iqtisodiy tabiati va davlatning funksiyalari bilan o‘z ifodasini topadi.

Sohibqiron Amir Temur o‘z Tuzuklarida: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi»<sup>2</sup> deya moliyaning dastlabki ko‘rinishi sifatida soliqlar shunday ma‘no bergan va moliyaning davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga egaligini ta‘kidlab o‘tgan.

Bugungi hayotimizda «moliya» atamasining vujudga kelishida uning birinchi muallifi, fransuz olimi J.Bodenn tomonidan 1577-yilda yozilgan «Respublika xususida olti kitob» asari asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda moliya atamasining yuqori ma‘no-mazmun kasb etishida, shuningdek, moliyaning nazariy masalalarini hal etilishi va taraqqiyotida o‘zbek moliyachi olimlarning ham munosib hissalarini bor. Bu borada prof. H.R.Sobirov, dots. X.M.Muratov, dots. H.H.Muhamednazarov, prof. F.Sh.Shamsuddinov, prof. Q.A.Yax‘yoev, prof. O.O.Olimjonov, prof. T.S.Malikov, prof. N.H.Xaydarov, prof. N.X.Jumaev, prof. N.G.Karimov prof. O.K.Iminov, prof. M.I.Almardonov va boshqalarning qarashlari o‘z o‘rniga ega.

Zamonaviy tasavvurdagi «moliya» tushunchasi davlat xazinasining shakllanishi va davlat byudjetining vujudga kelishi bosqichida paydo bo‘ldi<sup>3</sup>.

Mamlakatda takror ishlab chiqarish jarayonini ta‘minlash, davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish bilan bog‘liq markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonlarini o‘zida aks ettirgan kategoriyaga moliya deyiladi.


Mazkur moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, YaIM (yalpi ichki mahsulot)ni qayta taqsimlashda istiqbolda ma‘lum maqsadlarni ko‘zlagan holda turli pul mablag‘lari fondlarini yaratish yuzaga

---

<sup>2</sup> A.Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent, 1991 yil.

<sup>3</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. /Toshkent Moliya instituti. — Toshkent: “Noshir”, 2011. — B. 7.

keladi. Shu nuqtai nazardan, umumdavlat miqyosida tuziladigan pul mablag‘lari fondlari markazlashtirilgan pul fondlari deb atalsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar miqyosida tuziladigan pul mablag‘lari fondlari markazlashtirilmagan pul fondlari deyiladi.



## 1.2-rasm. Moliyaning belgilari

Markazlashgan pul fondlari alohida territoriya, tarmoq yoki xo‘jalik subyekti manfaatini iqtisodiy qondirish uchun sarflanmasdan balki mazkur pul fondlaridan moliyalashtiriladigan jarayonlar umumjamiyat manfaatlariga to‘liq mos kelganligi uchun amalga oshiriladi. Hozirgi kunda markazlashgan pul fondlarining quyidagi turlari mavjud: Davlat byudjeti, Pensiya jamg‘armasi, davlatning ijtimoiy sug‘urta fondi va boshqalar.

Markazlashmagan pul fondlari mahsulot (ish, xizmat)larni yetkazib berishda band bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlari ixtiyorida bo‘lgan va faqatgina shu shaxslar tomonidan tasarruf qilinishi va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini pul mablag‘lari bilan ta‘minlashda ishlatiladi.


Takror ishlab chiqarish jarayonida mamlakat aholisining bevosita ishtiroki ko‘zga tashlanadi. Masalan, ular markazlashmagan pul jamg‘armalari hisobidan daromad oladilar, xususan, tadbirkorlik va kichik biznes va moliya bozoridagi ishtiroklaridan daromad oladilar hamda mazkur daromadlaridan majburiy to‘lov va soliqlarni to‘lash orqali markazlashtirilgan pul jamg‘armalarini shakllantirishga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Vaholanki, shakllangan, markazlashgan pul jamg‘armalaridan aholining ma‘lum qatlami uchun pul resurslari taqsimlanadi va ularga undan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabilarga byudjet xarajatlari). Umuman olganda, mazkur jarayonlarni vujudga kelishi bilan moliyaviy munosabatlar



shakllanadi.

Moliyaviy munosabatlar jamiyatda mavjud ishlab chiqarish munosabatlarning tarkibiy qismi o'laroq, u jamiyatning iqtisodiy negizini tashkil etadi. Moliyaviy munosabatlar zamonlar osha jamiyat rivojiga qarab taraqqiy etgan. Uning namoyon bo'layotgan va amalga oshirilayotgan shakllarining turli-tumanligi xo'jalik munosabatlarning murakkablashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlardagi davlatning o'rni oshib borishi asosida kelib chiqqan. Boshqa pul munosabatlari (kredit, narx va b.) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlar ular bilan birga uzluksiz ravishda rivojlanib borgan.

Ya'ni, ular davlat tomonidan boshqariladi va davlat vazifalarini bajarish maqsadida joriy etiladi hamda barcha moliyaviy munosabatlarning bir subyekti doimo davlat bo'lib, davlat ishtirok etmagan holda iqtisodiy munosabat hisoblanadi. Moliyaviy munosabat bu umumiy mahsulot va milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida xo'jalik subyektlari va davlatning qo'lida pul daromadlari va jamg'armalarining shakllanishi va maqsadli pul fondlarining tashkil etilishi va ulardan foydalanishi natijasida vujudga kelgan pul munosabatlaridir.



**1.3-rasm. Moliyaviy munosabatlar**

## **2. Moliyaning funksiyalari**

Agar pul umumiy ekvivalent bo‘lib, uning yordamida umumlashtirilgan ishlab chiqaruvchilarning mehnat xarajatlari o‘lchansa, moliya esa YaIM va milliy daromad (MD)ni taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy instrumentidir.

Moliya mohiyatan iqtisodiy kategoriya bo‘lib, undan hozirgi zamonaviy davrda Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy tuzumi turlicha bo‘lishiga qaramay birdek foydalanilmoqda. Mazkur kategoriya boshqa iqtisodiy kategoriyalar (pul, foyda, tannarx, qiymat, kredit va h.k.) kabi jamiyatdagi ma‘lum munosabatlar, mehnat mezonini va iste‘mol me‘yori, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, milliy daromadni taqsimlash kabi munosabatlarning mohiyatini ifodalaydi.

Moliyaning amal qilishi, eng avvalo, mamlakatda tovar-pul munosabatlarining mavjudligi bilan bog‘liq. Moliyaviy munosabatlarning taraqqiy etishi ma‘lum bir davlatdagi mehnat taqsimoti, mulkchilikning turli ko‘rinishlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatining huquqiy-iqtisodiy jihatdan boshqa-boshqaligi va Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan ham bog‘liqdir. Milliy daromadning taqsimlanishi pul birligi orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonunlarida mulkchilikning turli shakllarida bo‘lishining mustahkamlanishi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratilishi hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillarining takomillashuvi bilan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyotiga olib keladi.


Biroq, pul moliyaviy munosabatlarning barcha jihatlarini o‘zida aks ettirmaydi. Moliya munosabatlari borasidagi muammolar, asosan, davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ularni tasarruf etish masalalaridan tashkil topadi. Shuning uchun ham, moliya munosabatlarining taraqqiyoti mamlakatning rivojlanishi va uning zahiralarga bo‘lgan ehtiyoji bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mamlakatda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishni moliyaviy ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan davlat ixtiyorida pul mablag‘laridan fondlarini tashkil qilish, taqsimlash va iste‘mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar jarayonida tovarlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi sodir bo‘ladi.


Moliyaning mohiyati uning funksiyalarida o‘z ifodasini topadi.

Umuman olganda, moliyaning funksiyalari yuzasidan xorijlik moliyachi olimlar tomonidan turli munozarali holatlar yuzaga kelgan.

Jumladan, qator taniqli olimlar moliyaning uchta funksiyasini ajratib ko‘rsatishadi.



Hozirgi sharoitda o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishini e‘tirof etishadi.




#### 1.4-rasm. Moliyaning funksiyalari

Ushbu funksiyalar vaqt nuqtai nazaridan bir-biri bilan parallel holda amalga oshiriladi. Chunki, har-bir moliyaviy operatsiya bir tomondan jami ijtimoiy mahsulotni va MD taqsimlaydi, shu bilan birgalikda ushbu jarayonlarning ustidan nazoratni amalga oshiradi. Moliya munosabatlari milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga keladi.

Moliyaning taqsimlash funksiyasi MDni moddiy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida taqsimlash jarayonida shakllanishida ko‘ramiz. Dastlabki taqsimlash jarayoni moddiy tovarlar ishlab chiqarish sohasida boshlanadi. Biz mazkur holatni 1.1-rasm orqali ko‘rishimiz mumkin. O‘z navbatida, mazkur taqsimlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi, ya‘ni:

- ishlab chiqarish sohasida band bo‘lib, mazkur yo‘nalishda daromad oluvchi ishchi va xizmatchilarning ish haqi va boshqa daromadlari;
- ishlab chiqarish sohasidagi xo‘jalik sub`yektlarning daromadlari.




### 1.5-rasm. Moliyaning taqsimlash funksiyasini dastlabki ko‘rinishi

Ushbu jarayonlar o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda subyektlar tomonidan olingan dastlabki daromadlar milliy iqtisodiyotni ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini ta‘minlash, xususan, mudofaa qudratini yaratish, aholining turli darajadagi ehtiyojlarini ta‘minlashda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli, MDni qayta taqsimlash zaruriyati yuzaga keladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olingan daromadlar (foyda)dan eng samarali va oqilona foydalanishni ta‘minlash maqsadida mazkur pul fondlarini tarmoqlararo va hududiy qayta taqsimlash;
- moddiy ishlab chiqarish bilan birga davlatning vazifalarini bajarishdagi ijtimoiy xizmatlarni (maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta‘minot, boshqaruv va h.k.) ta‘minlashining zaruriyati bilan;
- aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun daromadlarni qayta taqsimlashning muhimligi bilan.

Natijada qayta taqsimlash jarayoni orqali ikkilamchi daromadlar yuzaga keladi. Bunday daromadlarga ishlab chiqarish tarmoqlaridan olingan daromadlar, soliqlar kiradi.

Moliya MDni taqsimlash va qayta taqsimlashda birlamchi taqsimlash orqali yuzaga keladigan nisbatni ularning natijaviy foydalanish nisbatlariga transformatsiya o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu qayta taqsimlash paytida shakllantiriladigan daromadlar resurslar (moddiy va moliyaviy) o‘rtasidagi hamda iste‘mol va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta‘minlashi lozim.




### 1.6.-rasm. MDni qayta taqsimlash jarayoni

MDni qayta taqsimlash iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish bilan bog'liq, xususan, iqtisodiy ustuvor sohalarini rivojlantirish maqsadida, shu bilan birga, davlatning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, moliyaning MDni qayta taqsimlash borasidagi yuzaga keluvchi munosabatlarni mamlakatdagi ishlab chiqarish tarmoqlar, hududlar va aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida yuzaga kelishini aytish lozim.

Moliyaning nazorat funksiyasining obyekti bo'lib markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining moliyaviy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Moliyaning nazorat funksiyasi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning barqaror rivojlanishini, fan-texnika yutuqlarini jadallashtirishga hamda iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini uzluksizligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslardan samarali foydalanish, turli ishlab chiqarish sohalaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan zararlarni qisqartirish kabi vazifalarni amalga oshirish ham moliyaning nazorat funksiyasining bir qismidir. Ushbu funksiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu – moliyaviy resurslarni tasarruf etish bo'yicha huquqiy bazaga, xususan, byudjet tizimi, soliq va soliqqa tortish, banklarning operatsiyalari, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro majburiyatlar bo'yicha munosabatlarni qonunchilik asosida bajarilishini va maqsadlilikini ta'minlaydi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning hajmi yoki ularda ishlayotgan xodimlarning soni kamligi sababli alohida moliya bo'limi bo'lmasligi ham mumkin. Bunday sharoitlarda nazoratni amalga oshirishni shu subyektdagi bosh hisobchi o'z zimmasiga oladi.



### **1.7-rasm. Moliyaning nazorat funksiyasini bajarilishi**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasining nazorat funksiyasi taqsimlash funksiyasi bilan bog'liqligi, aynan, mana shu yerda namoyon bo'ladi va bu ichki xo'jalik moliyaviy nazoratining yuzaga chiqishi hisoblanadi. Agar xo'jalik yurituvchi subyektlar byudjet, bank, mol yetkazib beruvchilar bilan o'z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirsa, u o'z moliyaviy natijalarini yaxshilaydi, ishlab chiqarish va mablag'lardan foydalanish samarasini oshiradi. Aks holda, u jarimalar, foizlar, qo'shimcha to'lovlar to'lashga majbur bo'ladi, moliyaviy holat taranglashadi, oxirgi moliyaviy natijalar yomonlashadi.


### **3. Moliyaviy siyosatning turlari**

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlat moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shuning uchun ham, moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Bu faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun

tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan<sup>4</sup>.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasini baholash kontsepsiyasi mavjud bo'lib, bu kontsepsiyada asosan, makroiqtisodiy nobarqarorlik sabablari sifatida jami talab va taklif muvozanatining buzilishi deb qaraladi. Bu muvozanatni o'zgartirish nihoyatda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon deb baholanadi va soliq siyosati ushbu muvozanatni saqlashga qaratilishi lozim deb hisoblaydi<sup>5</sup>.




**1.8-rasm. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari**

<sup>4</sup> Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma/Toshkent moliya instituti. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – B.62.

<sup>5</sup> Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. TMI. 2003. – B. 105.





### 1.10-rasm. Byudjet siyosatining vazifalari


Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasidagi pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlari holatidan kelib chiqib, bitta yoki bir qancha monetar ko‘rsatkichlar o‘zgarishlarining aniq maqsadli mo‘ljallarini belgilashi mumkin. Monetar siyosatning asosiy yo‘nalishlari:

- iqtisodiy kon’yunkturaning tahlili va istiqbol ko‘rsatkichlari;
- muomalada bo‘lgan pul muassasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralari;
- pul muassasi yillik o‘shish sur‘atining aniq maqsadli ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o‘zgarishi;
- valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo‘nalishlari;
- pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi lozim.


Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi  
yoʻnalishlarda amalga oshiriladi:

- Markaziy bank kelgusi yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan kamida oʻttiz kun oldin Oliy Majlisning Senatiga bu haqda axborot beradi;
- respublikaning barcha hududlarida amal qiluvchi soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish;
- amalda boʻlgan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarini baqaror ishlashi uchun maʼlum imkoniyatlarni shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunchilik va qonunosti hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini ishlab chiquvchi hamda uni joriy qiluvchi davlatning vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi funksiyalarini, vazifalarini hamda huquq va majburiyatlarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini qabul qilish va ularni amalga oshirishni tashkil etish.

**1.11-rasm. Soliq siyosatining yoʻnalishlari**



**1.12-rasm. Pul-kredit siyosati**



**1.13-rasm. Davlatning narx siyosati**

Hozirgi kunda «iqtisodiyot masalalari nazariyasining asosiy yoʻnalishlaridan biri davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish hamda tadbirkorlikni va xususiy sektorni ragʻbatlantirishdir. Bunda asosiy rol davlat moliyasini boshqarishga berildi, jumladan, soliqlarni qisqartirish, davlat xarajatlarini kamaytirish, davlat krediti borasidagi olib borilayotgan siyosat yordamida muomaladagi pul miqdorini kamaytirishdir<sup>6</sup>».

Investitsiya siyosati davlat tomonidan mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish va investitsiya muhitini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar yigʻindisidan iborat. Bu siyosat davlat boshqaruvi va xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning turli darajalarida amalga oshiriladi. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning “qochib” ketmasligi va, aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yoʻnalishi) sifatida qarash bilan birgalikda, uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida eʼtiborga olish kerak. Chunki, soliqlar va bojlar (boj yigʻimlari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bir vaqtning oʻzida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga taʼsir koʻrsatishning oʻziga xos boʻlgan usuliga ham egadir. Usulning oʻziga xosligi shundaki, bu siyosat bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan esa, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini ragʻbatlantirishi yoki unga toʻsqinlik qilishi mumkin. Masalan, mamlakatda oʻxshashi boʻlmagan texnologik asbob-uskunani import qilishga 20% li boj yigʻimi oʻrnatilsa, bu narsa mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini kamaytiradi, ichki ishlab chiqarishning oʻsish surʼatlarini pasaytiradi, import qilinadigan mahsulotlarning salmogʻini oshiradi.

---

<sup>6</sup> Сумароков В.Н. Государственные финансы. В системе макро экономического регулирования. -- Москва. Финансы и статистика. 1996. – С.64.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. «Moliya» soʻzi oʻzbek tilida qaysi maʼnolarda ishlatiladi?
2. Moliyaning vujudga kelishi insoniyat tarixining qaysi davrlari bilan oʻzaro bogʻlangan?
3. «Moliya» atamasini dastlab fanga kim olib kirgan?
4. Moliya deb nimaga aytiladi?
5. Oʻzbekistonlik olimlardan kimlar moliya atamasi rivojiga oʻz hissalarini qoʻshgan?
6. Moliyaning muhim belgilariga nimalar kiradi?
7. Moliya qanday jarayonlar oʻrtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini oʻzida aks ettiradi?
8. Moliyaning funksiyalari haqida T.S.Malikov nimalar degan?
9. Moliyaning qayta taqsimlash jarayoni qanday yuzaga keladi?
10. Moliyaning nazorat funksiyasini tushuntirib bering.
11. Moliyaning nazorat funksiyasini bajarilishining turli darajadagi organlar miqyosida qanday turlarga boʻlinadi?
12. Moliyaning milliy iqtisodiyotdagi rolini izohlab bering.
13. Moliyaviy siyosatning elementlari nimalardan iborat?

## **2 - MAVZU. MOLIYAVIY TIZIM VA MOLIYAVIY BOSHQARUV**

- 1. Moliya tizimining ahamiyati, uning tuzilishi.**
- 2. Davlat moliyasi va uning tarkibiy bo'g'inlari.**
- 3. Moliyani boshqarishning mohiyati va organlari, ularning vazifalari.**

### **1. Moliya tizimining ahamiyati, uning tuzilishi**

Mamlakatda milliy valyutaning harakati bilan bog'liq munosabatlarning bir qismini moliyaviy munosabatlar tashkil etadi. Ayni shu holatda, davlat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlararo moliyaviy aloqalar mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobidan davlat byudjetiga o'tkaziladigan turli darajadagi to'lovlar va soliqlar tarzida yoki davlatning byudjet tashkilotlarining pul mablag'lari fondiga moliyaviy resurslarning kelib tushishi bilan ro'yobga chiqadi.

Vaholanki, davlat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ikki tomonning o'zaro manfaatlari asosida shakllanishi, ya'ni byudjetdan mablag' yo'naltirish, soliq tizimi bilan o'zaro muvofiqlashishi mumkin.

Davlat bilan aholi o'rtasidagi yuzaga keluvchi moliyaviy munosabatlar, avvalo, davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan pul mablag'lari fondlari hisobidan turli xildagi to'lovlar va boshqa ajratmalarni amal qilish bilan yuzaga keladi. Shu boisdan, mazkur turdagi munosabatlar davlat rivojlanishining turli jarayonlarida aniq holatlarga, boshqarish uslubiyatlariga va xo'jalik yuritishning maqsadidan kelib chiqib o'zgarib turadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning o'ziga xos bo'lgan sharoitlarida moliya tizimining taraqqiyoti tendensiyalarini tahlil etish moliyaviy munosabatlarning xususiyatlarida umumiy belgilar borligini bildiradi. Bu esa, moliya tizimini amal qilishining obyektiv sabablari va shartlarini saqlanib qolinganligi bilan ta'riflanadi. Bularning orasida ikkitasi ajralib turadi: tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi va bu munosabatlarning subyekt sifatida davlatning amal qilishi. Boshqa qiymat kategoriyalaridan farqli ravishda (misol uchun pul, kredit, mehnatga haq to'lash fondi va boshqalar) moliya davlatning amal qilishi bilan organik bog'liqdir.

Davlat o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq tarzda yuzaga keluvchi pul fondlariga bo'lgan ehtiyojlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidagi ehtiyojlarining turlicha ko'rinishdali moliyaviy munosabatlarni turli darajalarda vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa, ularni alohida guruhlariga birlashtirish imkonini beradi. Moliyaviy munosabatlarni turlicha guruhlashtirish mumkin.

Aytmoqchimizki, moliya tizimi moliyaviy munosabatlarning barcha jabhalaridagi munosabatlar majmuini anglatadi. Demak, mazkur tizimning har

bir bo'g'ini pul mablag'lari fondlarini hosil qilish va ulardan foydalanish xususiyatlari, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi rolining turli darajada aks etishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Vaholanki, moliyaviy munosabatlarni, o'z navbatida, ikkita guruhga bo'lish mumkin. Bular – makro darajada takror ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun imkoniyat beruvchi davlat moliyasi, mikro darajada takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy ta'minlovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi.

Shu boisdan, moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tizimlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Demak, moliya tizimi moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Moliya tizimi, o'z navbatida, uch tarkibiy qismdan iboratdir:

- Davlat moliyasi (Markazlashgan pul fondlari);
- Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi (Markazlashmagan pul fondlari);
- Xalqaro moliya.


Davlat moliyasi moliya tizimining asosiy qismini tashkil etadi, uning asosiy bo'g'ini esa davlat byudjetidir. Davlat byudjeti – davlat byudjeti daromadlari bilan xarajatlarining tarkibiy qismidan iborat bo'lgan moliyaviy rejadir<sup>7</sup>.

Moliya tizimini alohida bo'g'inlarga ajratish har bir bo'g'inning vazifalaridagi farqlanishga hamda markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlariga asoslanadi. Davlat markazlashgan pul fondlari moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan tuziladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi davlatning bajaradigan muhim roli uning ixtiyorida moliyaviy resurslarning katta qismini markazlashtirish zaruriyatiga olib keladi. Bular hisobidan davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vazifalarini hal etish ehtiyoji ta'minlanadi. Markazlashmagan pul fondlari korxonalarini o'zlarining pul daromadlari va jamg'armalari hisobidan tashkil topadi.

Moliya tizimini biz quyidagi rasm orqali yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin bo'ladi:

---

<sup>7</sup> Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. /O'quv qo'llanma – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. – B.260.



**2.1.-rasm. Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari**

Moliya tizimining alohida guruhlarga ajratilishi hamda uni tarkibiy bo'g'inlarga turkumlanishi YaIMni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni vujudga kelishi va ularning ishlatilishi jarayonida moliyaviy munosabatlar subyektlarining o'zaro farqli ravishda ishtirok etishi orqali o'z ifodasini topadi. Moliya tizimining har bir guruhi va uning tarkibiy bo'g'inlariga pul mablag'lari fondlari va daromadlarini hosil qilish va ularning ishlatilishi jarayonlarining o'ziga xos turlari va usullariga tegishlidir. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyasi mahsulotlarni yaratishga, YaIMni yaratishga, uni xo'jalik yurituvchi subyektlararo taqsimlanishida va YaIMning bir qismini davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga qayta taqsimlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bilan davlat byudjeti orqali moliyaviy resurslar davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armalariga kelib tushadi hamda ular iqtisodiy hududlar, sohalar va aholining turli qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlanadi.

## **2. Davlat moliyasi va uning tarkibiy bo'g'inlari**

Davlat moliyasi milliy iqtisodiyotning ma'lum sohalarini barqaror faoliyat olib borishi uchun muhim markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirishda, moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat



hududlariaro, tarmoqlararo hamda mulk shakllari, aholining ma'lum qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.


Davlat moliyasi ana shu tizimning muhim qismi bo'lib qolmoqda. Davlat moliya tizimi o'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan pul munosabatlari davlat ixtiyoriga kelib tushadigan, ijtimoiy ta'minot, mudofaa, boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalanadigan pul resurslarini shakllantirish bilan bog'liq jamiyat boyligini aks ettiruvchi jarayondir. Bu jarayonda pul munosabatlarining subyektlari bo'lib, davlat muassasalari, birlashmalari, byudjet tashkilotlari hisoblanadi.

Davlat moliya tizimining asosini davlat byudjeti tashkil etadi. U bir tomondan, resurslarning hal qiluvchi qismini o'zida jamlaydi, ikkinchi tomondan esa, barcha moliya bo'g'inlari va muassasalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Davlat byudjeti. Demak, davlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan soha davlat byudjetidir. Davlat byudjeti mamlakat hududida davlatning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini moliyaviy ta'minlash jarayonida yuzaga keluvchi byudjet daromadlari va xarajatlari majmuidan iboratdir.

Davlat byudjetining zaruriyati davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Chunki, jamiyatdagi barcha uchun zarur, lekin tijorat asosida tashkil qilinmaydigan ehtiyojlarni ta'minlash ma'lum bir mablag'ni talab qiladi. Aynan shunday ehtiyojlarning mavjudligi davlat byudjeti zarurligining asosi bo'lib hisoblanadi.


Shu boisdan, davlat byudjeti iqtisodiyotning rivojlanishi va ijtimoiy sohaning barqarorligini ta'minlashning muhim instrumenti bo'lib qoladi. Iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich kirib borishi byudjetning ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarini qisqartirish hamda mazkur jarayonlarni keng ko'lamlil ijtimoiy dasturlarni mablag' bilan ta'minlash manbalari bilan oqilona uyg'unlashtirib borishni taqozo etadi. Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltiradigan xarajatlari pirovard natijada faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan mablag' sarflashdan butunlay voz kechishning iloji yo'q, chunki, iqtisodiyotning davlat sektori saqlanib turadi, u esa, davlat investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni, kapital sarflarning tarmoq va hududiy tuzilishini izga solib turishni talab etadi.



**2.2-rasm. Byudjet tizimi**

Respublika byudjeti – umumdavlat miqyosida tadbirlar bilan bog‘liq jarayonlarni moliyalashtirish paytida yuzaga keluvchi byudjetning bir bo‘g‘inidir.

Davlatning maqsadli jamg‘armalarini quyidagi ko‘rinishda ifodalashimiz mumkin:




**2.3-rasm. Davlat maqsadli jamg‘armalari**

O‘z o‘rnida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘y sunuvida bo‘lgan tumanlar va shaharlarning byudjetlaridan tashkil topadi. Demak, mahalliy byudjetlarga viloyatlar va Toshkent shahri byudjeti kiradi. O‘z navbatida, viloyatlar byudjetiga viloyat bo‘y sunuvida bo‘lgan tumanlar va shaharlar, viloyat byudjetining o‘zi kirs, Toshkent shahri byudjeti va unga bo‘y sunuvchi tumanlar byudjetidan tashkil topadi.

Latviyaning byudjet tizimi «Moliya va byudjetni boshqarish to‘g‘risida»gi (1994-yil), «O‘z-o‘zini boshqarish organlari byudjetlari to‘g‘risida»gi (1995-yil), «Soliqlar va bojlar to‘g‘risida»gi (1995-yil) qonunlari asosida boshqariladi. «Latviyada byudjetning asosiy maqsadi – davlat uchun qancha mablag‘lar kerakligini aniqlash, boshqa davlat xizmatlari, moliyaviy institutlar va o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan qonun hujjatlariga muvofiq ko‘rsatilgan xarajatlarni daromadlar bilan ta‘minlanishni to‘g‘ri asoslashdir»<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> Лукашина Ольга. Рекомендации по изучению налогового законодательства. – Рига. 2005. – С.37.

Davlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan biri bu davlat kreditidir. Mazkur jarayonda davlat o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarining vaqtincha bo'sh turgan moliyaviy mablag'larini ma'lum davr mobaynida foydalanishidir.



#### 2.4-rasm. Davlat ichki qarzlarning yuzaga kelishi

Davlat kreditining mohiyati shundan iboratki, davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armalariga mablag'lar yetishmovchiligi yuzaga kelgan sharoitda mablag'lar jalb qilish tushuniladi. Masalan, davlat byudjetining xarajatlari daromadlaridan ortib ketgan bir paytda byudjetning taqchilligi (defitsiti) yuzaga keladi. Aynan shu davrda, davlat mazkur moliyaviy resurslar bo'yicha yetishmovchilikni tashqaridan qarz olish bilan ta'minlaydi. Mazkur holatda davlat krediti yoki boshqacha aytganda davlat qarzi vujudga keladi.

Davlat krediti (qarzi) – bu davlat xarajatlarini ma'lum bir qismini turli darajadagi manbalar hisobidan mablag'larni foiz to'lash sharti bilan qandaydir muddatga mablag' jalb qilinishidir.

Davlat krediti ichki va tashqi manbalar hisobidan jalb qilinishi mumkin.

Demak, ichki manbalarga bu mamlakatdagi fuqarolarni hamda yuridik shaxslarining moliyaviy mablag'larini jalb qilish bilan yuzaga keladi.

### **3. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi**

Moliya tizimining markazlashmagan holda yuzaga keluvchi mustaqil soha sifatida vujudga keluvchi bo'g'ini bu – xo'jalik yurituvchi subyektlar (XYuS) moliyasi hisoblanadi. Ba'zi adabiyotlarda mulkchilik nuqtai nazaridan korxonalar va tashkilotlarning moliyasi deb yuritiladi. Biz mazkur darsligimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi tarzida yangi yondashuvni ilgari surdik. Mamlakatda xususiylashtirish jarayonlari rivojlanishi, xususiylashtirish sektorida oilaviy tadbirkorlik faoliyatlariga keng imkoniyatlar yaratilayotganligi sababli oilalar xo'jaligining moliyaviy munosabatlarda ishtiroki yuzaga keldi. Mazkur faoliyatni mustaqil tarzda amalga oshiruvchi oilalar hisobida markazlashmagan tarzda vujudga keluvchi uy xo'jaliklari byudjeti hosil bo'ladi. Aksincha, biz korxonalar va tashkilotlar moliyasi tarkibiga uy xo'jaliklari moliyasini kirita olmaymiz. Uy xo'jaligi ham bir xo'jalik yurituvchi subyektdir.

XYuSlar faoliyatida sifat o'zgarishlarini amalga oshirmasdan turib, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin emas. Ularni isloh qilish jarayonining mazmuni bozor munosabatlari rivojlanishining qonuniyatlaridan kelib chiqadiki, ularda birlamchi bo'g'in (XYuS)ga alohida o'rin berilishi kerak<sup>9</sup>.

Demak, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasining birinchi guruhiga – tijorat muassasalari moliyasi kiradi. Bevosita mazkur muassasalar tarkibiga banklar va kredit muassasalari, sug'urta kompaniyalari, lizing tashkilotlari, xususiylashtirish korxonalar va firmalarni kiritish mumkin.

Shuningdek, tijorat muassasalarining yirik guruhlaridan biri banklardir. O'zbekistonda olib borilgan islohotlar natijasida ikki bosqichli bank tizimi qaror topdi. Banklar real iqtisodiyotni moliyalashda muhim rol o'ynamoqdalar. Tijorat banklarini boshqarish usullari va boshqarishga yondashuvlar takomillashib bormoqda. Tijorat banklarini boshqarishda aksiyadorlarning roli yildan-yilga ortib bormoqda va korporativ boshqaruv tizimi joriy etilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida tijorat banklari ixtisoslashgan banklar sifatida tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik ular universal banklarga aylantirildi. Bu esa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mijozlarga samarali xizmat ko'rsatilishi, ularga bank xizmatlarining keng ko'lamini taqdim etilishi uchun imkoniyatlarni yaratdi. Iqtisodiyotning liberallashtirilishi doirasida bank faoliyatining ham bosqichma-bosqich erkinlashtirib borilayotganligi bu jarayonda unda ishtirok etayotgan barcha subyektlarning manfaatlari ishonchli himoya qilinishi bo'yicha qattiqroq talablar qo'yilishiga olib kelmoqda.

---


<sup>9</sup> Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi (o'quv qo'llanma) / Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2010. – B.276.

Tijorat muassasalari moliyasini tashkil etishda quyidagi prinsiplarga e'tiborni qaratish muhimdir:

- moliyaviy munosabatlarni tashkil etishda xo'jalik faoliyati sohasida erkinlik (qonunchilik asosida);
- o'z xarajatlarini o'zi qoplashi;
- faoliyati davomida daromad (foyda)ga ega bo'lish yoki moddiy manfaatdorlikning mavjudligi;
- moliyaviy resurslarni jalb etishda bevosita ishtirok etish;
- moliyaviy mablag'larni tasarruf etishda moliyaviy mustaqillik;
- byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalariga soliq va majburiy to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini birinchi navbatda bajarish;
- xo'jalik faoliyati ustidan ichki moliyaviy nazorat.

## 2.5-rasm. Tijorat muassasalari moliyasini tashkil etuvchi prinsiplar

Tijorat banklari faoliyatining yanada erkinlashtirilishi, bank strategiyasi va siyosatini ishlab chiqishdagi, bankning moliyaviy ahvoriga ta'sir etuvchi mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishda ularning mustaqilligining kengaytirilishi bank qonunchiligida Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida o'z ifodasini topmoqda. Masalan, ilgari tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini o'tkazilishida to'g'ridan-to'g'ri cheklovlar mavjud bo'lsa, hozirgi paytda har bir tijorat banki ularni o'zi ishlab chiqqan va har yili qayta ko'rib chiqiladigan kredit siyosati asosida amalga oshiradi. O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, 2002-yilda «Fuqarolarning banklardagi omonatlari himoyalaniishini kafolatlash to'g'risida» qonunni qabul qildi. Bu qonunga binoan, Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi tashkil etildi.



## 2.6-rasm. Bank tizimi

Markaziy bank – o‘z sarf-xarajatlari o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir.

Markaziy bank davlatga qarashli yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan va moliyaviy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshiradi.


Umuman olganda, Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi to‘rt guruhga (turga) bo‘linadi<sup>10</sup>:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank – “banklar banki” hisoblanadi;
3. Markaziy bank – “hukumat bankiri” hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul-kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Moliyaviy vositachi muassasalarning bir bo‘g‘ini sifatida sug‘urta tashkilotlari ahamiyatlidir. Umuman, sug‘urta jarayonlari moliyaviy munosabatlarning muhim qismi bo‘lib hisoblanadi.

Sug‘urta – undan foydalanuvchi istiqbolda ko‘rishi mumkin bo‘lgan favqulodda zararlarni qoplashni ko‘zda tutuvchi maqsadli sug‘urta pul mablag‘lari jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan qayta taqsimlash munosabatlari majmuasidan iborat.

Sug‘urta munosabatlari – bu uning subyektlari o‘rtasidagi faoliyatlari natijasida yuzaga keluvchi ehtimolli zararlarni qoplash yoki sug‘urta hodisalarini yuz berishi oqibatlarini bilan bog‘liq xo‘jalik subyektlari yo‘qotishlarini tenglashtirish uchun mo‘ljallangan sug‘urta jamg‘armasiga ma‘lum maqsadli badallar hisobiga alohida pul jamg‘armalarini shakllantirish yuzasidan qayta taqsimlash munosabatlarini o‘zida aks ettiruvchi munosabatlar tizimidir.



**2.7-rasm. Sug‘urta turlari**

<sup>10</sup> Rashidov O.YU., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiev R.R. Pul, kredit va banklar. /Darslik. – T.: TDIU, 2009. – B. 439.

Xususiy korxonalar yoki firma mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonalar (firma) deb ataladi. Xususiy korxonalar (firma) tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Lizing — moliyaviy ijaraning alohida turi boʻlib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirigʻiga binoan, uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obʻyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun oʻn ikki oydan ortiq muddatga beradi. Demak, mazkur tamoyil asosida faoliyat koʻrsatuvchi tijorat tashkiloti – lizing tashkiloti deyiladi.


Bunda lizing tashkiloti shartnomalarida quyidagi talablardan biri oʻz aksini topishi lozim:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyekti lizing oluvchining mulki boʻlib oʻtsa;

- lizing shartnomasining muddati lizing obyekti xizmat muddatining sakson foizidan ortiq boʻlsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlangʻich qiymatining yigirma foizidan kam boʻlsa;

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyekti uning bozor qiymatidan past narxda evazini toʻlab sotib olish huquqiga ega boʻlsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyekti qiymati asos boʻladi;

- Lizing uch taraflama (sotuvchi — lizing beruvchi — lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi — lizing oluvchi) lizing shartnomasi boʻyicha amalga oshiriladi.



## 2.9-rasm. Xarajat elementlari

### 4. Moliyani boshqarishning mohiyati va organlari, ularning vazifalari

Umuman olganda, soha yoki ma'lum bir tarmoqni rivojlantirishda muhim omillardan biri – bu boshqaruvdir. Boshqarishdan ko'zlangan maqsad boshqarilayotgan ma'lum bir soha yoki tarmoq barqarorligini ta'minlashda ilmiy asoslarga tayangan holda uning faoliyatini tartibga solishdir. Milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan moliyaviy munosabatlarni tartibga solish ham muhimdir. Vaholanki, uning barqaror rivojlanishiga erishish moliyani boshqarish usul va mexanizmlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shu boisdan, boshqaruv moliyani boshqarish kategoriyasiga ham taalluqli bo'lgan tushunchadir.

Demak, moliyaviy boshqaruvni ilmiy xulosalarga asoslangan ma'lum bir uslub hamda vujudga keladigan tamoyillar asosida joriy qilish va amalga oshirish muhim hisoblanadi. Ma'lumki, u yoki bu ko'rinishdagi maqsadlarga erishishda belgilangan vazifalarni bajarishda turli xil yo'nalishdagi yechimlar mavjud bo'ladi, ammo, ularni samarali hal etishda o'ziga xos bo'lgan murakkabliklari mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish bilan natijaga erishish zarurdir.

Umuman, davlatning xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyati bilan o'zaro munosabatlari soliqqa tortish amaliyoti, markazlashgan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, bank-kredit munosabatlari, moliya bozori




amal qilishining huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish bilan vujudga keladi.

Shu boisdan, moliyani boshqarishdan ko'zlangan asosiy strategik maqsad – mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Bular esa, byudjet profitsit bilan bajarilishiga erishish, davlatning Tashqi qarzi bilan bog'liq munosabatlarni optimallashtirish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash, soliq yukini kamaytirish hamda aholining xarid qobiliyatini mustahkamlash kabi moliyaviy munosabatlarning rivojlanishida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun, uning uslubiy asoslari quyidagilar bilan tasniflanishi muhim hisoblanadi:

- natijaga yo'naltirilgan maqsad;
- milliy iqtisodiyotning barcha sohalari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bevosita ishtiroki;
- mazmunan iqtisodiy yo'naltirilgan qonunchilik moliyaviy barqarorlikka xizmat qilishi va uni boshqarishi;
- mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, moliyaviy munosabatlarning shart-sharoitlarini belgilash;
- pirovardida barcha yangilanishlar jamiyat a'zolarining manfaatlarini o'zida aks ettirishi.

Moliyaviy boshqaruv jarayoni murakkab voqelik bo'lib hisoblanadi. Unda mavjud boshqaruvchi (subyekt) va boshqariluvchi (obyekt) yaxlit bir tizim bo'lib yuzaga keladi. Bu yerda moliyaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi tashkilotlar subyekt sifatida yuzaga kelsa, moliyaviy munosabatlar majmuini tashkil etuvchi moliya tizimini o'z ichiga oladi. Masalan, davlat byudjeti, pensiya jamg'armasi, xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoridagi markazlashmagan fondlar boshqaruvning obyekt bo'lib maydonga chiqadi. Shunga muvofiq ravishda, moliyani boshqaruv subyektlari ular faoliyatidagi pul munosabatlarini tartibga solib turadi. Umuman, moliyani boshqarishdagi subyektlarning tashkiliy tuzilmasi sifatida moliyaviy apparat yuzaga keladi. Demak, moliyaviy boshqaruv tizimida moliyaviy munosabatlar (obyekt) sifatida yuzaga kelsa, ularni boshqaruvchi moliya tizimi subyektlari aks etadi.

Moliya tizimining barcha soha va bo'g'inlarida, ko'zlangan maqsadga erishish uchun moliyaviy boshqaruv subyektlaridan o'z yo'nalishlari bo'yicha samarali foydalaniladi. Biroq, ular uchun moliyaviy boshqaruvning umumiy uslub va qoidalari mavjuddir.




**2.10-rasm. Moliyani boshqarish elementlari**

Albatta, moliyaviy boshqaruvning muhim elementlaridan bu moliyaviy tartibga solish hisoblanadi. Moliyaviy instrumentlarning ichida bu – soliq siyosatidir. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda soliq to'lovchilarning imkoniyatlarini hisobga olish bilan birga, davlatning byudjet xarajatlarini tartibga soluvchi byudjet siyosatini ham hisobga olishi lozim. Shu boisdan, byudjet-soliq siyosati orqali iqtisodiyot tartibga solib turiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini inobatga olgan holda, soliq yukini optimallashtirish ahamiyatlidir. Davlat soliqlar yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadining bir qismini byudjetga olib boradi va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining ba'zi turlari uchun imtiyozlar beradi yoki ba'zi sohalarni tubdan yangilash, qayta (yangi) tuzish uchun ma'lum muddatga soliqlardan ozod etadi hamda bular orqali iqtisodiyotni tartibga soladi. Davlat soliqlar hisobidan shakllangan byudjet daromadlari yordamida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nuqtai nazaridan ayrim sohalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va ular faoliyatini moliyaviy vositalar orqali boshqaradi va tartibga soladi.

Moliyaviy nazorat - boshqaruv elementi sifatida bir vaqtning o'zida moliyaviy dasturlashtirish hamda moliyaviy prognoz qilishda qo'llaniladi. Nazorat haqiqiy natija bilan rejadagi ko'rsatkichlarni taqqoslashga yordam beradi, mazkur tahlil orqali esa, moliyaviy resurslarni ko'paytirishga imkoniyatlarni ochib beradi va ulardan samarali foydalanishni boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, moliyaviy tartibga solishda, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunining 6-moddasiga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talablardan biri bu tekshirishlarni o'tkazishga ruxsat berilganligi to'g'risidagi maxsus guvohnoma bo'lishi kerakligidir. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 92-moddasi

davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi zimmasiga tekshiruv o‘tkazish chog‘ida xizmat guvohnomasidan tashqari, tekshirishlarni o‘tkazishga ruxsat berilganligi to‘g‘risidagi maxsus guvohnomasini ham ko‘rsatish majburiyatini yuklaydigan qoidalar bilan to‘ldirilgan. Ayni vaqtda Kodeksning 94-moddasida davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxslari tekshirilayotgan soliq to‘lovchidan tekshiruv maqsadlariga va tekshiruv davriga taalluqli hujjatlarnigina talab qilib olishga haqli ekanligiga oid normalar o‘z ifodasini topdi.



### 2.11-rasm. Moliyaviy vositalar orqali tartibga solish

Davlat mamlakatda moliyaviy barqarorlikni turli instrumentlardan foydalanadi. Masalan, milliy iqtisodiyotga ichki va tashqi manbalar hisobidan moliyaviy resurslarni jalb qilish. Mazkur faoliyat, asosan, investitsiya muhiti orqali o‘z ifodasini topadi. Bunda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- yaratilgan investitsiya qonunchiligi;
- mavjud soliq imtiyozlari shart-sharoitlari;
- milliy valyutaning konvertatsiya qilinish imkoniyatlari va shartlari;
- davlat kafolatining mavjudligi yoki yo‘qligi va boshqa bir qator unsurlarni ko‘rsatish mumkin.

Umuman, moliyaviy resurslarni jalb qilishning ko‘plab usullari qatoriga moliya bozori orqali aylanadigan pul aylanmalarini ham kiritishimiz mumkin. Bunda bevosita moliyaviy boshqaruvning bir vositasi o‘z aksini topadi.

Moliya tizimi barqaror faoliyat ko‘rsatishida davlatning oliy organlari tomonidan moliyaviy nazorat va bir vaqtda moliyaviy boshqaruv amalga oshiriladi.

Moliya tizimi munosabatlarini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi tizim

mamlakatimizda quyidagi tartibda tashkil topgan:

- Prezident va Prezident devoni;
- Oliy Majlis;
- Hisob palatasi;
- Vazirlar Mahkamasini;
- Moliya vazirligi;
- Markaziy bank;
- Davlat soliq qo‘mitasi;
- Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish

Davlat qo‘mitasi;

- Davlat bo‘xona qo‘mitasi;
- Byudjetdan tashqari fondlarning ijroiya idoralari;
- va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (Prezident devoni) moliya tizimi moliyaviy munosabatlarni belgilab beradi va mamlakatning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risidagi hujjatni imzolaydi va boshqa qator moliyaviy qonun hamda huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga ko‘ra va O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi 432–II-sonli Konstitutsiyaviy qonunida Oliy Majlisning moliya tizimini boshqarish bilan bog‘liq vakolatlari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, Senat va qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlari (8-modda) quyidagilardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish;

Shu bilan birga, mazkur masalalar bo‘yicha, xususan, Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha hisobotni, moliyaviy qonunlarni qabul qiladi hamda davlatning ichki va tashqi manbalardan jalb qilinadigan davlat krediti (qarzi) me‘yorlarini ham belgilaydi.

Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi sifatida Moliya vazirligi hisoblanadi. Mazkur davlat boshqaruv organi umumdavlat miqyosida moliyaviy, byudjet-soliq va valyuta bilan bog‘liq siyosatlarni amalga oshirilishini ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrda «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 553 – sonli qaroriga muvofiq quyidagi vazifalarni bajaradi:

– moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta‘sir ko‘rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o‘shirishini ta‘minlash, moliya-kredit vositalarining xo‘jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni

rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan yaxlit Xalq xoʻjaligi dasturlarini mablagʻ bilan taʼminlash, zarur moliya, valyuta zaxiralarini tashkil etish;

– moliya va narx mexanizmining aksil xarajat yoʻnalishini oshirish, uni resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni ragʻbatlantirish tomon yoʻnaltirish, nobudgarchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala chiqimlarini kamaytirish, foyda (daromad)ni koʻpaytirish;

– moliya, byudjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablagʻ bilan taʼminlash usullarini takomillashtirish;

– sugʻurta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi sugʻurta tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish;

– auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya bitimlarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

– korxonalar, vazirliklar, idoralar, banklar va davlat sugʻurta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, xoʻjalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish sohasida mahalliy moliya organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

– moliya, soliq, narx belgilash, sugʻurta, valyuta, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, soliq maslahati boʻyicha faoliyat sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

– fuqarolarning pensiya taʼminoti sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqish;

– byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini taʼminlash;

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. Moliya tizimini tushuntirib bering.
2. Moliya tizimining tarkibiy qismlarini sanab bering.
3. Davlat moliyasi (Markazlashgan pul fondlari)ni tushuntirib bering.
4. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasi (Markazlashmagan pul fondlari)ni tushuntirib bering.
5. Davlat maqsadli jamgʻarmalarini izohlab bering.
6. Respublikamizning bank tizimini tushuntirib bering.
7. Sugʻurta nima?
8. Lizingni tushuntirib bering.
9. Moliyaviy boshqaruv nima?
10. Moliyaviy boshqaruv subyektlarini aytib bering.
11. Moliyaviy boshqaruv obyektlarini aytib bering.
12. Moliyaviy boshqaruvning elementlari sifatida nimalar vujudga keladi?

### **3-MAVZU. DAVLAT BYUDJETI MOHIYATI TUSHUNCHASI**

- 1. Davlat byudjeti.**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi.**
- 3. Davlat byudjetining solikli daromadlari.**
- 4. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari.**

#### **1. Davlat byudjeti**

«Davlat byudjeti hokimiyati organlari o‘z vazifalarini bajarishlari uchun shakllantiriladigan va ishlatiladigan pul mablag‘larining markazlashtirilgan fondidir»<sup>11</sup>.

Davlat byudjeti respublikamizda ikki tarkibga bo‘linadi (davlat maqsadli jamg‘armalarisiz). Ular: Respublika byudjet va mahalliy byudjet.

Davlat byudjeti turli darajadagi munosabatlarga daxldor kategoriyadir. Shu sababli, vujudga kelishi va uning taraqqiy etishi davlatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog‘langan. Shu boisdan, davlat byudjeti orqali davlat bevosita o‘z faoliyatini ta‘minlash vositalaridan biri hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o‘tkazishning muhim unsuri tarzida foydalanadi.


Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risidagi qaror moliya yili boshlanishidan oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining byudjet daromadlari va xarajatlarini aks ettirgan va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni ifoda etgan qarori bilan shakllantiriladi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish ikki qismga ajraladi: solikli va soliqsiz. Solikli daromadlarni shakllantirish – mamlakat hududida faoliyat olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar (hamda rezidentlarning chet eldagi daromadlari)dan olinadigan va byudjetga kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan shakllanadi. Soliqsiz daromadlarga byudjetga olinadigan turli yig‘imlar va turli ko‘rinishdagi jarimalar, davlat mulkini sotish, moddiyliklarni davlatga o‘tkazilishi (qoidabuzarliklar oqibatida) va boshqalar kiradi.

Shuning ko‘ra, davlat byudjeti davlatning muhim strategik moliyaviy rejasi sifatida quyidagilarni o‘zida aks ettiradi:

---

<sup>11</sup> З.Ковалева А. М. Финансы. Учебное пособие. – Москва: Финансы и статистика, 2005. – С. 29.



**3.1-rasm. Davlatning strategik moliyaviy rejasi**


Byudjet xarajatlarini daromadlar hisobidan amalga oshirishda davlat ilmiy-texnika yutuqlarini ommalashtirish, mamlakatda tinchlik o‘rnatish, aholining turli qatlamlarini himoyalash, ijtimoiy xizmatlarni aholiga yetkazib berishda (ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat va h.k.) xarajatlarni amalga oshirish uchun daromadlar doirasida bo‘lishini ta’minlaydi.

Byudjet-soliq siyosatining strategik vazifalari:

- byudjetdan moliyalashtirish va byudjet normalari, byudjet xarajatlarini sarflash, ularning maqsadliligi hamda byudjet taqchilligini qisqartirish kabi vazifalarni istiqbolda samarali tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan byudjet siyosatini shakllantirish;

- soliq stavkalari, soliq yuki, soliq muammolari va imtiyozlari kabi vositalar orqali iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy instrumenti hisoblanadi va kelajakda milliy iqtisodiyot tarmoqlarini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi soliq siyosatini shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari manbalari quyidagilar hisoblanadi:



### 3.2-rasm. Davlat byudjeti daromadlari manbalari

Maqsadli jamg'armalarning daromadlari (Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Yo'l jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi, davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob varag'i).

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari mazkur daromadlar doirasida quyidagi yo'nalishlar uchun sarflashni ko'zda tutadi:


Demak, ko'rinib turibdiki, daromadlarni shakllantirish va ular asosida xarajatlarni ko'zda tutish byudjet-soliq siyosati orqali o'z ifodasini topadi.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'planadigan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi<sup>12</sup>.

Davlat byudjetining xarajatlari va daromadlari bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Zero, ular bir-biriga ta'sir etib turadi. Ayni shu ma'noda bir-birini muvofiqlashtirib borishi lozim. Byudjet xarajatlari kelib tushadigan byudjet daromadlarining hajmlariga qarab qattiq cheklanadi. Daromadlar esa davlatning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, byudjet xarajatlarining muddat va hajmlarini kelib tushadigan daromadlarning muddat va hajmlariga muvofiq qilib belgilash juda muhimdir.

<sup>12</sup> Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. /O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. – B. 260.





### 3.3-rasm. Davlat byudjeti xarajatlari

Davlat byudjetining yana bir muhim tarkibiy bo'g'inlaridan biri bu davlat maqsadli jamg'armalaridir. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining bilvosita tarkibida maqsadli jamg'armalari shakllandi. Mazkur pul jamg'armalari davlatning moliyaviy zaxiralari ko'lamini orttirish va ularni natijaviy hamda maqsadli foydalanishiga xizmat qiladi.

Zotan, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir. Shu boisdan, respublikamizda aholining turli guruhlarini bir necha xil usullar orqali ijtimoiy himoya qilish, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda hamda ijtimoiy dasturlarni joriy qilishda doimiy tarzda ma'lum miqdordagi pul mablag'laridan maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

## 2. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimining asoslarini respublika va mahalliy byudjetlar darajasida amalga oshadigan munosabatlar tashkil etadi.

Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida

ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi quyidagi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladi. Ular: respublika byudjeti va mahalliy byudjet (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar miqyosida).

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarf-xarajatining yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarf xarajati yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Umuman olganda, respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar birgalikda amal qilishi bilan byudjet tizimi yuzaga keladi. O'zbekistonda byudjet tizimi 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi (mazkur qonun 7 bo'lim, 43 moddadan iborat) O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

Unga ko'ra, byudjet tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat (5-modda):

Byudjet tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

– byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

– byudjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

– turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi;

– Davlat byudjeti balansliligi;

– Davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish;

– Davlat byudjeti xarajatlarini byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish;

– barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi.

Byudjet tizimining prinsiplarini quyidagicha izohlash mumkin:

Byudjet tizimining yagonaligi. Byudjet tizimining huquqiy bazasi, pul birligi, byudjet hujjatlari shakllari, byudjet qonunchiligini buzilish oqibatidagi sanksiyalar

yagonaligi, byudjet tizimining barcha bo'g'inlaridagi xarajatlarni moliyalashtirish, hisobini yuritishning yagona tartiblarini amal qilishi.

Byudjetning ma'muriy-hududiy tuzilishga muvofiqligi. Byudjet tashkilotlariga yuklangan davlat vazifalarini bajarishda, uning miqyosidan kelib chiqqan holda, Respublika va mahalliy darajalarga ajratilishi hamda mahalliy byudjetning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan tashkil topishi orqali namoyon bo'ladi.

Byudjetning balansliligi. Davlat byudjeti xarajatlari, daromadlar va taqchillikni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tushum miqdorlarida balanslashtirilishi.

Byudjetlarning o'zaro bog'liqligi. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida daromad va xarajatlarning chegaralanishi.

Aniq moddalar bo'yicha rejalashtirish. Byudjet tizimining har bir bo'g'ini mustaqil daromad va xarajatlarga egadir. Biriktirilgan daromadlar va tegishli xarajatlar markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining huquq va vakolatlariga ham asoslanadi.

Maqsadliligi. Xarajatlarni rejalashtirishda unga asos bo'luvchi maqsadlarni aniq va davlatning ma'lum vazifalarini bajarishga qaratilgan hamda tasdiqlangan byudjet mablag'lari maksimal samara darajasida ijrosini ta'minlanishi lozim.

Barcha byudjetlarning mustaqilligi. Davlat hokimiyatining qonunchilik organlari va mahalliy hokimiyat organlarini byudjet tizimining tegishli bo'g'inlaridagi byudjet jarayonini tashkil qilishdagi huquqlarini ta'minlashi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq byudjet tizimining har qaysi bo'g'ini biriktirilgan daromad manbalarining mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini, ayniqsa, iqtisodiyot sohasini isloh qilishda katta yutuqlarga erishildi. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlari yo'nalishida qayta tashkil etishni amalga oshirishda tamomila yangi yondashuvlar ishlab chiqildi, islohotlar maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari har bir bosqichning xususiyatlari va mazmuniga alohida e'tibor berildi.

Byudjetning asosiy vazifasi ijtimoiy ne'matlarni takroran yaratib ularni el xizmatiga qo'yishdir. Bu xizmatlarni talab – ehtiyojlarga mos ravishda yaratish ularni mahalliyashtirish zarur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy byudjetlar ahamiyatini oshiradi. Biroq ijtimoiy ne'matlar umummilliy va mahalliy ahamiyatga molik bo'ladi. Mana shuning o'zi ularni turli manbalar hisobidan moliyalashtirishni talab qiladi. Bular markazlashgan va mahalliy mablag'lar bo'lishi mumkin. Turli manbalar nisbati byudjetlararo munosabatni yuzaga keltiradiki, u obyektiv sharoitdan kelib chiqadi, chunki ijtimoiy ne'matlarning tabiati ular iste'molini va shunga binoan, ularni hosil etish jarayonini moliyalashtirishni ko'p manbali bo'lishiga xizmat qiladi.

Davlat byudjetida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini ularning jami daromadida soliqlar bazasini optimallashtirish hisobidan yanada mustahkamlash yuz bermoqda. Bunday chora-tadbir tabiiy va moddiy resurslardan yanada samarali va

oqilona foydalanishga xizmat qilishiga qaramay, byudjetlararo munosabatlarning muammosini to'raligicha hal qilishga qodir emas. Buning uchun islohotlarning hozirgi bosqichida byudjet prinsiplarini tobora faol o'zlashtirish talab etiladi.

O'zbekiston byudjet tizimining shakllanish va rivojlanish jarayonida o'z aksini topdiki, bu tizim dastlabki davrdan boshlab davlat iqtisodiy strategiyasining umumiy tamoyillariga muvofiq amal qilib kelmoqda. Bugunga kelib byudjet amaliyotining asosiy natijalari:

- respublika hukumati o'tkazayotgan iqtisodiyotni barqarorlashtirish tadbirlarini moliyalashtirishni ta'minlash;

- mamlakatda moliyaviy barqarorlashtirishga erishish;

- milliy iqtisodiyotni tubdan qayta qurishni amalga oshirish;

- davlat moliya tizimining tamomila yangi asoslarini shakllantirish.

Byudjet tizimi joriy yilning birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan muddat davomi (moliya yili)da amalga oshadi va uning muhim bo'g'inlaridan biri byudjet tashkilotidir. Byudjet tashkiloti – zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkilotidir. Bunda byudjet tashkiloti byudjet tizimini tashkil etishda ishtirok etadi va keyingi yil uchun byudjetnomani tuzishda byudjet jarayonida qatnashadi. Byudjet jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Davlat byudjetini:

- tuzish va ko'rib chiqish;

- qabul qilish;

- ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish;

- ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash.

Byudjet jarayonini tashkil etish byudjet tashkilotlariga byudjet so'rovi yuboriladi. Unda byudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi. Shundan so'ng, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari ajratiladi.

### **3. Davlat byudjetining solikli daromadlari**

O'zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuniga ko'ra Davlat byudjeti daromadlari quyidagilardan iborat (11-modda):

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;

- davlatning moliyaviy va boshqa faollarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat

mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

– yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

– rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet sudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Umuman, byudjet daromadlari soliq va soliqdan tashqari manbalardan shakllanadi. Soliqdan olinadigan daromadlarning asosiy manbalari – bu yangidan yaratilgan qiymat va uning dastlabki qayta taqsimlanishi natijasida olingan daromadlar (foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, suda foizi, renta, dividendlar va boshqalar), shuningdek, jamg'armalardir.

Soliqdan tashqari daromadlar davlatning o'z iqtisodiy faoliyati yoki ilgari olingan daromadlarni byudjet tizimining darajalari bo'yicha qayta taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi.

Soliqlar – bu davlat (markaziy yoki mahalliy hokimiyat) yuridik va jismoniy shaxslardan undiradigan majburiy to'lovlar hisoblanadi. Agar ularning moddiy mazmuniga e'tibor qiladigan bo'lsak, soliqlar – milliy daromadning xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladigan qismini tashkil qiladi.

Soliqlar tasnifi davlat byudjetining jami daromadlari kabi bir qancha belgilar bo'yicha amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi:

– soliqlarni undirish va ularni soliq to'lovchining mahsuloti qiymatiga kiritish shakli va usullari;

– soliq solish (soliqqa tortish) obykti (tarmoq, idora, ularning ahamiyati);

– ular tushum bo'ladigan byudjetlar darajasi.


Undirish shakllariga ko'ra, soliqlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarga bo'linadi. Egri soliqlar tovar (xizmatlar, ish) narxini oshiradi, chunki, ular bevosita narx miqdoriga qo'shiladi. Odatda, bunday soliqlar byudjetga korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik bo'g'inlaridan tushsada, aslida ularning haqiqiy to'lovchilari tovarlar va xizmatlarning iste'molchilari hisoblanadi, chunki, ular narxdagi soliq miqdorini qoplaydilar.

To'g'ri soliqlar jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlarini bevosita kamaytiradi, chunki, bu soliqlar daromadlar (foyda, kapital, ish haqi)dan, shuningdek, mulkning ayrim turlari (ko'chmas mulk, yer, tabiiy resurslar va boshqalar)dan undiriladi. To'g'ri soliqlar ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritilishi mumkin yoki bevosita daromadlardan undiriladi. Aniq bir soliq turini hisoblash tartibini belgilashda asosiy narsa – soliqqa tortish obyektidir.

Bevosita soliqqa tortish obyektlariga jami turdagi resurslar, daromadlar, mulluk, egri soliqqa tortish obyektiga ayrim tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan pul aylanmasi (yoki uning bir qismi) kirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida soliqlarga

boʻlgan munosabat tubdan oʻzgardi. U ikkinchi darajali tartibotdan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga soluvchi vosita va davlat daromadlarini vujudga keltiruvchi asosiy manba darajasiga koʻtarildi.



**3.4-rasm. Soliqlarning davlat byudjetiga tushishiga koʻra turlari**

Demak, aytish mumkinki, davlatning eng muhim daromad manbai soliqlardir. Byudjet – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim sharoiti bo‘lib, soliqlar esa, byudjetni to‘ldirib turishning asosiy manbai bo‘lmoqda. Soliq siyosati va soliq mexanizmi soliqlarning jamiyatidagi rolini aniqlab beradi. Vaholanki, har qanday davlatda maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot, atrof muhitni muhofaza qilish, mudofaa va huquq tartibot sohasidagi hukumat dasturi davlat byudjeti hisobidan pul bilan ta‘minlanadi. Byudjetning daromad qismi esa, asosan, soliqlar orqali hosil qilinadi. Soliqlar davlat faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning ahamiyati doimiy harakatda ko‘rinadi.

Soliqqa tortish jamiyatning shunday sohasiki, u hammaga va har bir shaxsga taalluqlidir.

Bozor munosabatlariga o‘tish bilan byudjet mexanizmi, avvalo, byudjetni prognozlash usuli va usullar majmui ham tubdan o‘zgarimoqda. Byudjetni shakllantirishda ma‘muriy buyruqbozlik usullar o‘rniga iqtisodiy usullari paydo bo‘lmoqda. Shuningdek, davlat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga byudjet mablag‘lardan foydalanishni davlat tomonidan ta‘sir o‘tkazish vazifasi ham o‘zgarimoqda. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarini markazlashgan tartib bo‘yicha mablag‘ bilan ta‘minlash va milliy daromadni qayta taqsimlash davlat byudjetini izga solib turish orqali Xalq xo‘jaligini tuzilishi hamda tarmoqlarning munosibligini o‘zgarishi mumkin bo‘lmoqda.

Soliqlar – bu iqtisodiy kategoriya sifatida sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bu davlat (markaziy yoki mahalliy hokimiyat) yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy to‘lovlar hisoblanadi. Agar ularning moddiy mazmuniga e‘tibor qiladigan bo‘lsak, soliqlar – milliy daromadning xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladigan qismini tashkil qiladi.

Soliqlar – bu byudjetga tushadigan davlat tomonidan belgilanadigan milliy valyutada to‘lanadigan majburiy to‘lovdur. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar, ya‘ni huquqiy va jismoniy shaxslar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
  - yagona ijtimoiy to‘lov;
  - fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
  - byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar.
- 2) Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar:
  - Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
  - Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar.
- 3) bojxona to‘lovlari;

#### 4) Mahalliy yig'img'lar:

- davlat boji;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Keltirib o'tilgan soliq va mahalliy yig'img'lar, bojlar davlat byudjetining daromadlarini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishi nuqtai nazaridan 3 guruhga bo'linadi. Ular:

- bevosita solliqlar (to'g'ri solliqlar);
- bilvosita solliqlar (egri solliqlar);
- resurs to'lovlari mol-mulk to'lovi.

O'z navbatida, mazkur soliq guruhlari tarkibiga quyidagilar kiradi.

Bevosita solliqlar:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qat'iy belgilangan soliq tushumi;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

Bilvosita solliqlar:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- bojxona boji.

Resurs to'lovlari mol-mulk to'lovi:

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Demak, yuqorida keltirilgan solliqlar va boshqa to'lovlar davlat byudjeti daromadlari shakllanishida va ularning manbalari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **4. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari**

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida" qonunining 18-moddasida esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida quyidagi soliqsiz daromadlar ko'rsatib o'tilgan:

1) qonuniy hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

2) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

3) yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet sudalari;



4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan, qaytarilmaydigan pul tushumlari.

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

1) davlat mulkidan foydalanishdan va sotishdan olinadigan daromadlar;

2) fuqarolik – huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olinadigan mablag'lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, kompensatsiyalar va davlat subyektlariga yetkazilgan zararni tiklash bo'yicha olinadigan mablag'lar va majburiy undiriladigan boshqa mablag'lar;

3) moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (byudjet sudalari va byudjet kreditlaridan tashqari).

Davlatning soliqsiz daromadlarini davlat soliqlaridan ajratib turuvchi xususiyatli belgilari mavjud.

Birinchidan, ko'plab soliqsiz to'lovlar ikki yoqlama xarakterga ega, ya'ni ko'plab soliqsiz to'lovlar to'lash bo'yicha huquqiy munosabatlarning subyektlari o'zaro huquq va majburiyatlarga ega. Huquqiy munosabatlarning zaruriy subyekti bo'lgan davlat, soliqsiz to'lovlarni undirar ekan, uning to'lovchilari foydasiga tegishli harakatlarni amalga oshirishi shart, misol uchun, qandaydir faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish, bojxona chegarasidan tovarlarni olib o'tish, qandaydir xizmat ko'rsatish va boshqalar. O'z navbatida, soliqsiz to'lovlarning to'lovchilari davlatdan o'zlarining foydasiga qandaydir harakatlar amalga oshirilishini talab qilish huquqiga ega.

Ikkinchidan, har doim majburiy to'lov hisoblangan soliqlardan farqli o'laroq, soliqsiz daromadlar majburiy va ixtiyoriy shaklga ega bo'lishi mumkin. Soliqsiz daromadlarning katta qismi majburiy to'lovlar hisobiga shakllanadi. Ularning majburiyligi nazarda tutilgan hollarda to'lanmagan holatlarda o'rnatilgan tartibda majburiy undirilishi bilan asoslanadi. Biroq, majburiy soliqsiz va solikli to'lovlarni to'lanishining asoslari bir xil emas: soliqlar soliqqa tortish obyektini mavjud bo'lganida to'lanadi, majburiy soliqsiz to'lovlarni to'lanishining asosi esa vakolatli organlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga ma'lum harakatlarni amalga oshirilishi (u yoki bu huquqlarning berilishi, ishlar, xizmatlar bajarilishi) hisoblanadi. Davlatning soliqsiz daromadlari guruhiga kiruvchi ixtiyoriy to'lovlar yuridik va jismoniy shaxslarning tegishli xohish – irodasiga asoslanadi. Ixtiyoriylik tamoyillari bo'yicha qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish usullari qonunchilik bilan belgilanadi. Ularga davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish va tarqatish, davlat lotereyalarini o'tkazish, xayriya faoliyatini amalga oshirish tartibidagi badallar va boshqa qonuniy usullar.

Uchinchidan, soliqsiz to'lovlarning xususiyatlaridan yana biri shuki, soliq'larga nisbatan ular uchun tushumlarning maqsadlilik belgisi xarakterlidir. Davlatning soliqsiz daromadlarini ishlatishning maqsadlilik soliqsiz to'lovlar joriy qilinish paytida o'rnatiladi va har qaysi to'lovni hisoblash va undirish

tartibini belgilovchi huquqiy hujjatlar yordamida mustahkamlanadi. Davlatning soliqsiz daromadlari, odatda, Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarda jamlanadi. Biroq ayrim soliqsiz daromatlardan tushumlar qonun bo'yicha o'rnatilgan tartibda tegishli mahalliy byudjetlarga o'tkazilishi uchun mahalliy hokimiyat organlariga beriladi.

Davlat aktivlarini birja savdolarida va birjadan tashqari savdolarida sotish mexanizmlarini, davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlarni hisobga olish va mablag'larni taqsimlash tartibini yanada takomillashtirish, shuningdek, investorlarga nisbatan bo'lgan talablarning bajarilishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-yanvarda «Davlat aktivlarini sotish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 27-sonli qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, davlat aktivlarini sotish va ularni davlat byudjeti daromadlari tarkibida shakllantirish tartibi belgilab berilgan.

Davlat aktivlarini sotish natijasida davlat mulki xususiylashtiriladi va u davlat byudjeti daromadining bir qismi hisoblanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

korxonalarni, xo'jalik jamiyatlarining nizom jamg'armalaridagi aksiyalar (ulushlar)ni, yer uchastkalarini va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni sotish;

O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan ilgari berilgan kreditlar hamda olingan kreditlar (qarzar)ning asosiy summasini qaytarish tarzidagi qarzar va ular bo'yicha hisoblangan foizlar bo'yicha qarzdorlardan tushumlar;

tuzilgan va bekor qilingan davlat faollari oldi-sotdi shartnomalari, berilgan kreditlar va qarzar bo'yicha tushgan penyalalar va jarimalar;

nizom jamg'armasida davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatishdan tushumlar;

ishonchli boshqaruvchilar tomonidan talab qilib olinmagan Davlat mulki qo'mitasining sub hisob raqamlaridan qaytarilgan mablag'lar;

protokolni yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan yoki uni rad etgan kim ochdi savdolari yoki tanlovlar (tenderlar) g'oliblaridan ushlab qolingan zakalat summasi;

sud qarorlari bo'yicha xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining maxsus hisob raqamiga va uning hududiy boshqarmalari ikkilamchi maxsus hisob raqamlariga tushumlar hisobiga hosil bo'ladi.

Xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni taqsimlash xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan har oyda milliy valyutada, quyidagi nisbatlarda amalga oshiriladi:

68,5 foizi — respublika byudjetiga;

25 foizi — ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish,

bozor infratuzilmasi institutlarini shakllantirish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga;

4 foizi — ularni faqat bozor infratuzilmasini rivojlantirishga va tadbirkorlarni huquqiy qo‘llab-quvvatlashga maqsadli yo‘naltirgan holda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasiga;

2,5 foizi — tasarruf etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, shu jumladan, xususiylashtirish davlat dasturini amalga oshirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonini axborotlar bilan ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish uchun Davlat mulki qo‘mitasi yoki uning hududiy boshqarmalari hisob raqamlariga.

Xususiylashtirishdan xorijiy valyutada tushadigan mablag‘lar xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasining Markaziy bankdagi maxsus valyuta hisob raqamiga o‘tkaziladi, keyinchalik ular belgilangan tartibda, to‘liq hajmda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga majburiy tartibda sotiladi.

Yer uchastkalarini rezidentlarga xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar, xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining maxsus hisob raqamida hamda Davlat mulki qo‘mitasi hududiy boshqarmalarining ikkilamchi maxsus hisob raqamlarida jamlanadi va quyidagi tartibda taqsimlanadi:

80 foizi — respublika byudjetiga ajratiladi. Bunda yer uchastkalarini xususiylashtirishdan respublika byudjetiga tushgan mablag‘larning kamida 3 foizi muhandislik infrastrukturasi bosh rejalari va sxemalarini xatlovdan o‘tkazish, ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritish, yer kadastrlarini shakllantirish va yerlarni iqtisodiy zonalarga bo‘lish xarajatlarini qoplashga ajratiladi;

20 foizi — mahalliy byudjetlarga muvofiq hududlarning infratuzilmasini rivojlantirish va obodonlashtirish uchun maqsadli foydalangan holda tegishli mahalliy byudjetlarga ajratiladi.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimini tushuntirib bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimida qanday byudjetlar mavjud?
3. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi qanday tartibga solinadi?
4. Byudjet tizimining qanday tamoyillari mavjud?
5. Byudjet tizimining tamoyillarini tushuntirib bering.
6. Byudjetning asosiy vazifalaridan birini izohlab bering.
7. Byudjet amaliyotining asosiy natijalari nimalarda o‘z aksini topmoqda?
8. Moliya yilini tushuntirib bering.

9. Byudjet tashkilotini tushuntirib bering.
10. Byudjet jarayonini izohlab bering.
11. Byudjet so‘rovi nima?
12. Davlat byudjetining tarkibini sanab bering.
13. Davlat byudjeti davlatning muhim strategik moliyaviy rejasi sifatida nimalarni o‘zida aks ettiradi?
14. Davlat byudjeti daromadlari manbalarini sanab bering.
15. Davlat byudjeti xarajatlar yo‘nalishini sanab bering.
16. Davlatning maqsadli jamg‘armalarini sanab bering.
17. Respublika byudjeti xarajatlarini tushuntirib bering.
18. O‘zR Davlat byudjeti daromadlari manbalari nimalardan iborat?
19. Davlat byudjetining solikli daromadlariga nimalar kiradi?
20. Soliqlar tasnifi davlat byudjetining daromadlarida qanday belgilar bo‘yicha amalga oshiriladi?

## 4-MAVZU. G‘AZNACHILIK

1. G‘aznachilikning mohiyati va ahamiyati.
2. O‘zbekistonda g‘aznachilikni joriy etilishi.

### 1. G‘aznachilikning mohiyati va ahamiyati

Byudjetni ijro etish masalasi har doim har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida va rivojlangan davlat sifatida tan olinishida asosiy o‘rinni egallovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham, byudjetni ijro etilishini takomillashtirish hamma davrlarda ham eng ustuvor masalalar qatorida tilga olinadi.

Davlat moliyasini boshqarish – davlat o‘z vazifalarini bajarishini ta‘minlash, moliya resurslarini mobilizatsiya qilishda ma‘lum samaraga erishish, moliya resurslarini bir tizim asosida taqsimlash va ishlatish va nihoyat, iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko‘rilgan tadbirlarning yig‘indisidir. Davlat moliyasini boshqarishda g‘aznachilikni joriy etishdan maqsad – davlat byudjetini boshqarish sohasini rivojlantirish, moliya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy integratsion tizim yaratishdir<sup>13</sup>.

Byudjetni xarajat qismini ijro etish jarayonini tashkil qilish mexanizmi davlat moliyaviy nazoratini ajralmas qismi hisoblanadi.

Davlat tomonidan byudjet xarajatlarini byudjet tashkilotlari doirasida amalga oshirilishi doimo moliyaviy nazoratni talab qiluvchi holat hisoblanadi. Shuning uchun ham, bu jarayonda moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun maxsus vakolatli organni tashkil qilish masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi amalga kiritildi.

Byudjetni xarajat qismini ijro etish jarayonida g‘aznachilik orqali ta‘minlanadigan moliyaviy nazoratni nazariy asoslari ancha avvaldan shakllangan bo‘lib, hozirga qadar ham aniq to‘xtamga kelinmagan. Shu o‘rinda moliyaviy nazorat turlari va ularning byudjet xarajatlar qismi ijrosiga taalluqliligi xususida olimlarning fikrlariga to‘xtalib o‘tsak o‘rinli bo‘lar edi.

Moliyaviy nazoratga xorijdagi olimlarning bergan ta‘riflariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning xilma-xilligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, rossiyalik olimlar A.P.Zudilin va F.N. Axmedovlar o‘zlarining “Finansoviy kontrol” nomli asarlarida moliyaviy nazoratga quyidagicha ta‘rif berishgan<sup>14</sup>: “Moliyaviy nazorat – xo‘jalik subyektlarining hozirgi haqiqiy holatidan kelib

<sup>13</sup> Qosimova G.A. Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. /O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – B. 372.

<sup>14</sup> А.П.Зудилин Ф.Н. Ахмедов. “Финансовый контроль”. – М.: Российский университет, 2000. – С. 9.

chiqib, ular tomonidan amalga oshirilgan amallarni (operatsiyalarni) iqtisodiy samaradorligini ushbu operatsiyalarning bajarilishini qonun hujjatlariga va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi, ishonchliligi, maqsadga yo'naltirilganligi orqali umumiy nazorat qilinishidir".

Ko'pgina iqtisodchi olimlar fikriga ko'ra, moliyaviy nazorat o'z amal qilish jarayoni va holatiga qarab, juda ko'p guruhlarga bo'linadi. Jumladan, o'zbek olimlari A.V.Vahobov va T.S.Malikov o'zlarining "Moliya" nomli kitoblarida moliyaviy nazoratga quyidagicha ta'rif berishgan: " Moliyaviy nazorat – iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga obyektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir<sup>15</sup>." Ularning fikrlariga asosan, moliyaviy nazorat ikki yo'nalishga bo'linadi. Birinchi yo'nalishga ko'ra, moliyaviy nazorat barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartibga solingan faoliyatini aks ettirsa, ikkinchi yo'nalishda moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro va mikro darajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu har ikki yo'nalishdagi moliyaviy nazoratning mazmuni bir-biri bilan bog'liq ravishda amal qiladi.

Moliyaviy nazoratning ta'riflari bugungi kunda juda ko'plab uchraydi va ularning har biri moliyaning o'ziga xos xarakteridan va tahlil qilingan makon va zamonning ta'siri ostida namoyon bo'ladi. Shunga mos ravishda, moliyaviy nazorat shakllari ham turlicha talqin qilinadi.

Mavzudan chetlashmagan holda bugungi kunda mamlakatimizda byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonini rivojlantirish uchun tashkil qilingan Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat shakllariga to'xtaladigan bo'lsak, bu jarayonga ko'p hollarda moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra, shakllari asosida urg'u berilayotganiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda, moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra, shakllarining nazariy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada ham fikrlar turlicha ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, yuqorida ta'kidlab o'tganimiz o'zbek olimlari A.V.Vahobov va T.S.Malikov o'zlarining "Moliya" nomli kitoblarida moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra shakllarini quyidagicha tasniflaganlar<sup>16</sup>:

1. Dastlabki nazorat.
2. Joriy nazorat.
3. Navbatdagi (kelgusi, so'nggi) nazorat.

Ushbu tilga olingan nazorat shakllari bo'yicha o'xshash fikrlarni juda ko'plab o'zbek va g'arb olimlari asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Lekin, shu bilan birga, bu boradagi boshqacharoq fikrlarga ham duch kelishimiz

<sup>15</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent Moliya instituti. — T.: "Noshir", 2011. – B. 7.

<sup>16</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. "Moliya" – T.: "Noshir". 2011. – B. 26.

mumkin. Jumladan, yuqorida o‘zbek olimlari bilan moliyaviy nazorat xususidagi fikrlari o‘xshash bo‘lgan rossiyalik olimlar A.P.Zudilin va F.N.Axmedovlar o‘zlarining “Finansoviy kontrol” nomli kitoblarida moliyaviy nazoratning o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra shakllarini ikkiga bo‘lishadi. Ular:

1. Dastlabki moliyaviy nazorat.
2. Yakuniy moliyaviy nazoratdir<sup>17</sup>.

Bu masala nisbatan muammoli bo‘lib, har bir iqtisodchini muhokamaga chorlaydi. Yana bir rossiyalik iqtisodchi olim N.V.Milyakov o‘zining “Finansi” nomli kitobida esa, xuddi shu masalaga nisbatan yuqoridagi ikki qarama-qarshi fikrlarni muvofiqlashtiruvchi fikr bildiradi. Uning fikricha, moliyaviy nazoratning o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra shakllari uchta bo‘lib, ular dastlabki, joriy va yakuniy nazoratga bo‘linadi. Lekin joriy nazorat ko‘p hollarda, tezkor xususiyatga ega bo‘ladi va u ko‘p hollarda hujjatli va kameral tekshiruvlar asosida amalga oshiriladi hamda holat bo‘yicha yoki mablag‘larni olish yoki to‘lab berilishi jarayonida me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilinishini nazorati bilan yakunlanadi. Uning fikrlaridan shuni tushunish mumkinki, moliyaviy nazorat o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra, uch shaklga ega, lekin ikkinchi shakl tezkor va ogohlantiruvchi hamda aytish mumkinki, yakuniy nazoratga yordamchi bo‘lgan oraliq xususiyatga ega. Uni bir qismini dastlabki nazoratga, boshqa qismini esa, yakuniy nazoratga ajratish mumkin.

---

<sup>17</sup> А.П.Зудилин., Ф.Н. Ахмедов. “Финансовый контроль”. – М.: Российский университет, 2000. – С. 10.

**Moliyaviy nazoratning o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra shakllarga ajratilishi tahlili<sup>18</sup>.**

<b>№</b>	<b>Olimlar F.I.Sh.</b>	<b>Kitob nomi</b>	<b>Dastlabki nazorat</b>	<b>Joriy nazorat</b>	<b>Yakuniy nazorat</b>
<b>1</b>	<b>A.V.Vahobov, T.S.Malikov</b>	Moliya	Moliyaviy operatsiyalar sodir bo‘lishidan avval amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu shakl mablag‘-larning tejamsiz va samarasiz sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo‘lishini ko‘zda tutadi.	Bu shakl mablag‘lar olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizom mustahkamlanishiga va pul hisob-kitoblarini o‘z vaqtida amalga oshirilishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.	Bu shakl hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo‘li bilan amalga oshirilib, iqtisodiy subyektlar faoliyati natijalari, taklif etilgan moliyaviy strategiyalarning samaradorligi, moliyaviy xarajatlarni ularning bashoratlari bilan qiyoslanishi singari jarayonlarni baholashga mo‘ljallangan.
<b>2</b>	<b>A.P.Zudilin, F.N. Axmedov</b>	Finanso viy kontrol	Qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga hamda moliyaviy reja		Qonun va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan hamda tasdiqlangan

<sup>18</sup> Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan.



			(smeta)larga amal qilinishi jarayoni.		moliyaviy reja (smeta)lardan chetga chiqishlarni maxsus vakolatli organ tomonidan nazorat subyektini moliyaviy hamda xo‘jalik faoliyatini reviziya va ekspertiza qilish orqali amalga oshiriladi.
<b>3</b>	<b>N.V.Milyakov</b>	Finansi	Pul mablag‘larini olish yoki sarflash uchun asos bo‘ladigan hujjatlarni qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga hamda moliyaviy prognozlarga mosligini nazorat qilinishi jarayoni.	Bu nazorat shakli, asosan, buxgalteriya hujjatlari va nazorat obyektiga chiqmasdan turib, olishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga solishtirish asosida mablag‘larni olish yoki sarflash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xatoliklarni to‘xtatish	Bu nazorat shakli o‘tgan davrda nazorat subyektining barcha moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini qonun va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga mosligini, amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadlilikini, to‘liqli-ligini hamda o‘z vaqtida amalga oshirilganligini nazorat qilish davridir. Ushbu nazorat shaklini amal qilishi

				vazifasini bajaradi.	bevosita nazorat obyektiga chiqish orqali va uning buxgalteriya balansi hamda boshqa hisobot hujjatlarini uning xo'jalik faoliyatiga solishtirish orqali amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi.
--	--	--	--	----------------------	---

Yuqoridagi fikrlardagi qarama-qarshiliklar har bir moliyaviy nazorat shakllariga olimlar tomonidan berilgan tavsiflarni ham o'rganishni taqozo qilmoqda. Chunki, ular tomonidan moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra, shakllarga ajratilishi ularning o'tkaziladigan vaqtidagi nazorat qilinishi lozim bo'lgan nazorat obyektlari va subyektlarining holatiga hamda ular tomonidan nazorat organiga taqdim qilinadigan hujjatlarning shakllanishiga, qolaversa, moliyaviy nazorat amalga oshirilishi jarayonida e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlarning nazorat maqsadini o'zida aks ettirish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lishi lozim. Shu ma'noda, olimlar tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarni har jihatdan taqqoslash uchun, ular tomonidan har bir nazorat shakliga berilgan ta'riflarni taqqoslashimiz lozim. Bu vazifani ularning fikrlarini jadvalga solish orqali yanada yaqqolroq ko'rishimiz mumkin bo'ladi (4.1-jadval).

4.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har uchala kitob mualliflarining keltirgan fikrlari bir-biriga nisbatan qaysidir jihatdan yaqin va shu bilan birga qaysidir jihatdan bir-biriga zid hamdir. Jumladan, dastlabki nazorat bo'yicha keltirilgan fikrlarning har birida moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan oldin ushbu amallarni bajarishga asos bo'luvchi hujjatlarni qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga mosligini nazorat qilishga alohida urg'u berilmoqda. Bu holatdan yana shuni ham payqash mumkinki, bu nazoratda ko'proq moliyaviy majburiyatlar shakllanishiga asos bo'luvchi faoliyatning huquqiy yechimlari xususida gap bormoqda. Xususan, A.V.Vahobov va T.S.Malikov bu nazorat shakliga makro darajada yondashadigan bo'lsak, bunga misol sifatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi byudjetlarni tuzish va tasdiqlash jarayonini keltirishimiz mumkinligini o'z asarlarida yozishadi. Bundan tashqari, ular bu shaklga mikro

darajada yondashib, bu nazoratni moliyaviy rejalar va smetalarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarida ko'rishimiz joizligini ta'kidlashadi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, bu nazorat shakli pul mablag'larini olish yoki sarflash jarayonigacha bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Joriy nazorat haqidagi ta'riflarga nazar tashlaydigan bo'lsak, birmuncha nomuvofiqlikni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Chunki, biz fikrlarini ajratib olgan olimlarning bu nazorat shakliga munosabati turlichadir. Jumladan, o'zbek olimlari A.V.Vahobov va T.S.Malikovlar o'z kitoblarida bu nazorat shaklini ogohlantiruvchi nazorat shakli deb ataydi va u, asosan, mablag'larni olish va ularni sarflash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi deb hisoblashadi. Rossiyalik olimlar A.P.Zudilin va F.N.Axmedovlar esa, joriy nazorat shaklini umuman tan olishmaydi va uni moliyaviy nazorat shakli sifatida keltirishmaydi. Bu masalaga boshqa bir rossiyalik olim N.V.Milyakov nisbatan boshqacharoq yondashadi va uning fikricha, moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra joriy shakli mavjud va u pul mablag'larini olish yoki sarflash jarayonidagi moliyaviy xatoliklarni to'xtatish vazifasini bajaruvchi tezkor nazorat turi va u kunlik amalga oshiriladi deb hisoblaydi.

Yakuniy nazorat bo'yicha esa, jadval ma'lumotlari hamohang tusga ega va olimlarning har biri bunda nazorat obyekti batafsil nazoratdan o'tishi va bunda asosiy e'tibor uning moliyaviy va xo'jalik faoliyati bevosita nazorat obyektiga chiqib amalga oshirilishi ko'rsatib o'tiladi. Bu jarayonda ushbu nazorat shaklini amalga oshirish uchun maxsus nazorat organi tashkil qilinishi hamda u barcha faoliyat yo'nalishlarini buxgalteriya hujjatlari va boshqa hisobot hujjatlarini hamda ular asosida xo'jalik faoliyatini qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga to'g'ri kelishini, bundan tashqari, yakuniy nazoratdan oldingi nazorat shakllarida nazorat qilish imkoniyati bo'lmagan jihatlarni va faoliyat turlarini ham nazoratdan o'tkazishini alohida ta'kidlashgan. Bu jihatdan kelib chiqqan noaniqlik bugungi kundagi mamlakatimizda Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy nazorat shakllariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Chunki, bugungi kunda bir qator o'zbek olimlari byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini va maqsadlilikini nazorat qilish maqsadida tashkil qilingan maxsus vakolatli moliya organi bo'lmish Moliya vazirligi G'aznachiligi faoliyatida amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratni aynan biz yuqorida aytib o'tgan moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra, shakllariga asosan, tasniflashni va o'rganishni taklif etishmoqda. Jumladan, o'zbek olimasi G.A.Qosimova o'zining "Davlat byudjeti ijrosining G'aznachilik tizimi" hamda "G'aznachilik faoliyatini tashkil qilish" nomli o'quv qo'llanmalarida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi o'z faoliyati jarayonida dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirishini alohida ko'rsatib o'tadi. Bundan tashqari, boshqa bir o'zbek iqtisodchilari A.K.Ibragimov va B.B.Sugirbaevlar o'zlarining "Byudjet nazorati

va auditi” nomli o‘quv qo‘llanmalarida ham mamlakatimizda byudjet xarajatlari ijrosini ta’minlashda Moliya vazirligi G‘aznachiligi moliyaviy nazoratning dastlabki va joriy shakllarini amalga oshirishi keltirib o‘tiladi. Lekin, bu qo‘llanmalarda G‘aznachilikning dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida amalga oshirishi lozim bo‘lgan barcha faoliyati to‘liq yoritilmagan.

Bu masalaga xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu borada Rossiya amaliyotida ham o‘xshash fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, I.G.Akperov, I.A.Konoplyova va S.P.Golovochlar o‘zlarining “Kaznacheyskaya sistema ispolneniya byudjeti v Rossiyskoy federatsii” nomli o‘quv qo‘llanmalarida Rossiya federatsiyasi G‘aznachiligi moliyaviy nazoratning dastlabki, joriy va yakuniy shakllarini amalga oshirishi ko‘rsatib berilmoqda. Bu esa, har ikki mamlakatda bu masalaga turlicha yondashuvni mavjudligini isbotlab turibdi. Bu masalaga atroflicha yondashadigan bo‘lsak, G‘aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratni unga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga bevosita bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan ham, mamlakatimiz g‘aznachilik tizimida moliyaviy nazoratni dastlabki va joriy shaklidan foydalanilsa, Rossiya federatsiyasida bunga qo‘shimcha yakuniy shaklidan ham foydalanishga harakat qilinadi. Bu jarayonda asosiy e’tiborni har ikkala mamlakat G‘aznachiligi bu moliyaviy nazorat shakllarini qay tarzda amalga oshirishiga qaratishimiz lozim. Xususan, mamlakatimizda G‘aznachilik dastlabki nazoratni o‘zining yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olish jarayonida amalga oshiradi va bunda asosiy e’tiborni narxlarni monitoringiga ham qaratadi. Joriy nazoratni esa, byudjet tashkilotlari tomonidan mablag‘larni olish jarayonida moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish yo‘li bilan amalga oshiradi (4.2-jadval).


Rossiya Federatsiyasida ham ishlar qariyb shunday tashkil qilingan, lekin, ularda qabul qilingan majburiyatlarni o‘zaro solishtirishni hamda bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nazoratni yakuniy nazorat deb e’tirof etishmoqda. Umuman olganda, moliyaviy nazoratni o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra shakllarini tasniflanishi va ulardan foydalanish holati har doim quyidagi xususiyatlarga asoslanganligi uchun ham har xil bo‘ladi:

**Byudjet xarajatlari ijrosi jarayonida G‘aznachilik organlariga yuklatilgan moliyaviy nazorat shakllarining tavsifi<sup>19</sup>.**

<b>№</b>	<b>Olimlar F.I.Sh.</b>	<b>Kitob nomi</b>	<b>Dastlabki nazorat</b>	<b>Joriy nazorat</b>	<b>Yakuniy nazorat</b>
1	G.A.Qosimova	Davlat byudjeti ijrosining G‘aznachilik tizimi, G‘aznachilik faoliyatini tashkil qilish	Tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarini tovar(ish,xizmat)lari yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilishda ishtirok etish hamda ular o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda narxlar monitoringini amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.	Moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o‘z vaqtida va adresli moliyalashtirish bilan byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchilari tomonidan suiste‘mol qilinishi va noto‘g‘ri ishlatilishini oldini olish orqali amalga oshiriladi.	-
2	A.K.Ibragimov B.B.Sugirbaev	Byudjet nazorati va auditi	Davlat byudjeti mablag‘lari va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan byudjet mablag‘lari oluvchilari yuridik majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.	Byudjetdan mablag‘ oluvchilar moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritish orqali va ularning nomidan mol yetkazib beruvchilar tovar (ish,xizmat)lar uchun ularning hisob raqamiga	-

<sup>19</sup> Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan

				bevosita pul o'tkazish orqali yoki boshqa ko'zda tutilgan maqsadlar uchun to'lovni amalga oshirish orqali ta'minlanadi.	
3	<b>I.G.Akperov, I.A.Konoplyova, S.P.Golovoch</b>	Rossiya Federatsiyas i byudjeti ijrosi g'aznachilik tizimi	Byudjet tashkilotlarining majburiyatlarni qabul qilish jarayonini hisobini yuritish orqali amalga oshiriladi.	Xarajatlarni moliyalashtirish bosqichida amalga oshiriladi va byudjet tashkiloti qabul qilgan majburiyatini asoslovchi hujjatlar orqali amalga oshiriladi.	Qabul qilingan majburiyatni real qiymatini uni asoslovchi hujjat bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi




**4.1-rasm. Moliyaviy nazoratni o'tkazilish vaqtiga ko'ra shakllarini tasniflanishi**

Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, bugungi mamlakatimizda byudjet mablag'laridan foydalanishda G'aznachilik orqali ta'minlanayotgan moliyaviy nazorat shakllarining nazariyasi to'liq shakllantirilmagan. Bunga yaqqol misol sifatida yuqoridagi turli qarashlarni keltirishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda G'aznachilikning kelgusi faoliyatida tug'ilishi mumkin bo'lgan holatlarni yechimiga hozirdan nazariy asos qo'yishimiz zarurligini anglatadi. Fikrimizcha, bunda birinchi qadam mamlakatimiz Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy nazoratni mustahkam nazariy asosini yaratish lozim.

## 2. O'zbekistonda g'aznachilikni joriy etilishi

G'aznachilik tizimi – byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi va keyin taqdim qilingan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun g'aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig'iga asosan, vakolatni o'ziga oladi va byudjet mablag'larini maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida to'lovni amalga oshiradi.



### 4.2-rasm. Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosiga o'tish maqsadi

#### G'aznachilik tizimi bilan ijro etishning afzalliklari:

- qisqa fursatlarda davlatning moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash;
- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish;
- davlat byudjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismini kassali

ijrosining har kungi monitoringini o'tkazish;

➤ tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarini tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar, kontraktlar tuzish vaqtida) dastlabki nazoratni o'tkazish;

➤ moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan su'istemol qilishni va noto'g'ri ishlatishni oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;

➤ byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqamidan to'g'ridan-to'g'ri ta'minotchilarning hisob raqamiga o'tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlarni qisqartirish;

➤ G'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'larini o'tkazishni soddalashtirish natijasida g'aznachilik tizimidagi byudjet mablag'larini tezkor ishlatish.


#### ***G'aznachilik tatbiq etilishining ijobiy natijalari:***

✚ Quyi byudjet tashkilotlariga mablag'larni bosqichma-bosqich moliyalashtirish mexanizmi tugatildi.

✚ Byudjet mablag'larining banklardagi ko'plab hisob raqamlarda tarqalib yotishiga barham berildi.

✚ Mablag'lar g'aznachilik hisob raqamida jamlandi va buning natijasida to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan, ish haqini to'lash muddatlari qisqardi;

✚ Byudjet mablag'larining aylanish jarayonining samaradorligi oshdi.



**4.3-rasm. G'aznachilikka o'tish bosqichlari**



### ***G'aznachilikning vazifalari :***

- Davlat byudjetining kassa ijrosi;
- Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Davlat byudjeti mablag'larini boshqarish;
- Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun tuzadigan shartnomalarini, shuningdek, buyurtmachilarning Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzadigan shartnomalarini ro'yxatga olish;
- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- Davlat byudjeti ijrosining qanday borayotganligi to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish.
- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushgan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;
- Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek, tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;
- Byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarni, shuningdek, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmalarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq asossiz xarajatlarni oldini olish;
- Byudjet tashkilotlarini, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra vositachilik xizmatlaridan voz kechish;
- Xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;
- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini

yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

***G'aznachilik funksiyalari:***

– Byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun g'aznachilikning bank hisob raqamlardan mablag'lar o'tkazadi;

– Davlat byudjetida ular uchun mablag'lar nazarda tutilgan yuridik jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisob raqamidan yoki g'aznachilikning boshqa hisob raqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek, qonun hujjatlari nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yagona G'aznachilik hisob raqamida va hududiy g'aznachilik hisob raqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi har kunlik axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

– byudjetidan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlardan ko'chirmalar ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari taqdim etadi;

– manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

– Davlat byudjeti ijrosi jarayonida respublika byudjeti daromadlari tushumi va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzadi.

**Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. G'aznachilikning mohiyati va ahamiyati.
2. Moliyaviy nazoratning o'tkazilish vaqtiga ko'ra shakllarga ajratilishi tahlili.
3. Byudjet xarajatlari ijrosi jarayonida G'aznachilik organlariga yuklatilgan moliyaviy nazorat shakllarining tavsifi.
4. Moliyaviy nazoratni o'tkazilish vaqtiga ko'ra shakllarini tasniflanishi.
5. Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosiga o'tish maqsadi.
6. G'aznachilik tizimi bilan ijro etishning afzalliklari.
7. G'aznachilik tatbiq etilishini ijobiy natijalari.
8. G'aznachilikka o'tish bosqichlari.
9. G'aznachilikning vazifalari.
10. G'aznachilik funksiyalari.

## **5-MAVZU: SOLIQ VA SOLIQ SOLISH**

**1. Soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari.**

**2. Mamlakatimiz hududida soliqlarning paydo bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi.**

**3. Amir Temur va temuriylar davri soliqlari, soliqqa tortishning xususiyatlari.**

**1. Soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari**

Soliqlarning paydo bo'lish va rivojlanishi davlat moliyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonida soliq to'lovchilar mol-mulkinging bir qismini majburiy ko'rinishda davlat xazinasiga o'zlashtirilishi sifatida undirish uzoq davrga borib taqaladi.

Soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida hech qanday aniq ma'lumotlar tarixiy manbalarda uchramasa-da, lekin soliqlarning ilk ko'rinishi sifatida qurbonlik qilingan noz-ne'matlar e'tirof etiladi. Buning xususiyati shundan iboratki, u majburiy bo'lmay ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgandir. Qilingan qurbonliklar esa, kambag'allarga, nochorlarga, yetim-yesir va muhtojlarga ulashib berilgan.

Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'ringa chiqishiga, avvalambor, davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo'linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi, hamda ularning ma'lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo'lgan.

Soliqlar paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o'zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar, asosan, pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, ular qadimda bir qancha ko'rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi.

**2. Mamlakatimiz hududida soliqlarning paydo bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi**

Mamlakatimiz tarixida miloddan oldingi va miloddan keyingi davrlarda hukmronlik qilgan davlatlarda, davlat boshliqlarining oliy maqsadllari o'z xazinasini tinmay to'ldirib borish, o'zidan keyingi avlodlarga 2-3 barobar ortiq boyluk qoldirish bo'lgan.

Yig'ilgan xazinalarning eng ko'p qismi unumsiz tadbirlarga tartibsiz

sarflanib, hatto, isrof bo'lganligi ayon. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko'chmanchilik sharoitida, o'zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko'plab urug' va qabilalar, yer maydonlar, suv, o'tloqlarni egallash maqsadida shu yer maydonlarini qurshab kelganlar, ayrim hollarda esa, o'zlaridan kuchliroq, yirik qabilalarga yer solig'i, ya'ni o'lpon to'lab turganlar.

Movarounnahrda IX – X asrlarda yerlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekanligiga bog'liq edi. Yerlar uch toifaga bo'linadi:

Birinchi toifa yerlar: sultonga tegishli yerlar bo'lib (mulki sultoniy), bunday yerlar ustidan nazorat keyinchalik "Mulkiy devoniy" deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomonidan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko'p edi. Bunday yerlarga asosan, dehqonlar yeri kirgan.

Ikkinchi toifa yerlar: shaxsan hukmron sulolaning ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zodagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, sayidlar (Muhammad payg'ambar xonadoni avlodlari), ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo'lgan xususiy mulk yerlar.

Uchinchi toifa yerlari musulmon diniy muassasalariga, ya'ni masjid, madrasa, xonaqoh, maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf.

### 5.1-rasm. Yerlar toifalari

Xiroj uchala toifa yerlardan ham olingan bo'lib, ular "mulkiy xiroj" deb atalgan, lekin bunday oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo, sayidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to'liq yoki qisman ozod qilingan.

## 3. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar, soliqqa tortishning xususiyatlari

Amir Temur insoniyat tarixida yirik davlat arbobi va o'rta asrning yengilmas, betakror lashkarboshisi sifatida Markaziy Osiyo hududida yirik saltanat barpo qilib, o'z saltanati tarkibiga hozirgi 27 ta davlatni birlashtirdi. U hamisha o'z davlat tizimini takomillashtirib borishni o'ylar, mo'g'ullardan farqli o'laroq, boshqa o'lkalarni zabt etishnigina emas, balki aksincha, u yerlarni idora qilish to'g'risida ham qayg'urar edi.

Sohibqiron, soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyat bo'lmish "Temur tuzuklari"da ifodalangan: "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni

xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi”.

Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan katta xizmatlaridan biri davlat boshqaruvi tizimining mumtoz namunalarini qayta tiklash, ya’ni, ularni zamon talablari darajasida, yangicha usullarda joriy qilishidir. Uning strategiyasida insonparvarlikka asoslangan mukammal jamiyat qurish g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Ungacha xazinani idora qilish faqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo‘shib olib boradi. Xazina daromadlari solikli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Xazina xarajatlari obodonchilik, ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta’minot xarajatlarining hissasi ortib bordi. Bularning hammasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishi, uning xalqaro mavqeyini oshirishda faol ta’sir etdi.

Temuriylar davridagi soliqlarni o‘rganishda ayrim faktlarni keltirib o‘tish o‘rinli. Masalan, temuriylardan Husayn Boyqaro mamlakatdagi isyonlar tufayli xarajatlar ko‘payganini hisobga olib, Hirot hokimi Muboriziddin Valibekka nishon yuborib, yangi xarajatlar uchun Hirot va uning tevarak atrofidagi tumanlardan 100 ming so‘mdan dinor to‘plab jo‘natishni buyurdi. Hirot hokimi tumanlardan yarmini, qolganini esa aholidan sarmushar, ya’ni jon solig‘i sifatida undirishga qaror qildi. Bundan mehnatkash xalqqa judayam qiyin bo‘lgan. Shunday bir sharoitda Alisher Navoiy Hirot aholisi zimmasiga 50 ming dinorni o‘z jamg‘armasi hisobidan to‘ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida bir qator tartibli soliq tizimi amal qilgan.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. Soliqlarning paydo bo‘lishi, ilk ko‘rinishlarini aytib bering.
2. Soliqlarning rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
3. Yerlar toifalarini izohlang.
4. Mamlakatimiz hududida soliqlarning paydo bo‘lishini izohlang.
5. Mamlakatimizda soliqlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning rivojlanish omillarini tushuntirib bering.
6. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar, soliqqa tortishning xususiyatlarini aytib bering.

## **6-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ TIZIMI**

**1. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi, siyosati va uning mohiyati.**

**2. O‘zbekiston Respublikasida mavjud soliqlarning mohiyati (bevosita va bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari, mol-mulk to‘lovi).**

**1. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi, siyosati va uning mohiyati**

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko‘p bo‘lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan ba'zi vazifalar yo‘qola borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi. Shu boisdan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo‘ladi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo‘jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu yerda davlat kuchli ijtimoiy – siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo‘rlar, talabalar, ko‘p bolali onalar va boshqalarni ko‘proq mablag‘ bilan ta'minlash zarurligini belgilagan holda cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularning xarajatlarini davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga mablag‘lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o‘rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishi muhim hisoblanadi. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo‘lgan soliqlarni ham obyektiv ravishda zarur qilib qo‘yadi.

Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi<sup>20</sup>.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi.

Soliq – yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy tartibda undiriladigan va byudjetga yo‘naltiriladigan to‘lov.

---

<sup>20</sup> Vahobov A.V., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. /Darslik. – T.: “Sharq”, 2009. – B. 400.

soliq solish ob'ekti;

soliq solinadigan baza;

soliq stavkasi;

soliq imtiyozi

xisoblab chiqarish tartibi;

soliq davri;

soliq xisobotini taqdim etish tartibi;

to'lash tartibi.

### 6.1-rasm. Soliq elementlari

Shuni ta'kidlash joizki, prof. O. Olimjonovning fikriga ko'ra, soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi: «Soliqlar – davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir»<sup>21</sup>.

Soliq solish obyekti – bu soliqqa tortishga asos bo'luvchi daromad, mulk yoki resurs va ma'lum harakat natijasi bo'lib hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza – bu soliq solish obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan ulushi.


Soliq stavkasi – bu soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki aniq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Hisoblab chiqarish tartibi – bu soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Soliq davri – bu soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq tizimi mamlakatimizda amal qiladigan barcha soliq munosabatlarini qamrab olgan holda amal qiluvchi tizimdir. Soliq tizimining soliqqa tortish amaliyotining huquqiy asoslari bir qancha prinsiplarga asoslanadi. Jumladan, ularga quyidagilar kiradi:

<sup>21</sup> Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati//Hayot va iqtisod. – T., 1992. – B. 27.



## 6.2-rasm. Soliq tamoyillari

Davlat tomonidan belgilangan barcha soliqlar mamlakatdagi barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy tartibda undiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq solish amaliyoti har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak.

Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilmaydi.

Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir.

Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi lozim. Soliq qonunchiligi qabul qilingan shaklda barcha uchun ochiq-oydin tarzda yetkazilishi va tushuntirilishi davlat tomondan ta'minlanadi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Shu bilan birga, soliqqa tortishning bir nechta tamoyillari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

Yetarlilik tamoyili. Davlat tomonidan belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlat byudjeti daromadlarini to'ldirishi va byudjet xarajatlarini ta'minlashda sezilarli yordam berishi lozim.

Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish. Soliqlar byudjet daromadlarini to'ldirish bilan birga, soliq to'lovchilar zimmasiga katta



moliyaviy yuk (soliq yuki) bo‘lib tushmasligi lozim. Iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan real sektor subyektlarini soliqlardan imtiyozlar berish orqali rag‘batlantirish joiz.

Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim.

Oddiylik va xolislik. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo‘lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek, soliqlarning eng muhim turlari bo‘yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko‘zda tutadi.

Boshqarishga qulaylik. Soliqlarni undirishda uning stavkalari, hisoblanish usullari va to‘lash muddatlari soliq tizimini nazorat qilishga qulay bo‘lishi lozim.

Soliqlarni yig‘ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish. Mazkur tamoyil davlat va soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni yig‘ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko‘zda tutadi.

Soliq stavkalarini qiyoslash. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya‘ni mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda, boshqa mamlakatlar bilan teng bo‘lgan xo‘jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim.

Soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni joriy etish;
- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta‘minlovchi mexanizm shakllantirish va soliqqa oid me‘yoriy hujjatlarni takomillashtirib boorish.

## **2. O‘zbekiston Respublikasida mavjud soliqlarning mohiyati (bevosita va bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari, mol-mulk to‘lovi)**

### **Bevosita soliqlar:**

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.

Soliq solish obyekti yuridik shaxslarning oladigan foydalari bo‘lib hisobalanadi.

Foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilar

bo'lmaydi:

– notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi;

– soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning daromadlariga quyidagilar kiritiladi:

– tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

– boshqa daromadlar.

2. Yagona soliq to'lovi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek, mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlar mustasno;

2) xodimlarning sonidan qat'iy nazar:

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yakka tartibdagi tadbirkor.

Soliq solish obyekti. Yalpi tushum soliq solish obyektidir.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Yuqoridagi daromadlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilar bo'lib hisolanadilar.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan, biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.



**6.3-rasm. Jismoniy shaxslarning daromadlari**

4. Qat'iy belgilangan soliq tushumi.

Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliq to'lovini to'laydilar.

Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar, soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

Soliq solish obyekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq — suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig'i — aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Soliq solish obykti va soliq solinadigan baza. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obykti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga, qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun esa sof qo'shimcha foyda summasiga ham kamaytiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan soliq solinadigan bazani aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani hisoblangan foyda solig'i chegirib tashlangan holda yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlaydi.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlariga sog'liqni saqlash obyektlari, ta'lim obyektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.

### **Bilvosita soliqlar:**

Qo'shilgan qiymat solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mazmuni va xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ushbu soliq turi bilvosita soliqlar turkumiga kiradi, ya'ni soliq yuki iste'molchilarga tushadi. Shuning uchun ham, mazkur soliq yukinining o'sishi iste'mol xarajatlarini ortishiga va inflatsiyani kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, ushbu soliq iste'moldan olinadigan soliq hisoblanadi.

– ushbu soliq soliq tizimida faol tartibga soluvchi soliq hisoblanadi, ya'ni me'yoriy ajratmalar orqali mahalliy byudjetlarni daromad va xarajatlarini tartibga solishda faol foydalaniladi;

– qo'shilgan qiymat solig'i har bir aylanma bosqichida undiriladigan soliqdir;

– qo'shilgan qiymat solig'i tashqi iqtisoiy faoliyatni tartibga solishda muhim davlatning moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;  
2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish me'yorlari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) yuridik shaxs;

Soliq solish obykti soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import

bo‘lib hisoblanadi.

## 2. Aksiz solig‘i.

Aksizlanadigan tovarlar ishlab chiqaradigan, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, yuridik shaxslar aksiz solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi.

Aksiz solig‘i to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;

Oddiy shirkat aksiz to‘lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, aksiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin.

## **Resurs to‘lovlari, mol-mulk to‘lovi.**

### 1. Mol-mulk solig‘i.

Mazkur soliqni ham jismoniy, ham yuridik shaxslar to‘laydi.

Yuridik shaxslarnig mol-mulk solig‘i obyektini bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar;

2) nomoddiy aktivlar;

3) tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatda, agar qurilishning me‘yoriy muddati belgilanmagan bo‘lsa, qurilish boshlanganidan e‘tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo‘yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalar ishga tushirish muddatlari bo‘lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko‘rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish obyektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e‘tiboran bir yildan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

– asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha — asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalar va

nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

– me'yoriy (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtaacha yillik qiymati.

Soliq solish obyekti. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir.

Soliq solinadigan baza. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Yer solig'i. Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektidir:

1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyektini bo'lmaydi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

– yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

– foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda, ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektini bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

– yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan, bepul berish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyekti.

Quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish obyekti:

- kavlab olingan (shu jumladan, qo'shib chiqadigan) foydali qazilmalar;
- foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;
- soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

- ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib

olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;


- foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchining hisobot davridagi daromadining bir qismi qo'shimcha foyda solig'ini solish obyekti.

Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan baza qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi bilan realizatsiya qilish bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.





#### 6.4-rasm. Bonus turlari

Bonus – yer qa’ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to’lovdir.

Yer qa’ridan foydalanuvchi quyidagi turdagi bonuslarni to’laydi:

- davlat boshqaruvi organlari bonuslar to’lamaydi;
- imzoli bonus yer qa’ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, qidirish va kavlab olish bo’yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat’iy belgilangan to’lovdir;

- tijoratbop topilma bonusu tegishli litsenziyada ko’rsatilgan yer qa’ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan, dastlabki belgilangan, ajratib olinayotgan zaxiralarni ko’paytirishga olib keluvchi konlarni qo’shimcha qidirish o’tkazish chog’idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to’lanadigan to’lovdir;

- foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidiruv o’tkazishda tijoratbop topilma bonusu to’lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish obyektidir.

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to’lovchilar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo’jaliklari;

- aholi punktlarining suv ta’minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o’z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to’lovchidir.

Soliq solish obyektini – yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslaridir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontaal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida

chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgaltyeriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'Ichagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. Soliq deb nimaga aytiladi?
2. Soliq tizimi nima?
3. Soliqqa tortish tamoyillarini izohlab bering.
4. Soliq elementlarini sanab bering.
5. Soliq siyosatini tushuntirib bering.
6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini tushuntirib bering.
7. Yagona soliq to'lovini tushuntirib bering.
8. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tushuntirib bering.
9. Qat'iy belgilangan soliq tushumini tushuntirib bering.
10. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini tushuntirib bering.
11. Qo'shilgan qiymat solig'ini tushuntirib bering.
12. Aksiz solig'ini tushuntirib bering.
13. Mol-mulk solig'ini tushuntirib bering.
14. Yer solig'ini tushuntirib bering.
15. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqni tushuntirib bering.
16. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqni tushuntirib bering.
17. Jismoniy shaxslarning jami daromadiga qaysilar kiradi?

## **7-MAVZU. DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI**

- 1. Davlat byudjetini byudjetdan moliyalashtirish asoslari.**
- 2. Davlat byudjeti xarajatlari yo‘nalishlari.**
- 3. Davlat byudjetidan ijtimoiy nafaqalarni to‘lash.**

### **1. Davlat byudjetini byudjetdan moliyalashtirish asoslari**

Davlat moliyasining markazlashgan mablag‘lari hisobidan umumdavlat vazifalarini bajarishi uchun moliyaviy resurslarni taqsimlash tadbirlari davlat byudjeti xarajatlari deb ataladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasiga ko‘ra, Davlat byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag‘ ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- byudjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- joriy byudjet transfertlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida;
- asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;
- chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga;
- davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;
- davlat zaxiralarini vujudga keltirishga;
- kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;
- davlat maqsadli jamg‘armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;
- davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar shaklida;
- qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Davlat byudjeti xarajatlarining muhim jihati byudjet mablag‘ oluvchi sohalarni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Davlat byudjeti xarajatlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, boshqaruv va mudofaa funksiyalarini olib borilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining sezilarli qismi aholini ijtimoiy-iqtisodiy talablarini qondirishga yo‘naltirilmoqda. Bugungi kunda mazkur sohaning qariyb asosiy qismi davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar

hisobiga moliyalashtirish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, nodavlat tarmoqdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z daromadlarining bir qismini ishchi va xizmatchilarning ijtimoiy, madaniy tadbirlariga yo‘naltiradi.

Byudjet xarajatlarini hisobga olib boruvchi hisob raqamlarni turkumlash natijasida moliyalashtirish manbalari, faoliyat turlari, yo‘nalishlari, xarajatlarning paydo bo‘lish joylari, ularning elementlari va kalkulyatsiya moddalari hisob va nazoratning milliy va xalqaro standartlari talablariga moslashtiriladi<sup>22</sup>.

Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy prinsiplari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Minimum xarajat qilib, maksimum samara olish. Byudjet xarajatlarini tasarruf etishning eng yuqori samarasiga erishilgandagina taqdim qilinishi kerak. Mazkur samara, birinchidan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining turli vazifalarini hal etish, ikkinchidan esa, byudjet mablag‘larini oluvchilarning daromadlari oshishi hisobidan pul mablag‘larining byudjetga qayta taqsimlanishi bilan aks etishi mumkin. Shu boisdan, byudjet siyosatining oqilona olib borilishiga baho berilayotganda minimum xarajat qilib qanchalik maksimum samaraga erishilganligi e‘tiborga olinadi;

Byudjet mablag‘laridan foydalanishning maqsadliligi. Yuridik shaxslar byudjetning moliyaviy resurslari hisobidan amalga oshirilishi belgilangan maqsadlarini shakllantirgan holda va tasdiqlangan byudjet asosida byudjetdan mablag‘ olishi mumkin. Bu tamoyilga qat‘iy rioya qilish byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishga sharoit yaratib byeradi va byudjet siyosatining ham barqarorligini belgilab beradi;

Ko‘zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan mablag‘larning foydalanilganligini inobatga olgan holda, byudjet mablag‘larini taqdim etish. Byudjetdan moliyalashtirish belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish bilan chambarchas bog‘liqligi moliyaviy organlarga byudjet mablag‘lari oluvchi muassasalarning faoliyati ustidan samarali va ta'sirchan nazoratni olib borishiga sharoit yaratib beradi. Bu, o‘z navbatida, byudjet siyosatining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi;

Byudjet mablag‘larining qaytariluvchan emasligi. Byudjet mablag‘lari hisobidan ajratiladigan resurslar byudjetdan mablag‘lar oluvchilarga ularni byudjetga qaytarmaslik sharti bilan taqdim etiladi. Mazkur sharoitda byudjetdan mablag‘ oluvchilar byudjet ajratmalariga bo‘lgan real talabining byudjet siyosatida to‘liq ifodalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat byudjet kreditlari va byudjet ssudalari qaytariladigan asosda berilishi mumkin;

Byudjet mablag‘larining tekinligi. Byudjetdan mablag‘lar byudjet tashkilotlariga foiz ko‘rinishida ma‘lum miqdorda daromadlarni davlatga to‘lamasdan ajratiladi. Mazkur holda, byudjet tashkilotlarida boqimondalik

---

<sup>22</sup> Odilov E.T. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish: i.f.n. ... aftoreferati. – T.: BMA. 2012. – B. 25.

kayfiyatini shakllantirmaslik byudjet siyosatida o'ziga xos tarzda ifodasini topishi kerak.

Hozirgi kunda davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirish va ijrosini amalga oshirishda jahon amaliyotida keng qo'llanib kelinayotgan "Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish (NYB)" uslubiyati o'ziga xos ahamiyati bilan ajralib turibdi. Holbuki, davlat xarajatlarini boshqarishda byudjet siyosati asosiy o'rin tutar ekan, demak, byudjet jarayonida xarajatlarni aniqlash, tasdiqlash va ular ijrosi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, byudjet siyosati sohasida, ya'ni byudjet mablag'lari cheklangan bir vaziyatda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish jarayonini jadallashtirish kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish – bu byudjet xarajatlarini tayyorlash va ijro etish metodologiyasi bo'lib, belgilangan natijaga bevosita erishish maqsadida moliyaviy mablag'larni sarf etishni amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Ya'ni, natijaga erishish uchun pulni sarf etishdir.

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning asosiy afzalliklari<sup>23</sup>:

- davlat aholiga jamiyat uchun manfaatli bo'lgan ijtimoiy boyliklarni va xizmatlarni beradi (resurslarning cheklanganligi sharoitida);

- qaror topgan tuzilma va mablag'larning sarflanishi yo'nalishlarini baholash hamda "o'z-o'zidan" amalga oshiriladigan samarasiz xarajatlarni moliyalashtirish amaliyotidan voz kechish imkonini beradi;

- davlat mablag'larining sarflanishi yo'nalishlarini asoslash nafaqat joriy ehtiyojlardan, balki ilgari surilgan istiqbolli vazifalardan kelib chiqib amalga oshiriladi;

- vazirliklarning natijalar uchun javobgarligi kuchayadi, bu esa, nafaqat muayyan xizmatlarning ko'rsatilishini, balki sifat ko'rsatkichlariga erishishni taqozo etadi;

- davlat xarajatlari sohasidagi qarorlarning asoslanganligi darajasi oshadi va turli darajadagi moliyalashtirishning davlat xarajatlari samaradorligiga ta'sirini baholash imkonini beradigan axborot bazasi yaratiladi.

Jahon tajribasiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, ushbu usul dastlab 1962-yilda "Planning Programming Budgeting System" (PPBS, Byudjet tizimini dasturiy rejalashtirish) nomi bilan AQShda paydo bo'ldi. Keyinchalik Yangi Zelandiya, Avstraliya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Fransiya va Germaniya davlatlarida keng qo'llanila boshlandi. Rossiyada esa, ushbu tizim 2004-2006-yillarda mamlakatda o'tkazilgan byudjet jarayonini shakllantirish konsepsiyasiga binoan amalga oshirildi. Unga ko'ra, NYB mexanizmi o'z ichiga quyidagilarni oladi<sup>24</sup>.


Bunda xarajatlarni ma'lum darajada kamaytirish orqali moliyaviy

---

<sup>23</sup> Anoshkina V. "O'zbekistonda byudjet islohoti: hozirgi davrdagi maqsadlar va yo'nalishlar"//Soliq solish va buxgalteriya hisobi – T., 2008. №3 (21).

<sup>24</sup> Ваксова Е.Е., Габунья Ф.Г. "Сборный вопрос"// Журнал "Директор" – Москва, февраль 2008 г.

mablag'larni tejash emas, balki xarajatlar hajmi me'yori doirasida ularni sarf etishning eng optimal usulini qo'llash bilan mo'ljallangan natijaga erishish hamda byudjet samaradorligi demakdir. Davlat byudjeti jarayonida turli darajadagi organlarning qo'yilgan maqsad va natijalarni boshqarishdagi integratsiyasini shakllantirish asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda davlat tomonidan qo'yilgan aniq maqsadlarga erishishda umumiy natijaga yetib borish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini jadal olib borishda byudjet mablag'lari sarfi samaradorligiga erishish va NYBni qo'llash aholi sog'lig'ini asrash bilan bog'liq va bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarni takroriylikini ta'minlovchi – sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarining hozirgi o'sib borish tendensiyasi orqali yanada yaxshiroq natijalarga erishishni ta'minlashimiz demakdir.



**7.1-rasm. NYB mexanizmi**

NYBga asoslanib byudjet xarajatlarini rejalashtirish samarasini quyidagi omillar orqali namoyon qilish mumkin:

- davlat siyosati maqsadlari samaradorligini yanada oshiradi;
- o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirish (dastur bo'yicha xarajatlar);
- o'rta muddatli byudjet mablag'lariga limitlarning mavjudligi;
- dastur xarajatlari maqsadlari bilan o'zaro aloqadorlikda byudjet xarajatlarini rejalashtirish;
- dasturlararo raqobat;
- muassasaviy va dasturiy klassifikatsiya;
- ichki nazorat va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy mustaqilligi;
- xarajatlarning natijaviyligi monitoringi (mablag'larni maqsadli sarf etish, natijaga erishish).

## **2. Davlat byudjeti xarajatlari yo‘nalishlari**

Byudjet xarajatlari – davlat va mahalliy hokimiyat vazifa va faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo‘naltiriladigan pul mablag‘laridir. Byudjetdan mablag‘ oluvchilar – byudjet mablag‘larini oluvchilar yoki boshqaruvchilar bo‘lgan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi tashkilotlar byudjet xarajatlari orqali moliyalanadi. Shunday qilib, byudjet xarajatlari tranzit xarakterga ega. Byudjetda faqat byudjet xarajatlarining miqdori va moddalari bo‘yicha belgilanadi, bevosita xarajatlarni esa, byudjet oluvchilar amalga oshiradilar. Bundan tashqari, dotatsiyalar, subvensiyalar, subsidiyalar va byudjet ssudalari vositasida byudjet tizimi darajalari bo‘yicha byudjet mablag‘larini qayta taqsimlash byudjet orqali amalga oshadi.

Byudjet dotatsiyasi – o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda, quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari bo‘lib hisoblanadi.

Byudjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud Respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.

Byudjetlarning joriy xarajatlari – byudjetlar xarajatlarining bir qismi bo‘lib, davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, byudjet muassasalarining joriy faoliyatini ta'minlashga davlat tomonidan boshqa byudjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag‘ ajratish, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko‘rsatish uchun ajratiladi.

Kapital xarajatlari – byudjetlar xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi hisoblanadi. Unga tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalar uchun mo‘ljallangan xarajatlari kiradi. Bu investitsiya maqsadlari uchun byudjet kreditlari tarzida beriladigan mablag‘lar, kapital ta'mirlashni o‘tkazish xarajatlari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlardan iborat.

Ijtimoiy xarajatlarda ijtimoiy himoya masalalari uchun xarajatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda u aholining kam ta'minlangan va moddiy yordamga ehtiyoji bo‘lgan qatlamlarini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash jarayoni bo‘lib xizmat qiladi.


Bu ishda davlat tomonidan tartibga solishning xilma-xil usullari va tartib – qoidalaridan foydalaniladi. Xususan, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va turli nafaqalar. Ijtimoiy himoya tadbirlari tizimida, ya‘ni uning ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lgan narxlarning erkinlashtirilishi va inflatsiya

darajasining o'sishi munosabati bilan eng kam hamda o'rtacha daromadlar darajasini muntazam oshirib borish kerak bo'ladi. Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi muhim yo'nalishlaridan biri bu – respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish va asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari hamda nooziq ovqat tovarlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tashkil etadi.

Xarajatlar smetasi byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarning moliyaviy rejasi bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan, ma'lum bir turdagi byudjet tashkilotining moliyaviy rejasi – xarajatlar smetasi mazkur tashkilotdagi byudjet siyosatining qay darajada olib borilayotganligini o'zida aks ettiruvchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

Byudjet muassasasining xarajatlarini byudjet mablag'lari hisobidan to'lash mazkur tashkilot uchun daromad bo'lib hisoblanmaydi, mazkur hujjatda tashkilotning xarajatlari hajmi va ularning maqsadiga muvofiq tarzda mablag'larning ajratilishi bo'lganligi uchun smeta daromadlar qismiga ega emas.

Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) xarajatlarning quyidagi guruhlarini mablag' bilan ta'minlash usulida amalga oshiriladi:



**7.2-rasm. Smeta guruhlari**

Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan byudjet tashkilotlari birinchi navbatda, xarajatlarini moliyalashtiradi (to'laydi). Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag' o'tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish ta'qiqlanadi (ish haqi uchun olingan avanslardan tashqari).

Xarajatlarning III guruhi joriy moliya yili uchun investitsiya dasturida belgilangan tartib asosida byudjetdan investitsiyalarni moliyalashtirish shaklida amalga oshiriladi.

IV guruh – “Boshqa xarajatlar” bo'yicha mablag'lar belgilangan me'yorlar doirasida quyidagi keltirilgan tartibda qat'iy tarzda mablag'lar sarflanadi:



- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

Shu bilan birga, davlat byudjetining mablag‘lari quyidagi xarajatlar yo‘nalishi orqali amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari:

- maorif;
- oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini rivojlantirish fondi;
- sog‘liqni saqlash;
- madaniyat va sport;
- fan;
- ijtimoiy ta'minot;
- yosh bolali oilalarga ijtimoiy nafaqalar;
- aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjetdan qoplash;
- Byudjetdan tashqari Pensiya fondiga dotatsiya;
- fuqarolik jamiyati institutlari, IChB va NNTlarning rivojlanishiga grantlar va mablag‘lar.

2. Iqtisodiyotga xarajatlar:

- Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi suv xo‘jaligi tashkilotlari iste‘mol qiladigan elektr enyergiyaga to‘lovlar;
- Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi xarajatlari;
- kam unumli yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadli mablag‘lari.

3. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

4. Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg‘armasi xarajatlari.

5. Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlarini saqlash.

6. Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarini saqlash.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira fondi.

8. Boshqa xarajatlar.


Keltirib o‘tilgan byudjet xarajatlari yo‘nalishlari smeta xarajatlari guruhlari mablag‘larini sarf etish tartibi orqali amalga oshiriladi.

### **3. Davlat byudjetidan ijtimoiy nafaqalarni to‘lash**

Davlat byudjetidan moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarga ijtimoiy nafaqalar beriladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad aholining daromadlarini

optimallashtirish va turmush farovonligini ta'minlashdan iborat.

Mazkur ijtimoiy nafaqalar uch turga bo'linadi va ular fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tayinlanadi hamda har oyda to'lanadi:



### 7.3-rasm. Ijtimoiy nafaqalar turlari

Mazkur ijtimoiy nafaqalar oilaning jami oylik daromad miqdorini har bir oila a'zosiga to'g'ri keluvchi o'rtacha darajasi eng kam oylik ish haqining 1,5 baravaridan ortiq bo'lmagan hollarda tayinlanadi va to'lanadi. Mazkur o'rtacha har bir oila a'zosiga to'g'ri keluvchi oylik daromad miqdori ijtimoiy nafaqa uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oyda belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad oilaning har bir a'zosining bolali oilalarga nafaqalar, onalarga nafaqalar yoki moddiy yordam olish uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun hisoblab chiqilgan o'rtacha oylik daromadi summasini oilaning jami daromadini hisoblab chiqish uchun qabul qilingan oilaning a'zolari soniga bo'lgan holda aniqlanadi.

O'rtacha oylik har bir oila to'g'ri keluvchi jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda quyidagi oila a'zolari hisobga olinadi:

1. Bolali oilalarga nafaqalar, onalarga nafaqalar olish uchun oila tarkibiga:
  - otasi, onasi yoki bolalarning nikohdagi har ikki ota-onasi (farzandlikka oluvchilar);
  - ota-onasi bilan birgalikda yashaydigan va ularning qaramog'ida bo'lgan bolalar, shuningdek, ota-onasi bilan birgalikda yashaydigan va o'z oilasiga ega bo'lmagan 16 yoshdan katta yoshdagi bolalar (shu jumladan, farzandlikka olingan bolalar);
  - bolalarning ular bilan birgalikda yashaydigan bobolari va buvilari;
  - bolalarning ota-onalari bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi boshqa shaxslar kiritiladi.

Birgalikda yashaydigan oila a'zolari tarkibi fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organi tomonidan belgilanadi.

Agar bir uy xo'jaligida ikki va undan ortiq bolali oilalar yashagan taqdirda,

bolali oilalarga nafaqalar, onalarga nafaqalar va moddiy yordam olish uchun bir oila tarkibiga bolalarning ota-onalari, shuningdek, ularning bobolari va buvilari hamda bolalarning ota-onalari bilan birgalikda xo‘jalik yurituvchi boshqa shaxslar, agar ular nafaqa tayinlashda boshqa bolali oilada hisobga olinmagan bo‘lsa, qabul qilinadi.

2. Moddiy yordam olish uchun oila tarkibiga oilaning birgalikda yashaydigan barcha a‘zolari kiritiladi:

– birgalikda yashaydigan oila a‘zolari tarkibi fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organi tomonidan belgilanadi.

3. Bolali oilalarga nafaqalar, onalarga nafaqalar va moddiy yordam tayinlash uchun o‘rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oila tarkibiga quyidagilar kiritilmaydi:

– nafaqa yoki moddiy yordam olish uchun murojaat qilgan ota-onalarning aka-ukalari va opa-singillari, agar ularning o‘z oilalari bo‘lsa;

– ota-onalari ularga nisbatan ota-ona huquqlaridan mahrum etilgan bolalar;

– ularning ta‘minoti uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq pul mablag‘lari to‘lanadigan vasiylik (homiylilik)dagi bolalar va to‘liq davlat ta‘minotidagi bolalar;

– chaqiriq bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan yoxud harbiy ta‘lim muassasasida o‘qiyotgan ota-ona (farzandlikka oluvchi);

– sudning qaroriga ko‘ra, jazoni ijro etish joylarida ekanligi munosabati bilan oilada hozir bo‘lmagan ota-ona (farzandlikka oluvchi).

O‘rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadiga oila a‘zolari tomonidan olingan quyidagi daromadlar kiritiladi:

– mehnatga haq to‘lash shaklidagi daromadlar;

– mol-mulkdan olingan daromadlar;

– xususiy tadbirkorning daromadi;

– chet elda ishlaydigan yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan oila a‘zolaridan pul tushumlari summasi;

– boshqa daromadlar.

Mehnatga haq to‘lash shaklidagi daromadlar hisoblangan summa bo‘yicha hisobga olinadi (soliq haqidagi qonunlarda nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar chegirib tashlangunga qadar).

Xorijiy valyutada olinadigan oila daromadi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bolali oilalarga nafaqalar, onalarga nafaqalar va moddiy yordam olish uchun ariza berilgan kunda belgilangan kursi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasiga qayta hisoblab chiqiladi.

Oilaning o‘rtacha oylik jami daromadi fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan oila a‘zolarining daromadlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida aniqlanadi. Bolali oilalar va onalarga nafaqalar, ya‘ni moddiy yordam olish

uchun ariza beradigan shaxs belgilangan shakl bo'yicha, ariza berilgan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun oila a'zolarining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiradi.

Oilaning o'rtacha oylik jami daromadini hisoblab chiqish ariza beruvchi tomonidan nafaqa yoki moddiy yordam tayinlash to'g'risidagi ariza bilan bir vaqtda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida, bolali oilalar va onalarga nafaqalar, ya'ni moddiy yordam to'laydigan fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organi tomonidan, tegishli fuqarolar yig'ini hududiga birlashtirilgan Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi xodimi ishtirokida amalga oshiriladi.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. Davlat byudjeti xarajatlarining muhim jihati nimadan iborat?
2. Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy prinsiplari nimalardan iborat?
3. Byudjet mablag'larining qaytariluvchan emasligi tamoyili nimani anglatadi?
4. Byudjet mablag'larining tekinligi tamoyili nimani anglatadi?
5. Byudjetdan moliyalashtirishning qanday usullari mavjud?
6. Byudjetning joriy xarajatlarini tushuntirib bering.
7. Byudjetning kapital xarajatlarini tushuntirib bering.
8. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni tushuntirib bering.
9. Byudjet dotatsiyasi, subvensiyasi va ssudasi nima?
10. Smetaning xarajatlar guruhi nimalarni o'zida aks ettiradi?
11. Xarajatlar guruhi mazmunlarini tushuntirib bering va ular qanday amalga oshiriladi?
12. Davlat byudjetining xarajatlar yo'nalishlari nimalardan iborat?
13. Ijtimoiy soha xarajatlarini tushuntirib bering.
14. Ijtimoiy nafaqalarni tushuntirib bering
15. Ijtimoiy nafaqalarning qanday turlari mavjud?

## **8-MAVZU. MAHALLIY “MINTAQAVIY” MOLIYA**

### **1. Mahalliy moliyaning nazariy asoslari.**

### **2. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini rejalashtirish va uning vazifalari.**

#### **1. Mahalliy moliyaning nazariy asoslari**

Fuqarolarning muayyan talablarini, xususan, ijtimoiy-moddiy ragʻbatlantirishga boʻlgan talablarini qondirish mahalliy moliyaning amal qilish xususiyatiga xos boʻlib, bu mahalliy moliyaning hudud moliya resurslarini taqsimlashdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Keyingi paytlarda hokimiyat quyi boʻgʻinlari vakolatlarining asta-sekin kengayib, bu eng avvalo, moliya sohasida, aholiga ijtimoiy xizmatlarini koʻrsatishda mas'uliyatning nomarkazlashib borishida kuzatilmoqda. Mazkur tendensiya davlat byudjeti mablagʻlarini sarflash samarasini oshirish, aholi manfaatlarini toʻlaroq hisobga olish, jamoat demokratik institutlarini mustahkamlash masalalari bilan izohlanadi.

Mahalliy moliya hududiy ishlab chiqarishni ta'minlash va mahalliy hududlarda yashovchi aholining talablarini qondirishning asosi boʻlib xizmat qiladi. Uning oʻziga xos xususiyati mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan masalalarni hal qilishga qaratilganligidadir.

Oʻzbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida»gi 913-XII-sonli qonuniga muvofiq, mahalliy moliyani tartibga solish borasida Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

hokimning taqdimiga binoan, mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning istiqbolga moʻljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

amaldagi qonunlarga muvofiq, mahalliy soliqlar, yigʻimlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yigʻimlar va toʻlovlar boʻyicha imtiyozlar berish.

Mahalliy moliyalar – davlat moliya tizimining muhim qismi boʻlib, uning tarkibiga viloyatlar, shaharlar, tumanlar, posyolkalar va boshqa aholi punktlari moliyalari kiradi.

Mahalliy moliyani tuzilishiga koʻra, mahalliy hokimiyat organlari mulki boʻlgan xoʻjalik yurituvchi subyektlar (tashkilotlar, muassasalar) moliyasi va byudjetdan tashqari fondlar, mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi muassasalarning moliyasi kiradi.

Prof. L.M.Pavlov va A.M.Babichlar mahalliy moliyaga quyidagicha ta'rif beradi – mahalliy moliya mahalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish,

uning hududida istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasini oshirish masalasini yechish uchun moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlari majmuidir<sup>25</sup>.

Mahalliy moliyaga to‘laroq ta‘rif V.V.Sokolova tomonidan berilgan: «Mahalliy moliya birinchidan, mahalliy hokimiyat organlari va ikkinchidan, mazkur mahalliy tuzilma hududida istiqomat qiluvchi aholi, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidir»<sup>26</sup>.

Rossiya Federatsiyasining byudjet tizimiga oid adabiyotlarda mahalliy moliyaning turli jihatlari ochib berilgan bo‘lib, xususan, unga quyidagicha ta‘rif beriladi: «Mahalliy moliya mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun shakllantiriladigan va foydalaniladigan pul mablag‘lari majmuidir»<sup>27</sup>.

Keng ma'noda mahalliy moliya hududning moliyaviy salohiyatini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish borasidagi barcha pul munosabatlarini – mahalliy tuzilma doirasidagi qayta ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi barcha iqtisodiy subyektlarning (turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, moliya-kredit institutlari, aholi) moliyaviy resurslarini amalga oshiradi.

Tor ma'noda mahalliy moliya mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pul jamg‘armalarining harakati jarayonida paydo bo‘ladigan pul munosabatlari kabi tushunilishi mumkin.

Shunday qilib, o‘z iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, mahalliy moliya mahalliy hokimiyat organlarida daromadlarni va pul mablag‘lari jamg‘armasini shakllantirish va ularni mahalliy tuzilmalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga sarflash munosabati bilan paydo bo‘ladigan pul munosabatlari tizimidan iboratdir.

Mahalliy faoliyatni samarali amalga oshirish mahalliy hokimiyat organlari tasarrufida moliyaviy resurslarning mavjud bo‘lishini taqozo qiladiki, ular mahalliy hokimiyat organlari tasarrufida bo‘lgan va mahalliy tuzilmalar aholisining ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan moliya munosabatlarining moddiy asosini tashkil etadi.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarning faoliyat ko‘rsatishi

---


<sup>25</sup> Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник. – Москва: “Финансы”, ЮНИТИ, 1999.

<sup>26</sup> Соколова В.В. “Финансы”, ЮНИТИ, 1999.

<sup>27</sup> Бюджетная система Российской Федерации. Учебник/Под ред. Г. Б. Поляка – М.: ЮНИТИ, 2001. – С. 514.

uchun shart-sharoit yaratish maqsadini koʻzlaydi.

Mahalliy soliqlar va yigʻimlar belgilanish usuliga koʻra 2 guruhga boʻlinadi:



**8.1-rasm. Mahalliy soliqlar va yigʻimlar**

Mahalliy soliqlar va yigʻimlarning boshqa turlari esa, mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan joriy etiladi.

Mahalliy soliqlarni stavkalarini va ular boʻyicha beriladigan imtiyozlarni belgilash qonun hujjatlariga muvofiq, mahalliy hokimiyatlar ixtiyoriga berilgan. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda mahalliy hokimiyatlarga mahalliy soliqlar va yigʻimlar boʻyicha bunday huquqni berilishi hudud iqtisodiyotida muhim rol oʻynaydi. Birinchidan, bu mahalliy byudjetlarga daromad manbai yaratilishini bersa; ikkinchidan, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir etadi.

Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishi va xarajatlarining asosiy yoʻnalishlarini belgilash jarayonidagi roli, ular faoliyatini moliyaviy mustaqilligini taʼminlovchi asosiy yoʻnalish hisoblanadi.

Qoʻshimcha mahalliy soliqlarning joriy qilish va uning yigʻimini taʼminlash boʻyicha mahalliy byudjetlar oldida turgan eng muhim muammosi boʻlib, bu mahalliy byudjetlarni yetarli daromad manbaiga ega emasligi, byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi yuqori byudjetlarga bogʻliqligi hamda barqaror soliq turlarini kamligi hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini yanada mustahkamlash, mahalliy moliya tizimini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi, bu yoʻnalishda mulkni, yerni, tabiiy resurslarni soliqqa tortish muhim ahamiyatga ega boʻladi. Mulk soligʻidan tushumlarning real oshirish yoʻllaridan biri asosiy fondlarning bozor narxida baholashni oʻtkazishdan olinishi mumkin, shuningdek, ushbu soliqdan yengilliklarni qisqartirish ham ushbu maqsadga xizmat qiladi.

## **2. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini rejalashtirish va uning vazifalari**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-moddasiga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi yuridik shaxslarga mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yagona yer solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish huquqlari berilgan.

Mahalliy davlat hokimiyatlari mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va ba'zi soliq turlari bo‘yicha imtiyozlar berish tadbirlarini amalga oshiradi. Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni amalga oshirish va hududning infratuzilmasini rivojlantirish borasida soliqlar bo‘yicha imtiyozlar quyidagi hollarda beriladi, agar:

- tegishli hududning byudjeti yuqori turuvchi byudjetdan dotatsiya olmaganda va soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish tegishli byudjetning dotatsiya olishiga sabab bo‘lmaganda;

- tegishli hududning mahalliy byudjeti xarajatlari moliyalashtirilishi to‘liq ta'minlanganda;

- muayyan soliq bo‘yicha imtiyozlar berish natijasida tegishli byudjetga tushum tushmasligi mumkin bo‘lgan daromadlar (yo‘qotishlar) summasi boshqa manbalar bo‘yicha qo‘shimcha tushumlar hisobiga qoplanganda;

- mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berilgan obyektlar ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan yer uchastkalari maydoni doirasida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilganda;

- soliq to‘lovchida byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud bo‘lmaganda.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar soliqning bitta turi bo‘yicha, shuningdek, bir nechta turi bo‘yicha bir yo‘la berilishi mumkin. Soliq bo‘yicha imtiyozlar dastlab 12 oygacha bo‘lgan muddatga beriladi. Bunda tegishli hududiy moliya organlarining, davlat soliq xizmati organlarining, iqtisodiyot va adliya organlarining xulosasiga ko‘ra, soliqlar bo‘yicha imtiyozlarning amal qilishi 12 oygacha bo‘lgan muddatga uzaytirilishi mumkin. Keyinchalik ushbu toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq bo‘yicha imtiyoz kamida besh yil o‘tgandan keyin berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning 18-moddasiga binoan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq,



Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo‘naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

– qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari va boshqa majburiy to‘lovlar;

– qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq, davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq, meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

– yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;

– yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

– qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi byudjeti tizimida asosiy o‘rinni egallaydi va mahalliy byudjetlar 14 ta mustaqil byudjetni mujassamlashtiradi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlar rejasini tuzish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet so‘rovini taqdim etgan vaqtdan boshlab amalga oshirila boshlanadi.

Mahalliy byudjetlar orqali Xalq ta‘limi, Sog‘liqni saqlash va madaniyat muassasalari moliyalashtirib boriladi. Mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Shu ma‘noda qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining yuz foizi mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Mahalliy byudjet — Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning 19-moddasiga binoan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjet xarajatlari quyidagilardan iborat:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida;

– joriy byudjet transfertlari shaklida;

– kapital xarajatlar shaklida;


– asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab

chiqarishga;

– davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

– qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Mahalliy byudjetlar bo‘g‘inlari tarkibiga quyidagilar kiradi:



**8.2-rasm. Mahalliy byudjetlar bo‘g‘inlari**

O‘zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning 23-moddasiga binoan, xarajatlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasiga binoan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari:

– tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni qabul qiladi, shuningdek, ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi;


– qonun hujjatlariga muvofiq, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar miqdorlarini belgilaydi, mahalliy soliqlar bo‘yicha imtiyozlar beradi;

– qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar loyihalarini tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari qabul qilishi uchun taqdim etadi hamda ularning ijrosi to‘g‘risida hisobotlar tuzadi;

– byudjetga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘laridan belgilangan maqsadda foydalanilishi ustidan nazoratni tashkil etadi;



### 8.3-rasm. Mahalliy byudjet xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning 24-moddasiga binoan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlariga quyidagi cheklovlar mavjud:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo‘lishi kerak. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni qabul qilish va ijro etishda:

– qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobiga jamg‘armalar tashkil etishga;

– mablag‘ jalb qilishni amalga oshirishga (yuqori byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno);

– byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘dan ortiqroq mablag‘ sarflashga;

– byudjet mablag‘lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

– yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari berishga yo‘l

qo'yilmaydi, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga ta'mirlash-tiklash ishlari uchun byudjet ssudalarini berish hollari bundan mustasno.

Mahalliy byudjetlarning vazifalaridan biri mahalliy byudjet loyihasini samarali tashkil etilishini ta'minlash.

Mazkur byudjet so'rovi asosida kelgusi moliya yili uchun xarajatlar smetasini shakllantirgan byudjetdan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlari tegishli moliya bo'limlariga mazkur loyihani joriy yilning birinchi iyunidan kechiktirmay topshiradilar. Moliya bo'limlari tuman, shaharlar byudjetlari yig'ma holatda alohida xarajatlar yo'nalishlari bo'yicha jamlagan holatda kelgusi moliya yiliga tegishli byudjetlar loyihalarini joriy yilning yigirma beshinchi iyunidan kechiktirmay viloyat, Toshkent shahar Moliya boshqarmalariga topshiradilar.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. Mahalliy moliyani tushuntirib bering.
2. Mahalliy moliyaning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. Mahalliy moliya qanday mahalliy organ tomonidan tartibga solinadi?
4. Mahalliy moliyaga qanday ta'riflar berilgan?
5. Mahalliy soliqlar va yig'imlarni belgilashning qanday usullari mavjud?
6. Mahalliy soliqlar yuzasidan beriladigan imtiyozlarni kim belgilaydi?
7. Mahalliy soliqlar yuzasidan beriladigan imtiyozlar qanday tartibda belgilanadi?
8. Mahalliy byudjetlarning xarajatlar yo'nalishlarini sanab bering.
9. Mahalliy byudjetlar hisobidan qanday tadbirlar moliyalashtiriladi?
10. Mahalliy byudjetlarni tuzish va loyihasini tayyorlash qanday tartibda amalga oshiriladi?

## **9-MAVZU. BYUDJETDAN TASHQARI FONDLARNING MOHIYATI**

- 1. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi.**
- 2. Byudjetdan tashqari yo'l jamg'armasi.**
- 3. Byudjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi.**
- 4. Byudjetdan tashqari ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi.**
- 5. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi.**
- 6. O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.**

### **1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi**

Hozirgi kunda mamlakatimizda byudjetdan tashqari maqsadli davlat jamg'armalari sifatida quyidagi jamg'armalar o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar:


- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi.
- Byudjetdan tashqari Yo'l jamg'armasi.
- Byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi.
- Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi.
- Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining maxsus hisob raqami.

Shu bilan birga, ikkita davlat jamg'armalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi.
- O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.

Makro darajada pensiya ta'minoti tizimining samaradorligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiqligini va inson omilini takror ishlab chiqarish jarayonida davlat tomonidan tartibga solinish darajasini aks ettiradi. Moliyaviy nuqtai nazardan pensiya tizimining samaradorligi, mablag'larni jalb qilish va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida ishlatish darajasini ifoda etadi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi pensiya ta'minotining ikki turiga izoh berish muhimdir:

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlanishi.



## 9.2-rasm. Davlat jamg'armalari

Jahon tajribasidan ma'lumki, rivojlangan mamlakatlar pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlar mazkur tizimni faqat davlat tomonidan moliyalashtirish yetarli samara bermaydi. Shuni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2004- yil 2-dekabrda «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida» gi qonunning qabul qilinishi davlatimizning pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish borasida keyingi qadamlaridan edi. Ushbu qonun fuqarolar tomonidan to'langan jamg'arib boriladigan majburiy va ixtiyoriy pensiya badallarini va ularga yillik hisoblangan foiz to'lovlari bilan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varag'ida jamlash, keyinchalik qonun hujjatlariga muvofiq, davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashni kafolatlaydi.

Davlat pensiya ta'minoti – byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga yetganida, nogironlik tufayli mehnat layoqatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda yo'qotgan ish haqlari (daromadlari)ni qoplash maqsadida qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan har oylik to'lovlar to'lanishining ta'minlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi sessiya majlisida O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi 938-XII-sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda, ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Qonunning 2-moddasiga asosan, davlat pensiyalarining turlari quyidagilar hisoblanadi:

Yoshga doir pensiya. Erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida


25 yil bo‘lgan taqdirda, ayollar – 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda davlat tomonidan qonunda belgilangan miqdorda pensiya bilan ta'minlanishi.

Nogironlik pensiyasi. Fuqarolar mehnatda mayiblanganda, kasb kasalligiga uchraganda yoki umumiy kasallik oqibatida tibbiy mehnat ekspert komissiyalari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilganda, davlat tomonidan qonunda belgilangan miqdorda pensiya bilan ta'minlanishi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi. Boquvchining vafot etganligi sababli, uning qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolarining davlat tomonidan qonunda belgilangan miqdorda pensiya bilan ta'minlanishi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarini qo‘llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag‘allikdan himoyalashda muhim o‘rin tutadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan pul mablag‘lari fondidan foydalanishga asoslanadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari ijtimoiy jamg‘armalarga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar hisobidan shakllanadi, ular:



### 9.3-rasm. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning daromad manbalari

O‘zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi (BTPJ) – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlaydi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli farmonini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-sonli qaroriga asosan tashkil topgan.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1. Jamg'armaning daromadlari bo'yicha:

– jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;

– har yili jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;

– davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq, mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

– badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi.

2. Pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha:

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi;

– jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensiyalar tayinlash



bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

– zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

– pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Respublika yo'l jamg'armasi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi respublika Yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 361-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar quyidagi to'lov turlari orqali amalga oshiriladi va ularning hisobidan jamg'arma daromadlari shakllanadi:

I. Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilish uchun yig'im:

1. O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno).

2. O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar:

– bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan;

– yuk avtotransport vositasi va avtobusning O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lishi, 3 sutkadan oshgan har bir kun uchun;

– yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali boshqa mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o'tganlik uchun.

3. O'zbekiston Respublikasi hududiga Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig'imlar, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun.

4. O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar.

5. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turlari bo'yicha quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari:

- 10 tonnagacha;
- 10 tonnadan 20 tonnagacha;
- 20 tonnadan ko‘p.

O‘rindiqlar soni quyidagicha bo‘lgan avtobuslar:

- 12 o‘rindiqqacha;
- 13 o‘rindiqdan 30 o‘rindiqqacha;
- 30 o‘rindiqdan ko‘p;
- tranzit o‘tayotgan yengil avtotransport vositalari;
- tranzit o‘tayotgan mototsikllar.

II. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida avtotransport vositalari ro‘yxatdan o‘tayotgan paytida sotib olish va (yoki) avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirgani uchun undiriladigan yig‘im:

- foydalanish muddati 3 yilgacha;
- foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha;
- foydalanish muddati 7 yildan ko‘proq.

III. “O‘zavtoyol” DAK korxonalarini va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan byudjetga tushadigan mablag‘larning umumiy sonidan ajratmalar.

Quyidagilar jamg‘armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari tushishi va sarflanishining har yillik va choraklik balanslarini shakllantirish;
- investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlarini hamda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlash bo‘yicha tender hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish;
- yo‘l xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlashning aniq ro‘yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;
- umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni saqlash bo‘yicha xarajatlar smetalarini ro‘yxatdan o‘tkazish;
- umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlashni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish, jamg‘arma mablag‘laridan foydalanishning qonuniyligi va maqsadli foydalanilishini nazorat qilish.

### **3. Byudjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi**

Byudjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi respublika ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini zamonaviy talablarni va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, tizimli asosda rivojlantirish va mustahkamlash, ularni eng ilg‘or o‘quv, tashxis va davolash asbob-uskunalarini, axborot-kompyuter texnikasi bilan jihozlash maqsadida, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining «Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha byudjetdan tashqari jamg'armani tashkil etish to'g'risida» 2010-yil 10- noyabrdagi PQ-1432-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasini Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil etish to'g'risida» 2011-yil 21-noyabrdagi PQ-1645-sonli qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan.

Jamg'armaning daromadlarni shakllantirish va undan foydalanish yuzasidan asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- jamg'armaga tushayotgan mablag'larni keyinchalik ulardan ta'lim muassasalarini — umumta'lim maktablarini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejarini jihozlash (to'liq jihozlash)da maqsadli foydalanish uchun jamlash;

- ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu jumladan, zarurat bo'lganda, o'quv binolarini o'quv ustaxonalari va laboratoriyalari bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini, boshqa infratuzilma obyektlarini barpo etish ishlarini moliyalashtirish;

- zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter texnikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qitishga ko'maklashuvchi boshqa elementlari, shuningdek, o'quv mebeli va anjomlari bilan tizimli jihozlash va to'liq jihozlashni moliyalashtirish;

- tasdiqlangan aniq manzilli dasturlarga muvofiq sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish;

- zamonaviy talablar va belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlash muassasalarini eng yangi laboratoriya, tashxis va davolash asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiyot apparatlari, maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlash hamda doimiy asosda tizimli qayta jihozlashni moliyalashtirish.

Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari quyidagilardir:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan jamg'armaga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ajratmalarni to'lashdan tushadigan mablag'lar;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining byudjetdan tashqari mablag'lari;

- xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning grantlari va imtiyozli kreditlari (qarzlari);

– sogʻliqni saqlashga xarajatlar hisobiga alohida maʼlum maqsadlarga ajratiladigan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari va markazlashtirilgan investitsiyalar;

– xayriya qiluvchilar – yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlarining mablagʻlari;

– jamgʻarmaning vaqtincha boʻsh mablagʻlarini joylashtirishdan olinadigan daromadlar va taʼqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Taʼkidlash lozimki, xoʻjalik yurituvchi subyektlar (toʻlovchilar) tomonidan jamgʻarmaga majburiy ajratmalar summasi har yili Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga koʻra, belgilanadigan toʻlov obyekti va stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Jamgʻarma mablagʻlari mahalliy byudjetlar mablagʻlari hisobiga taʼminlanadigan taʼlim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlash (toʻliq jihozlash)ga, shuningdek, tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlash (toʻliq jihozlash)ga xarajatlar boʻyicha sarflanadi. Jamgʻarmaning moliyaviy resurslari respublika darajasida respublika byudjeti mablagʻlari hisobiga taʼminlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlash (toʻliq jihozlash)ga xarajatlar boʻyicha foydalaniladi.

Jamgʻarma mablagʻlaridan ikki darajada foydalaniladi, yaʼni respublika va mahalliy miqyosda.

a) Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligida:


– Respublika byudjeti mablagʻlari hisobiga taʼminlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal taʼmirlash boʻyicha – tender (tanlov) savdolari asosida va kapital qurilish sohasidagi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining qurilish boʻyicha birlashgan direksiyasi tomonidan;

– Respublika byudjeti mablagʻlari hisobiga taʼminlanadigan tibbiyot muassasalarini jihozlash (toʻliq jihozlash) boʻyicha – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oʻtkazilgan tender (tanlov) savdolari asosida Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan roʻyxatdan oʻtkazilgan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi;

b) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Moliya vazirligida, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalarida:

– mahalliy byudjetlar mablagʻlari hisobiga taʼminlanadigan taʼlim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal taʼmirlash, shuningdek, tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal taʼmirlash boʻyicha – tender (tanlov) savdolari asosida va kapital qurilish sohasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi yagona buyurtmachi xizmatlari tomonidan roʻyxatdan oʻtkazilgan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi;

– mahalliy byudjetlar mablagʻlari hisobiga taʼminlanadigan taʼlim muassasalari va tibbiyot muassasalarini jihozlash (toʻliq jihozlash) boʻyicha — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Xalq taʼlimi boshqarmalari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi markazi hududiy boshqarmalari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Sogʻliqni saqlash boshqarmalari tomonidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oʻtkazilgan tender (tanlov) savdolari asosida roʻyxatdan oʻtkazilgan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi.



**9.4-ram. Taʼlim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlash jamgʻarmasi mablagʻlari**

#### **4. Byudjetdan tashqari Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori 173-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish haqi fondidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdordagi majburiy ajratmalari, ushbu xarajatlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi;

– tegishli byudjet mablag'larini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadigan miqdorlarda respublika va mahalliy byudjet mablag'laridan dotatsiyalar;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablar buzilganligi uchun joylardagi mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda solinadigan moliyaviy sanksiyalar, jarimalar va qo'shilgan penyalarning summasi;

– qo'shimcha va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznes sub'yektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalaridan foizlar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarida ishsizlik maqomi olgan va ish qidiruvchi sifatida ro'yxatda turgan shaxslarni kasbga tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini mablag' bilan ta'minlash;

– ishsizlik bo'yicha nafaqalar, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining taklifiga binoan, ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish, kompensatsiyalar to'lash va ro'yxatdan o'tgan ishsizlarga moddiy yordam berish;

– ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash;

– nogironlar va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlari (ishlab chiqarishlar) tashkil etish tadbirlarini mablag‘ bilan qisman ta‘minlash;

– respublika va hududiy mehnat bozori axborot tizimlarini yaratish va ularning dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish, shu jumladan, texnika vositalari sotib olish;

– ish bilan band bo‘lmagan aholiga yordam ko‘rsatish, ya‘ni ishga joylashtirishga ko‘maklashish va maslahat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash;

– aholini ish bilan ta‘minlashga doir muammolar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni mablag‘ bilan ta‘minlash;

– ishchi kuchi eksport qilish masalalari bo‘yicha xalqaro loyiha va shartnomalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining chet ellarga ishga yuborilgan fuqarolarini ishga joylashtirishni tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash.

Ish bilan ta‘minlash jamg‘armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– ishsizlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish;

– bandlikka ko‘maklashish markazlari ta‘minotini moliyalashtirish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish;

– tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo‘li bilan ish o‘rinlarini saqlab qolish va yangi ish o‘rinlari tashkil etish uchun kreditlar berish;

– fuqarolarni ishga joylashtirish, mehnat, aholini ish bilan ta‘minlash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, sotsiologik kuzatuvlar o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash.

## **5. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi**

Mazkur jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 31- oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-718-sonli qarori asosida tashkil etilgan.

Jamg‘arma sug‘oriladigan yerlarni meliorativ jihatdan yaxshilash loyihalarini hamda meliorativ obyektlarning zarur darajadagi texnik holatini ta‘minlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni, moliyalashtirish, shuningdek, meliorativ texnikani sotib olish uchun mablag‘larni jamlash va ulardan samarali foydalanish kabi tadbirlarni amalga oshiradi.

Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamgʻarmasini shakllantirishning asosiy manbalari etib quyidagilar belgilangan:

– qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan toʻlanadigan yagona yer soligʻi boʻyicha tushgan mablagʻlarga teng miqdorda davlat byudjetidan ajratmalar;

– maqsadli byudjet mablagʻlari;

– xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari;

– mahalliy va xorijiy grantlar;

– Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taʼqiqlanmagan boshqa mablagʻ manbalari va daromadlar.

Quyidagilar mazkur jamgʻarmaning asosiy vazifalari boʻlib hisoblanadi:

– byudjet va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan melioratsiya ishlarini oʻtkazish uchun moʻljallangan mablagʻlarni toʻla hajmda jamgʻarma hisob varagʻida jamlash;

– tasdiqlangan dasturlarga muvofiq, melioratsiya ishlarini, magistral (viloyatlararo), tumanlararo va xoʻjaliklararo kollektor-drenaj tarmoqlarini mukammal taʼmirlash va tiklash maqsadida joriy taʼmirlash ishlarini tashkil qilish hamda tizimli asosda aniq, maqsadli moliyalashtirish;

– yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hisobiga ularning unumdorligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yoʻli bilan qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga davlat madadini koʻrsatish;

– melioratsiya texnikasini, jumladan, lizing shartlari asosida sotib olish uchun qaytarib berish asosida mablagʻlar ajratish yoʻli bilan suv xoʻjaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– jamgʻarmaning ajratib berilgan moliyaviy mablagʻlaridan maqsadli, aniq va samarali foydalanilishi ustidan doimiy asosda qattiq nazoratni amalga oshirib borish.

## **6. Oʻzbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi**

Oʻzbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisida»gi 2006-yil 11-maydagi PF–3751-sonli farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamgʻarma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa boʻlib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish boʻyicha loyihalarning amalga oshirilishini taʼminlash, shuningdek, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Uning oʻziga xos boʻlgan xususiyatlaridan biri uning hisob raqamidagi



mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida xorijiy valyutada shakllantiriladi.

Mazkur jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– davlatning jamg'armaga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larini jamlash;

– iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

– strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni, birinchi navbatda, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

– yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'at va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta'minlash;

– yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun muhim ustuvor ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun xorijiy texnologiyalar va uskunalarni sotib olishga mablag'larni maqsadli yo'naltirgan holda respublikaning tijorat banklariga jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilangan tartibda kredit liniyalarini ochish;

– birinchi navbatda, istiqbolli, ammo, yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish;

– kelajakda, birinchi navbatda, qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan, keyinchalik davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash yo'li bilan moliyalashtirish;

– respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog'iga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo'laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

– davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lashni moliyalashtirish;

– xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo‘shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta‘minlash.

Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

– respublikaning ayrim strategik resurslari bo‘yicha jahon bozorlaridagi qulay narxlar natijasida hosil bo‘lib, ortiqcha foydadan olinadigan soliqlar, yer bag‘ridan foydalanganlik uchun soliq va aksiz solig‘i tarzida respublika byudjetiga rejadan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

– har yili davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash chog‘ida Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan qimmatbaho metallarga belgilanadigan chegara narxidan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag‘lar.

Shu bilan birga, jamg‘armaga quyidagilar ham tushumga qarab qo‘shib boriladi:

– davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hisobga olingan hajmlardan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

– jamg‘arma aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan, jamg‘arma mablag‘larining bo‘sh qoldiqlarini joylashtirishdan olinadigan investitsiya daromadlari;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlariga muvofiq boshqa tushumlar.

MDHga a‘zo mamlakatlarda tashkil qilingan jamg‘armalardan farqli o‘laroq, mazkur jamg‘arma barqarorlashtirish, sug‘urta va investitsiya vazifalarini bajaradi. Birinchidan, u nisbatan ortiqcha valyuta tushumini qabul qilish va inflatsiyaga ta‘sir ko‘rsatuvchi pul massasining keskin o‘shishiga yo‘l qo‘ymaslik hisobiga makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga yo‘naltiriladi. Boshqa tomondan esa, u qulay jahon narxlari kon'yunkturasi natijasida olingan moliyaviy resurslarni jamg‘aradi hamda iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘shishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bazaviy tarmoqlarni rivojlantirish va texnik modernizatsiyalash uchun foydalanadi. Jamg‘armaning bunday yo‘nalishi O‘zbekistonga to‘plangan kon'yunktura daromadlaridan past ta‘hdidli aktivlar taqdim etayotgan mamlakatlarga mablag‘ kiritish uchun emas, balki sezilarli kapital oqimiga ehtiyoj sezayotgan o‘z mamlakatida iqtisodiy o‘shish maqsadlari uchun o‘zaro zid bo‘lgan imkoniyatlardan maqbulini tanlash masalalarini hal etishga imkon beradi.

### **Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. O‘zbekistonda qanday jamg‘armalar mavjud?
2. Mamlakatimizda qanday byudjetdan tashqqari davlat maqsadli jamg‘armalari mavjud?
3. O‘zbekistonda pensiya ta‘minotining qanday turlari mavjud?

4. Byudjetdan tashqari yo'l jamg'armasining daromadlari manbai nimalar hisobidan shakllanadi?

5. Byudjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining daromadlari qanday shakllanadi?

6. Byudjetdan tashqari ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi daromadlari qanday manbalardan shakllanadi?

7. Byudjetdan tashqari ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi haqida tushuntirib bering.

8. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi vazifalari nimalardan iborat?

9. O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi qachon tashkil etilgan?

10. O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi vazifalari nimalardan iborat?

## **10-MAVZU. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI: MOHIYATI VA O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI. DAVLAT KREDITI**

- 1. Davlat kreditining mazmun-mohiyati va vazifalari.**
- 2. Davlat krediti tasnifi.**
- 3. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarzlar.**
- 4. Davlat qarzlarini boshqarish.**

### **1. Davlat kreditining mazmun-mohiyati va vazifalari**

Davlat krediti hokimiyat va boshqaruv organlari orqali bir tomondan, davlat orqali ikkinchi tomondan, jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat bo‘lib, unda davlat qarz oluvchi, kreditor (qarz beruvchi) va kafil sifatlarida maydonga keladi. Bunday iqtisodiy (kredit) munosabatlarning mumtoz (klassik) shaklida davlat, odatda, mablag‘larni qarz oluvchi bo‘lib hisoblanadi.

Agar davlat yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarish va haq (to‘lov to‘lash) asosida mablag‘larni taqdim etib, kreditor (qarz beruvchi) sanalsa, unda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan operatsiyalar hajmi ancha kamayadi (pasayadi).

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan olingan qarzlarni uzish (qaytarish) yoki ularning boshqa majburiyatlarini bajarish javobgarligini davlat o‘z zimmasiga olgan holatda, u kafilga aylanadi. Markazlashtirilgan pul fondlarining o‘lchamiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kredit munosabatlarining dastlabki ikki ko‘rinishidan (qarz oluvchi va kreditor) farq qilgan holda, davlat tomonidan kafolatning berilishi o‘sha markazlashtirilgan pul fondining, albatta, o‘zgarishiga olib kelmasligi mumkin. Agar qarzdor o‘zining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar bo‘yicha to‘liq hajmda va o‘z vaqtida hisob-kitob qilishni uddalay olsa, kafil hech qanday qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirmaydi. Biroq, amaliyotda yetarli darajada ishonchli bo‘lgan qarz oluvchilar davlat kafolatiga muhtoj bo‘lmaydi. Ular mustaqil ravishda kredit bozoridan mablag‘larni jalb qilishga qodirdir. Odatda, davlat kafolatlari yetarli darajada ishonchli bo‘lmagan qarz oluvchilarga nisbatan qo‘llaniladi va bu narsa shunga mos ravishda, markazlashtirilgan pul fondidan xarajatlarning o‘sishiga olib keladi.

Davlat krediti iqtisodiy kategoriya sifatida ikki ko‘rinishdagi – moliya va pul-kredit munosabatlarining o‘rtasida joylashgan bo‘lib, shunga mos ravishda, u ham moliyaga, ham kreditga tegishli bo‘lgan xususiyatlarga egadir. Moliya tizimining alohida olingan bo‘g‘ini sifatida esa, davlat krediti davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini (byudjet va byudjetdan tashqari fondlarni) shakllantirish va ulardan foydalanish jarayoniga xizmat qiladi.

Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik (mumtoz) moliyaviy kategoriyalardan, masalan, soliqlardan farq qiluvchi bir necha o'ziga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarga egadir:

- davlat krediti soliq'larga nisbatan ixtiyoriylik xarakteriga ega. Ayrim hollarda amaliyotda, u yoki bu davlatlar tarixida bu prinsipdan chekinish va davlat zayomlarini sotishda majburiylik holatlariga ham yo'l qo'yiladi;

- agar soliqlar faqat bir yo'nalishda – soliq to'lovchilardan byudjetga yoki byudjetdan tashqari jamg'armalarga – harakat qilsa (bunga teskari yo'nalishdagi harakat faqat ortiqcha to'langan yoki xato undirilgan soliqlar qaytarilayotgandagina sodir bo'lishi mumkin), qaytaruvchanlik va haqlilik (to'lovlilik) davlat kreditining asosini tashkil etadi. Haqiqatdan ham, davlat kreditiga ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng o'tkazilgan summa foizi bilan qaytarilishi kerak.

Umuman olganda, davlat krediti boshqa moliyaviy kategoriyalardan o'zining quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

- agar bank kreditni taqdim etishda ta'minlanganlik elementi sifatida konkret boylıklar – ombordagi tovarlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqa shunga o'xshashlar maydonga chiqadigan bo'lsa, davlat tomonidan mablag'lar qarzga olinayotganda uning egaligida bo'lgan barcha mol – mulk, ma'lum bir hududiy birlikning mulki yoki uning qandaydir bir daromadi davlat kreditining ta'minlanganlik elementi bo'lishi mumkin;

- markaziy hukumat darajasida davlat krediti aniq maqsadli xarakterga ega bo'lmaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hokimiyatning quyi darajalarida olingan qarzli mablag'lar aniq ifodalangan maqsadli ishga yo'naltiriladi. Masalan, yangi yo'llar va turar – joy mavzellarini qurish uchun olingan qarz mablag'lari ana shunday xarakterga egadir;

Davlat qarziga xizmat qilish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishda soliqlar asosiy, lekin yagona manba emas. Bunday xarajatlarni moliyalashtirish manbalari mablag'lardan foydalanishning yo'nalishlariga bog'liq. Agar davlat tomonidan jalb qilingan kapitallar unumli joylashtirilsa, qurib bitkazilgan obyekt ishga tushganidan so'ng foyda keltira boshlaydiki, uning hisobidan, jumladan, olingan qarzlarni qaytariladi. Bu holda soliq yuki og'irligining kuchaytirilishiga hech qanday hojat qolmaydi.

Davlat qarzlarni jalb qilish evaziga olingan kapitallardan unumsiz foydalanilsa, masalan, ular hisobidan harbiy yoki ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirilsa, ularning qaytarishning yagona manbai soliqlar yoki yangi qarzlarni bo'lishi mumkin. Oldin chiqarilgan zayomlarni qaytarish uchun davlatning yangi zayomlarini joylashtirilishiga davlat qarzlarni qayta moliyalashtirish deyiladi.

Davlatning qarz olishi natijasida soliq og'irligining kuchayishi ularning muddatiga va qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kreditlarning foizlari

darajasiga bog'liq. Investor uchun davlat qarzining daromadlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, davlat shunchalik katta soliqlar qismini ularni qaytarish uchun yo'naltirishga majbur. Davlat qarzining o'lchami qanchalik katta bo'lsa, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ularga xizmat qilish uchun yo'naltirilayotgan mablag'larning salmog'i shuncha yuqori bo'ladi.

Davlat o'z krediti orqali kredit munosabatlariga kirisha turib, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda pul muomalasining holatiga, pullar va kapitallar bozoridagi foiz stavkalarining darajasiga, ishlab chiqarishga va aholi bandligiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida davlat kreditidan ongli ravishda foydalanib, u yoki bu moliyaviy siyosatni amalga oshirishi mumkin.

Davlat qarzlarni investorlarning turli guruhlarida joylashtirib, pul muomalasini tartibga soladi; jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb qilib, ularning to'lovga qobiliyatli talabini kamaytiradi. Davlat krediti hisobidan ishlab chiqarish xarajatlari, masalan, investitsiyalar moliyalashtirilsa, muomaladagi naqd pul massasining mutlaq qisqarishi sodir bo'ladi. Shuningdek, davlat krediti hisobidan o'qituvchilar va tibbiyot xodimlarining ish haqlari moliyalashtirilsa, aholining to'lovga qobiliyatli talabining tarkibiy tuzilishi o'zgarib, muomaladagi naqd pul massasi o'zgarib qolaveradi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini sotish, sotib olish yoki ularning garovi asosida kreditlar berish bo'yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar mamlakat tijorat banklari likvidligini tartibga solishning muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy bozorda qarz oluvchi sifatida maydonga chiqib, davlat qarzli mablag'larga bo'lgan talabni oshiradi va buning hisobidan kredit baholarining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlatning talabi qancha yuqori bo'lsa, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ssuda foizining darajasi shuncha yuqori bo'ladi va tadbirkorlar uchun kredit shunchaga qimmatlashadi. Qarz mablag'larining qimmatlilik ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlar investitsiyalarning qisqarishiga majbur qiladi va bir vaqtning o'zida, u davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish ko'rinishidagi jamg'armalarni rag'batlantiradi.

Ma'lum chegaraga yetgunga qadar bu jarayon ishlab chiqarishga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Agar mamlakatda erkin kapitallar yetarli darajada bo'lsa, ular to'liq qo'shib olingunga qadar salbiy ta'sir darajasi nolga teng bo'lib qolaveradi. Shundan keyingina, moliyaviy bozordagi davlatning faolligi ssuda foizining o'sishida o'z ifodasini topadi, pul jamg'armalarining katta qismini unumsiz foydalanishga jalb qilinishi esa iqtisodiy o'sish sur'atlarini susaytiradi. Davlat kreditor va kafil sifatida faoliyat ko'rsatib, xorijdan qarzga olingan mablag'lar hisobidan milliy ishlab chiqarish mahsulotlariga talabni vujudga keltirib, ishlab chiqarish va aholi bandligiga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik biznes, mahsulot eksporti yoki ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi kuzatilayotgan alohida mintaqalarda tegishli dasturlarga muvofiq, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni davlat tomonidan kafolatlanish yo'li bilan ishlab chiqarishning rag'batlantirish tizimi keng tarqalgan.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning kasodga uchrashi sodir bo'lganda davlatning kichik tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar bo'yicha banklarga bo'lgan qarzlarni qaytarishni o'z zimmasiga olinishini anglatadi. Dunyoning sanoati rivojlangan ko'plab mamlakatlarida davlat yoki yarim davlat kompaniyalari faoliyat ko'rsatadiki, ular milliy mahsulotlarni eksport qiluvchilarning to'lovga qobiliyatsiz risklarini past stavkalar bo'yicha sug'urta qiladilar. Shu yo'l bilan milliy mahsulotning yangi bozorlarni o'zlashtirishi rag'batlantiriladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashni rag'batlantirishda hududlar byudjetlari va byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan beriladigan kreditlar katta rol o'ynaydi. Ularning yordamida ma'lum bir mintaqalar va u yoki bu hududlar iqtisodiyoti asosiy yo'nalishlarining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi ta'minlanadi.

Davlat kreditining nazorat funksiyasi moliyaning nazorat funksiyasi bilan organik ravishda qo'shib ketgan. Lekin, uning bu funksiyasi shu kategoriyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan quyidagi xarakterli belgilarga ega:

- davlatning faoliyati va markazlashtirilgan pul mablag'lari fondining ahvoli bilan uzviy bog'langan;
- qiymatning ikki tomonlama harakatini o'z ichiga qamrab oladi, chunki mablag'lar olinishining qaytarilishi va tiklanishini taqozo etadi;
- faqat moliyaviy tarkibiy tuzilmalar tomonidan emas, balki kredit institutlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Davlat kreditining nazorat funksiyasi orqali mablag'lar maqsadli foydalanilishi, ularning qaytarilish muddatlari va foizlarning o'z vaqtida to'lanishi nazorat ostiga olinadi.

## **2. Davlat krediti tasnifi**

Byudjet defitsitini moliyalashtirish uchun davlat boshqaruv organlari qarz mablag'larini, qarzlarni jalb qilishga majburdir.

Qarz mablag'larini, qarzlarni jalb qilish, odatda, qarz shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Unga ko'ra, bir tomon (qarz beruvchi) ikkinchi tomonning (qarz oluvchining) mulkiga ma'lum belgilarga ega bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa buyumlarni beradi, qarz oluvchi esa, shu summadagi pul mablag'lari (qarz summasi) yoki teng miqdor sifatidagi buyumlarni qarz beruvchiga qaytarish majburiyatini oladi. Shartnoma bo'yicha qarz oluvchi

davlat yoki uning subyektlari, qarz beruvchilar esa, fuqarolar yoki yuridik shaxslar hisoblanadi. Davlat qarzlari ixtiyoriy bo'lib, muomalaga chiqarilgan qarzlarning shartlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Byudjet defitsitini qoplash uchun qarzlarni nisbatan yuqoriroq darajada bo'lgan foiz stavkalarida joylashtirishga to'g'ri keladi. Qarz muddati, odatda, 20-30 yilni tashkil etayotgan qarz davri davomida o'zining qarz majburiyatlari bo'yicha ana shunday foizni o'rnatib, davlat soliq to'lovchilarning zimmasiga qo'shimcha xarajatlarni yuklaydi. Amaliyotda bunday vaziyatdan chiqib ketishning ikki turi mavjud:

1) pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni qisqa yoki uzoq muddatli qarzlarni va uzoq muddatli qarzlarni (foiz stavkasi pasayib ketgan paytda) chiqarish bilan qoplash. Biroq, bu holda qarz oluvchi yana bitta qarzni chiqarish, joylashtirish va uni qaytarish (uzish) bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirishga majbur bo'ladi. Bundan tashqari, investorlar foiz ustamasining (ko'tarilishini) kutib, ikkinchi marta berilgan qarzga nisbatan qiziqish bildirmaslik ehtimoli ham bu yerda bor;

2) qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni uzluksiz ravishda qayta ko'rib borish. Bu holda yuqorida keltirilgan barcha muammolar hal qilinadi. Hisob-kitob asosi sifatida, odatda, mamlakatdagi banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkasidan foydalaniladi. Biroq bunday qarzlarni juda katta kamchilikka yo'l qo'yadilar, ya'ni qarzdor o'z xarajatlarini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lmay qoladi.

Davlat krediti quyidagi bir necha belgilarga ko'ra tasnif qilinadi:



Emitentlar bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>• markaziy boshqaruv organlari tomonidan joylashtiriladigan qarzlار</li> <li>• hududiy boshqaruv organlari tomonidan joylashtiriladigan qarzlار</li> </ul>
Joylashtirilish joyiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tashqi qarzlار</li> <li>• ichki qarzlار</li> </ul>
Bozorda aylanishiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>• bozorli qarzlار</li> <li>• bozorsiz qarzlار</li> </ul>
Mablag'larni jalb qilish muddatiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> <li>• qisqa muddatli</li> <li>• o'rta muddatli</li> <li>• uzoq muddatli</li> </ul>
To'lanadigan daromadning xarakteri bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yutuqli qarz majburiyatlari;</li> <li>• foizli qarz majburiyatlari;</li> <li>• nol kuponli qarz majburiyatlari.</li> </ul>
Daromadlarni aniqlash metodiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> <li>• barqaror (qat'iy) daromadli qarz majburiyatlari;</li> <li>• «suzuvchan» daromadli qarz majburiyatlari</li> </ul>
Qarz majburiyatlari ta'minlanganligiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>• garovli</li> <li>• garovsiz</li> </ul>
Qarz chiqarilgan paytda belgilangan	<ul style="list-style-type: none"> <li>• muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega bo'lgan majburiyatlar</li> <li>• muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega bo'lmagan majburiyatlar</li> </ul>

### 10.1-rasm. Davlat kreditining turlari

Qarzlarni qaytarishning ikki usuli mavjud:

- bir vaqtning o'zida;
- qismlarga bo'lib.

Agar qarzlار qismlarga bo'linib qaytarilayotgan bo'lsa, qaytarish muddatlari bo'yicha qarz summalarining taqsimlanishiga ko'ra, quyidagi uch variant bo'lishi mumkin:

1) aniqlangan davr, masalan, 4 yil ichida teng qismlarga bo'lib qaytarish. Bu holda, masalan, qarzning summasi 10 mln. so'm bo'lsa, har yili 2,5 mln. so'mdan qaytariladi;

2) oshib boriladigan qismlarda. Masalan, birinchi yil – 1 mln. so'm,

ikkinchi yilda — 2 mln. so‘m, uchinchi yilda — 3 mln. so‘m va to‘rtinchi yilda — 4 mln. so‘m. Qarzdorning daromadlari yildan – yilga oshib borayotgan paytda bu tizim juda qulay usul hisoblanadi. Masalan, boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda, ishbilarmonlik faolligining oshishi natijasida soliq tushumlari o‘shishi ko‘zda tutiladi yoki qurilishga qarz mablag‘lari jalb qilingan ob‘yekt, asta-sekinlik bilan o‘z quvvatiga ega bo‘la borib, yildan-yilga kattaroq summada foyda keltira boshlaydi;

3) pasayib boradigan qismlarda. Masalan, birinchi yilda — 4 mln. so‘m, ikkinchi yilda — 3 mln. so‘m, uchinchi yilda — 2 mln. so‘m va h.k. Bunday tizim qarzdorning daromadlarini pasayishi yoki xarajatlarining ortishi kutilayotgan paytda afzalliklarga ega bo‘lib, ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Davlat kreditini boshqarish. Davlat kreditini boshqarishni keng va tor ma‘nolarda ko‘rib chiqish mumkin. Keng ma‘noda davlat kreditini boshqarish deyilganda, qarzdor, kreditor va garant (kafil) sifatida davlatning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan uning moliyaviy siyosati yo‘nalishlaridan birini shakllantirish tushuniladi.

Moliyaviy siyosatning yo‘nalishlaridan biri sifatidagi davlat kreditini boshqarish davlatning boshqaruv va hokimiyat organlari qo‘lidadir. Faqat ular byudjet defitsitining umumiy hajmini va uni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan qarzlarning hajmini, pul muomalasi, kredit, ishlab chiqarish, aholi bandligiga ta‘sir qilishning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlarini hamda kichik biznes va mamlakat ayrim mintaqalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha umumdavlat dasturlarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini aniqlaydi.

### **3.Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarzlar.**

Davlat tomonidan qarz faoliyatning amalga oshirilishi natijasida davlat qarzi vujudga keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari oldida vujudga kelgan hukumatning qarzli majburiyatlariga davlat qarzi deyiladi. O‘zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunida davlat qarziga «davlat qarzi — davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisidir», deb ta‘rif berilgan.

Davlatning qarzlari joylashtirilish joyiga qarab ikkiga bo‘linadi:

- davlatning ichki qarzlari;
- davlatning tashqi qarzlari.

Davlat tomonidan ichki mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisiga davlat ichki qarzlari deyiladi. Davlat tashqi qarzlari deyilganda esa, davlat tomonidan

xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi tushuniladi. Bu qarzar qarzli instrumentlari joylashtirilish shartlari, kreditorlarining tarkibi va qarzning valyutasiga nisbatan bir-biridan farq qiladi.

Davlatning ichki qarzlari davlat tomonidan ichki mablag‘larni jalb qilish jarayonida vujudga keladi. Davlat tomonidan ichki mablag‘larni jalb qilish aktivlarni ichki manbalardan (resident – yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishini anglatadi.

Shunga o‘xshash, davlatning tashqi qarzlari ham davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish jarayonida vujudga keladi. Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb etish aktivlarni xorij manbalaridan (xorijiy davlatlardan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarining vujudga kelishini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi kelgusi moliya yili uchun mamlakatning davlat byudjetini qabul qilayotgan paytda davlat ichki va tashqi qarzarining eng yuqori miqdorlarini tasdiqlaydi.

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag‘ jalb qilishga hamda davlat qarzining ko‘payishiga olib keladigan boshqa harakatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Amaldagi tartibga muvofiq davlat tomonidan ichki va tashqi mablag‘larni (qarzlarni) jalb qilish quyidagi maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, shu jumladan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish;
- davlat byudjetining daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasidagi tushumlar vaqtga ko‘ra, muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan yillik ichki tafovutni (farqni) to‘g‘rilash;
- mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish;
- byudjet defitsitini moliyalashtirish;
- tabiiy ofat va boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarni qoplash.

Davlat tomonidan ichki va tashqi qarzar mablag‘larini jalb qilishda qarzar majburiyatlarining bir necha turlaridan foydalanish mumkin. Ularning asosiylari va muhimlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- qisqa muddatli (bir yilgacha bo‘lgan davrga chiqariladigan), o‘rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo‘lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan) davlat qimmatli

qog'ozlari;

- kreditlar (qisqa, o'rta va uzoq muddatli);
- O'zbekiston Respublikasining kafolatlari;
- byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik farqni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlar.

Xorijiy investorlar tomonidan bir qismi sotib olinishi mumkin bo'lishiga qaramasdan, shu davlatning rezidentlari hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ichki qarzlari bo'yicha asosiy kreditorlar hisoblanadi. Bu qarzlarni, odatda, milliy valyutada muomalaga chiqariladi. Ichki qarz mablag'larini jalb qilish uchun milliy fond bozorida talabga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar emitatsiya qilinadi. Investorlarni qo'shimcha rag'batlantirish uchun esa, turli soliq imtiyozlaridan foydalaniladi.

Davlatning tashqi qarzlari boshqa mamlakatlarning valyutasida xorijiy fond bozorlarida joylashtiriladi. Bunday qarzlarni joylashtirishda joylashtirilishi lozim bo'lgan mamlakat investorlarining o'ziga xos bo'lgan manfaatlari hisobga olinadi.

Amaliyotda qarziy mablag'larni jalb qilish, asosan, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

- qarziy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;
- ixtisoslashtirilgan moliya-kredit institutlaridan kreditlar olish.

Qarziy qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni joylashtirish tartibi har bir mamlakatning tegishli qonuni orqali tartibga solib turiladi. Ana shu qonunga muvofiq, faqat mamlakat hukumatining nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar davlat qimmatli qog'ozlari deb e'tirof etiladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar fond bozorining tarkibiga kiruvchi davlat qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi. Bu bozor quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- byudjet defitsitini moliyalashtirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish;
- Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosati o'tkazishni ta'minlash;
- tijorat banklari va moliyaviy institutlarning likvidligini tartibga solishni amalga oshirish.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi natijasida vujudga kelgan va mamlakatning ichki qarzini tashkil etuvchi hukumatning majburiyatlari shu mamlakatning milliy valyutasida ifodalanishi va shu valyutada to'lanishi kerak. Shunga o'xshash, qimmatli qog'ozlar emissiyasi natijasida vujudga kelgan va mamlakatning tashqi qarzini tashkil etuvchi hukumatning majburiyatlari xorijiy valyutada ifodalanishi va shu valyutada to'lanmog'i lozim.

Har bir mamlakatda davlat tomonidan qarziy mablag'larni jalb qilishning yagona hisobga olish va qayd etish tizimi mavjud. Buning uchun Moliya

vazirligi hukumatning davlat ichki va tashqi qarzlarini kitobini yurgizadi.

#### **4. Davlat qarzlarini boshqarish**

O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzini boshqarishning oliy organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidir. Oliy Majlis byudjet defitsitini moliyalashtirish uchun jalb qilinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar va byudjet mablag‘lari hisobidan kreditlashtirishning maksimal miqdorlarini belgilaydi. U yoki bu ko‘rinishdagi qimmatli qog‘ozlarni chiqarishning chegaraviy hajmini O‘zbekiston Respublikasi hukumati – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘rnatadi.

Davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarishni optimallashtirish uchun ikki dasturni ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

- tashqi qarzlarini olish davlat dasturi;
- ichki qarzlarini olish davlat dasturi.

Bu dasturlar maqsadlari, manbalari va qaytarilish muddatlarini ko‘rsatgan holda, navbatdagi moliyaviy yilda olinishi lozim bo‘lgan qarzlar ro‘yxatidan iboratdir. Dasturlar navbatdagi yil byudjetining loyihasi bilan Oliy Majlisga taqdim etiladi va tasdiqlanishi lozim.

Xususan, tashqi qarzlar olish davlat dasturida ikki guruhga bo‘linib, aks ettiriladi:

- bog‘lanmagan (moliyaviy) qarzga olishlar (qarzlar);
- maqsadli xorijiy qarzga olishlar (qarzlar).

Bularning har ikkalasi uchun ham yuqoridagi dasturda alohida – alohida quyidagilar o‘z ifodasini topishi kerak:

- bog‘lanmagan (moliyaviy) qarzga olishlar:

(qarzlar) bo‘yicha:

- a) jalb qilish manbalari;
- b) qarzga olish summalari;
- d) qaytarish muddatlari.

- maqsadli xorijiy qarzga olishlar:

(qarzlar) bo‘yicha:

- a) yakuniy oluvchi;
- b) qarzga olishning maqsadi va foydalanish yo‘nalishi;
- d) qarzga olish manbasi;
- e) qarzga olish summasi;
- f) qarzni qaytarish muddatlari;

g) mablag‘larni byudjetga qaytarish bo‘yicha uchinchi shaxsning kafolati;

h) navbatdagi moliyaviy yil boshlangunga qadar foydalanilgan mablag‘lar xarajatining baholanishi;

i) navbatdagi moliyaviy yilda mablagʻlarning foydalanish hajmi prognozi (bashorati).

Oʻzbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qogʻozlarining yagona emitenti boʻlib, Moliya vazirligi hisoblanadi va u Oʻzbekiston hukumati tomonidan tasdiqlangan chegaralarda ularning chiqarilish muddatlari va hajmini belgilaydi.

Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamgʻarmalarning mablagʻlarini maqsadli va barqaror sarflanishini taʼminlash, byudjetdan moliyalashtirilayotgan tashkilotlarning qarzlari kamaytirish maqsadida ijroiya hokimiyat organlariga davlatning qimmatli qogʻozlarini chiqarish, kreditlar va qarzlarni olish yoʻli bilan qarz mablagʻlarini jalb qilish taʼqiqlangan (hukumat tomonidan toʻgʻridan – toʻgʻri oʻrnatilgan hollardan tashqari). Bu jihat davlatning byudjetdan tashqari jamgʻarmalariga ham tegishlidir.

Davlatning ichki qarzlari xizmat qilish boʻyicha bosh vakil funksiyasini mamlakatning Markaziy banki bajaradi. Har bir obligatsiyani chiqarish emissiyasida barcha yagona va jamlanma sertifikatlar Moliya vazirligi tomonidan saqlash va hisobga olish uchun depozitariyga berilishi kerak. Depozitariy funksiyasini Markaziy bank yoki u tomondan vakolati belgilangan boshqa tashkilot bajarishi mumkin. Markaziy bank Moliya vazirligining topshirigʻiga koʻra va respublika byudjetining mablagʻlari hisobidan obligatsiyalarning egalariga, yaʼni bu obligatsiyalar qaytarilayotgan paytda toʻlovlarni amalga oshiradi.

Davlat qimmatli qogʻozlarini tartibga solish hukumatning Moliya vazirligi va Markaziy bank bilan hamkorlikdagi eng muhim va masʼuliyatli funksiyalaridan biridir. Hozirgi amaliyotda davlat qimmatli qogʻozlarini tartibga solish choralarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- «olovli» choralar – qayta moliyalashtirish va lombard stavkalarini oshirish (koʻtarish), qimmatli qogʻozlar va valyuta bozorlarida Markaziy bankning intervensiyasi. Biroq bunday choralar qisqa vaqt 2 yoki 3 kun ichida taʼsirchan hisoblanadi;

- xorijiy qarzga olish. Qimmatli qogʻozlar bozoriga taʼsir koʻrsatish uchun qarz olishning oʻzi emas, balki kreditlarning olinishi toʻgʻrisida ishonch boʻlishining oʻzi yetarlidir. Yuqoridagi kabi bu guruhga kiruvchi choralar ham, maʼlum darajada tanazzulni orqaga suruvchi va uning ildizlariga barham beruvchi «olovli» choralar hisoblanadi;

- davlat qimmatli qogʻozlar milliy bozori nobarqarorligining oldini olishga samarali va uzoq muddatli taʼsir koʻrsatishga uzoq muddatli monetar choralarga moliyaviy bozorning chegarasidan chetga chiquvchi choralar (xususan, soliq tizimi va soliqlarning undirilishini tartibga solish, byudjet defitsitini qisqartirish, iqtisodiyotning oʻsishiga erishish va h.k.lar)

qo‘llanilsagina erishish mumkin.

**Takrorlash va nazorat uchun savollar:**

1. Davlat kreditining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Davlat krediti qanday subyektlar o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat va unda davlat qanday ko‘rinishlarda maydonga chiqadi?
3. Davlat kreditida davlat qachon kafilga aylanadi?
4. Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik (mumtoz) moliyaviy kategoriyalardan, masalan, soliqlardan farq qiluvchi o‘ziga xos bo‘lgan qanday xususiyatlarga ega?
5. Davlat krediti qanday funksiyalarni bajaradi?
6. Davlat kreditini taqsimlash funksiyasining mazmuni nimadan iborat?
7. Davlat krediti qanday belgilarga ko‘ra tasnif qilinadi?
8. Joylashtirilish joyiga qarab davlat krediti nimalardan tashkil topadi?
9. Bozorda aylanishiga qarab davlat kreditining tarkibi nimalardan iborat bo‘ladi?

## “MOLIYA” FANIDAN TEST SAVOLLARI TO‘PLAMI

1. «Moliya» so‘zi qaysi tildan kelib chiqqan va ona tilimizda qanday ma‘noni anglatadi?

a) arabcha bo‘lib, ona tilimizda «pul mablag‘lari» degan ma‘noni bildiradi;

b) lotincha bo‘lib, ona tilimizda «mulk» degan ma‘noni bildiradi;

c) grekcha bo‘lib, ona tilimizda «pul jamg‘armasi » degan ma‘noni bildiradi;

d) yunoncha bo‘lib, ona tilimizda «boylik » degan ma‘noni bildiradi.

2. Moliya tushunchasi nimaning natijasida yuzaga keldi?

a) davlatning paydo bo‘lishi va mamlakatda moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojining taraqqiyoti bilan bevosita tovar – pul munosabatlarining natijasida;

b) pul bilan bog‘liq munosabatlarning evolyutsiyasi natijasida;

c) moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida;

d) takror ishlab chiqarishni ta‘minlovchilar o‘rtasida ma‘lum darajada munosabatlarning o‘rnatilishi natijasida;

3. Hozirgi «moliya» atamasining vujudga kelishi qaysi olim bilan bog‘lanadi?

a) J.Bodenn

b) A.Smit

c) Karl Marks

d) A.M.Birman

4. J.Bodenn tomonidan yozilgan «Respublika xususida olti kitob» asari qachon yozilgan?

a) 1577 – yilda

b) 1575 – yilda

c) 1578 – yilda

d) 1576 – yilda

5. Moliya kategoriyasi deb nimaga aytiladi?

a) pul mablag‘larini taqsimlash va qayta taqsimlash va ularning to‘g‘ri olib borilishiga moliya kategoriyasi deyiladi.

b) mamlakatda takror ishlab chiqarish jarayonini ta‘minlash, davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish bilan bog‘liq markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonlarini o‘zida aks ettirishiga moliya kategoriyasi deyiladi.

c) moliyaviy munosabatlar, ishlab chiqarish munosabatlarining tarkibiy qismlari va takror ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishiga moliya kategoriyasi deyiladi.



d) mamlakatda yaratilayotgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash yuzasidan hokimiyat organi sifatida davlat bilan ishlab chiqarishni va takror ishlab chiqarishni ta'minlovchilar o'rtasida ma'lum darajada munosabatlarning o'rnatilishini va ularni o'zida aks etishiga moliya kategoriyasi deyiladi.

6. Qaysi olim moliyaning uchta funksiyasini ajratib ko'rsatgan?

- a) A.M.Birman;
- b) J.Bodenn;
- c) A.Smit;
- d) Karl Marks.

7. Hozirgi sharoitda o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar moliyaning qaysi funksiyalarini bajarishni e'tirof etishmoqda?

- a) qayta taqsimlash, nazorat;
- b) xo'jalik yuritish jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlash, nazorat;
- c) taqsimlash, nazorat;
- d) taqsimlash, qayta taqsimlash.

8. Markazlashgan pul fondlari nima?

a) mahsulot (ish, xizmat)larni yetkazib berishda band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlari ixtiyorida bo'lgan va faqatgina shu shaxslar tomonidan tasarruf qilinishi va moliyaviy – xo'jalik faoliyatini pul mablag'lari bilan taminlashda ishlatiladi;

b) alohida territoriya, tarmoq yoki xo'jalik subyekti manfaatini iqtisodiy qondirish uchun sarflanmasdan balki mazkur pul fondlaridan moliyalashtiriladigan jarayonlar umumjamiyat manfaatlariga to'liq mos kelganligi uchun amalga oshiriladi;

c) mamlakatda takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash, davlatning funksiya va vazifalarini bajarish bilan bog'liq;

d) pul mablag'larini to'g'ri taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan jarayon.

9. Markazlashmagan pul fondlari nima?

a) mahsulot (ish, xizmat)larni yetkazib berishda band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlari ixtiyorida bo'lgan va faqatgina shu shaxslar tomonidan tasarruf qilinishi va moliyaviy – xo'jalik faoliyatini pul mablag'lari bilan ta'minlashda ishlatiladi;

b) pul mablag'larini to'g'ri taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan jarayon;

c) alohida territoriya, tarmoq yoki xo'jalik subyekti manfaatini iqtisodiy qondirish uchun sarflanmasdan balki, mazkur pul fondlaridan moliyalashtiriladigan jarayonlar umumjamiyat manfaatlariga to'liq mos kelganligi uchun amalga oshiriladi;

d) mamlakatda takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash, davlatning funksiya va vazifalarini bajarish bilan bog'liq.

10. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari)ni ko'rsating:

a) byudjet siyosati, soliq siyosati, monetar siyosat, baho siyosati, investitsion siyosat, boj – byudjet siyosati;

b) soliq siyosati, monetar siyosat;

c) pul – kredit siyosati, boj – byudjet siyosati, nazorat siyosati;

d) soliq siyosati, monetar siyosat, baho siyosati.

11. Moliya tizimi qaysi tarkibiy qismlardan iborat?

a) davlat moliyasi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi, xalqaro moliya;

b) markazlashgan pul fondlari, markazlashmagan pul fondlari;

c) moliyaviy institutlar, barcha fondlar;

d) davlat moliyasi, xo‘jalik yurituvchi sub`yektlar moliyasi, moliyaviy institutlar.

12. Davlat moliya tizimining asosini nima tashkil etadi?

a) davlat byudjeti;

b) xo‘jalik yurituvchi subyektlar;

c) moliyaviy institutlar;

d) fondlar.

13. Davlat byudjeti o‘z ichiga nimani oladi?

a) mamlakatda yaratilgan milliy daromadning bir qismini soliqlar va boshqa to‘lovlar tarzida olib, uni o‘z vazifalarini bajarish uchun sarflanishini;

b) soliq tushumlarini;

c) chet ellardan transferlar;

d) xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlari.

14. Davlat byudjeti qaysi tarkibiy qismlarga ajraladi?

a) Respublika byudjeti, xo‘jalik yurituvchi sub`yektlar byudjeti;

b) Respublika byudjeti, mahalliy byudjetlar;

c) Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjetlar;

d) Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1675-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarori qachon qabul qilingan?

a) 2011-yil 30-dekabr;

b) 2011-yil 25-dekabr;

c) 2010-yil 27-dekabr;

d) 2011-yil 25-yanvar.

16. Davlat kreditining mohiyati nimadan iborat?

a) davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondlariga mablag‘lar yetishmovchiligi yuzaga kelgan sharoitda mablag‘lar jalb qilishdan;

b) xo‘jalik yurituvchi subyektlarga iqtisodiy ko‘mak berishdan;

c) davlatdagi mavjud bo‘lgan moliyaviy kamchiliklarni to‘ldirishdan;

d) biznes subyektlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishdan.

17. Davlat krediti manbalari turlarini ko'rsating.

- a) ichki, tashqi;
- b) yopiq, ochiq;
- c) xorijiy, milliy;
- d) maqsadli, strategik.

18. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasining birinchi guruhiga quyidagi keltirilgan javoblardan qaysi biri to'g'ri keladi?

- a) tijorat muassasalari moliyasi;
- b) moliyaviy institutlar moliyasi;
- c) davlat moliyasi;
- d) xalqaro moliya.

19. Mamlakatimizda yaratilgan ikki pog'onali bank tizimi qanday ko'rinishda?

- a) xususiy banklar, xorijiy banklar;
- b) Milliy bank, tijorat banklar;
- c) Markaziy bank, tijorat banklari;
- d) xorijiy davlat ishtirokidagi banklar, xalq banki.

20. Sug'urtaning qanday turlari mavjud?

- a) mulkiy sug'urta, shaxsiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi;
- b) mulk sug'urtasi, shaxs sug'urtasi;
- c) transport sug'urtasi, salomatlik sug'urtasi;
- d) umumiy sug'urta, birlamchi sug'urta.

21. Davlat byudjeti respublikamizda nechta tarkibga bo'linadi?

- a) 4; b) 3; c) 2; d) 5.

22. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qaysi turdagi soliqlar tarkibiga kiradi?

- a) aralash soliqlar;
- b) bevosita soliqlar;
- c) davlat soliqlari;
- d) bilvosita soliqlar.

23. G'aznachilikka o'tishning dastlabki bosqichi qachon va qaysi hududlarda amalga oshirildi?

- a) 2006-yilda Samarqand, Namangan, Buxoro;
- b) 2007-yilda Andijon, Jizzax, Farg'ona;
- c) 2004-yilda Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- d) 2005-yilda Toshkent shahri va Samarqand viloyati.

24. Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosiga o'tishdan asosiy maqsadi?

- a) davlat byudjetini samarali boshqarish;
- b) davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish;
- c) byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;

- d) barcha javob to‘g‘ri;  
 e) to‘g‘ri javob yo‘q.
25. Bevosita soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?  
 a) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;  
 b) aksiz solig‘i;  
 c) qo‘shilgan qiymat solig‘i;  
 d) yer solig‘i;  
 e) to‘g‘ri javob b va d.
26. G‘aznachilik tizimi bilan ijro etishning afzalliklari nimada?  
 a) qisqa fursatlarda davlatning moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko‘rsatkichlarini aniqlash;  
 b) davlat moliyasining holati to‘g‘risidagi tezkor axborotlarni yig‘ish, ishlov berish va tahlil qilish;  
 c) byudjet mablag‘larining aylanish jarayonining sustligi;  
 d) to‘g‘ri javob a va b.
27. G‘aznachilik funksiyalari?  
 a) manbalar bo‘yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;  
 b) g‘aznachilik hamda uning hududiy bo‘linmalari xodimlari malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;  
 c) davlat byudjeti ijrosi jarayonida respublika byudjeti daromadlari tushumi va xarajatlarning qisqa muddatli prognozlarini tuzadi;  
 d) barcha javoblar to‘g‘ri.
28. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishi nuqtai nazaridan nechta guruhga bo‘linadi?  
 a) 3; b) 2; c) 4; d) 5.
29. Davlat byudjeti daromadlari manbalari qaysilar?  
 a) bevosita soliqlar;  
 b) ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash uchun sarf-xarajatlari;  
 c) resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i;  
 d) maqsadli jamg‘armalarning xarajatlari;  
 e) to‘g‘ri javob a va b.
30. Umumdavlat soliqlari qaysilar?  
 a) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;  
 b) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;  
 c) mol-mulk solig‘i;  
 d) yer solig‘i.
31. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i qaysi soliq turiga kiradi?  
 a) bevosita soliqlar;  
 b) bilvosita soliqlar;  
 c) resurs to‘lovlari, mol-mulk to‘lovi;

d) davlat soliqlari.

32. Bugunga kelib byudjet amaliyotining asosiy natijalari qaysilar?

a) respublika hukumati o'tkazayotgan iqtisodiyotni barqarorlashtirish tadbirlarini moliyalashtirishni ta'minlash;

b) mamlakatda moliyaviy barqarorlashtirishga erishish;

c) milliy iqtisodiyotni tubdan qayta qurishni amalga oshirish;

d) barcha javob to'g'ri;

e) to'g'ri javob yo'q.

33. Davlatning strategik moliyaviy rejasi qaysi turlarga bo'linadi?

a) byudjet daromadlarini shakllantirish;

b) byudjet xarajatlarini daromadlar hisobidan amalga oshirish;

c) byudjet-soliq siyosatining strategik vazifalari;

d) barcha javob to'g'ri.

34. Byudjet daromadlarini shakllantirish qaysi qismlardan iborat?

a) solikli;

b) imtiyozli;

c) soliqsiz;

d) daromadli;

e) to'g'ri javob a va c.

35. Byudjet tizimining asosiy prinsiplari qaysilar?

a) byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

b) byudjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

c) turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi;

d) davlat byudjeti balansliligi;

e) barcha javob to'g'ri.

36. Soliqlarni paydo bo'lishi davlatlarning aynan qaysi tizimini rivojlantirishga olib kelgan?

a) moliya va bozor tizimini shakllanishiga;

b) savdo va hunarmandchilikni rivojlanishiga;

c) moliyani rivojlanishi va shakllanishiga.

37. Movarounnahrda nechanchi asrlarda soliqqa tortish, ular kimga tegishlik ekanligiga bog'liq edi?

a) XI – XII asrlarda;

b) IX – X asrlarda;

c) XII – XIII asrlarda.

38. "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida,

saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi. Ushbu misra kimga tegishli?

- a) Amir Temurga;
- b) Alisher Navoiyga;
- c) Zahiriddin Muhammad Boburga.

39. Amir Temur davrida xazina daromadlari qanday daromadlarga ajratilgan?

- a) asosli va asossiz;
- b) hisobga olinadigan va olinmaydigan;
- c) solikli va soliqsiz daromadlarga.

40. Hirot hokimi tomonidan aholi zimmasiga yuklatilgan sarmushar, ya'ni jon solig'i bo'lmish 50 ming dinor to'lashga majbur bo'lganlar, lekin oliy janoblik sifatida kim tomonidan aynan shu soliq to'lab berilgan?

- a) Alisher Navoiy;
- b) Lutfiy;
- c) Husayn Boyqaro.

41. Davlat byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish qanday amalga oshiriladi?

- a) joriy byudjet transferlari va kapital xarajatlari shaklida;
- b) chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga;
- c) rezident yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;
- d) to'g'ri javob b va c;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

42. Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy prinsiplari nimalardan iborat?

- a) minimum xarajat qilib, maksimum samara olish va byudjet mablag'laridan foydalanishning maqsadlilikligi;
- b) byudjet mablag'larining qaytariluvchan emasligi va byudjet mablag'larining tekinligi;
- c) ko'zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan mablag'larning foydalanilganligini inobatga olgan holda byudjet mablag'larini taqdim etish;
- d) barcha javoblar to'g'ri;
- e) bunday prinsiplar mavjud emas.

43. Byudjetdan moliyalashtirishning qanday usullari mavjud?

a) "netto-byudjet" tizimi bo'yicha moliyalashtirish. Moliyaviy resurslarni yo'naltirishda byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan smetalarining cheklangan bir qismiga ajratiladi, qolgan qismi byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va ular manbasini kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin;

b) "brutto-byudjet" usuli orqali amalga oshirish. Mazkur usulda byudjetdan to'liq moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari uchun qo'llaniladi;

- c) to'g'ri javob a va b;
- d) to'g'ri javob yo'q.

44. Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash guruhlarini

- a) ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar;
- b) kapital qo'yilmalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa xarajatlar;
- c) fermerlarga ssuda ajratmalari;
- d) to'g'ri javob a va b;
- e) to'g'ri javob a va c.

45. Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning boshqa xarajatlar guruhiga qanday xarajatlar kiradi?

- a) ovqatlantirish;
- b) dori-darmonlar;
- c) kommunal xizmatlar;
- d) to'g'ri javob a va b;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

46. Iqtisodiyotga xarajatlar yo'nalishlarini aniqlang.

a) Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suv xo'jaligi tashkilotlari iste'mol qiladigan elektr energiyaga to'lovlar;

b) Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi xarajatlari;

c) kam unumli yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadli mablag'lari;

- d) to'g'ri javob a va b;
- e) to'g'ri javob a, b va c.

47. Ijtimoiy nafaqalar turlarini aniqlang.

a) voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar (bolali oilalarga nafaqalar);

b) bola 2 yoshga to'lgungacha parvarish qilish uchun nafaqalar (onalarga nafaqalar);

c) kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;

- d) to'g'ri javob yo'q;
- e) to'g'ri javob a, b, c.

48. Ijtimoiy nafaqalar tayinlashda oilaning qaysi daromadlari inobatga olinadi?

a) mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlar, chet elda ishlaydigan yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan oila a'zolaridan pul tushumlari summasi;

b) mol-mulkdan olingan daromadlar;

c) xususiy tadbirkorning daromadi;

- d) to'g'ri javob a va b;
- e) to'g'ri javob a, b, c.

49. Byudjet dotatsiyasi nima?

a) o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda, quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi

farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

b) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

c) yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘;

d) byudjetlar xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi.

50. Byudjet subvensiyasi nima?

a) o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

b) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

c) yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘;

d) byudjetlar xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi.

51. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi 913-XII-sonli qonuni qachon qabul qilingan?

a) 1993-yil 2-sentyabrda;

b) 1994-yil 2-martda;

c) 1995-yil 2-sentyabrda;

d) 1996-yil 2-martda.

52. Mahalliy moliyalar tarkibiga ...

a) shaharlar, tumanlar, posyolkalar moliyalari kiradi;

b) viloyatlar, shaharlar, tumanlar, posyolkalar va boshqa aholi punktlari moliyalari kiradi;

c) viloyatlar, shaharlar, tumanlar moliyalari kiradi;

d) shaharlar va tumanlar moliyalari kiradi.

53. Prof. L.M.Pavlov va A.M.Babichlar tomonidan mahalliy moliyaga berilgan ta'riflar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan:

a) Mahalliy moliya birinchidan, mahalliy hokimiyat organlari va ikkinchidan, mazkur mahalliy tuzilma hududida istiqomat qiluvchi aholi, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidir;

b) Mahalliy moliya mahalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish,



uning hududida istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasini oshirish masalasini yechish uchun moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlari majmuidir;

c) Mahalliy moliya mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun shakllantiriladigan va foydalaniladigan pul mablag‘lari majmuidir;

d) Mahalliy moliya hududning moliyaviy salohiyatini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish borasidagi barcha pul munosabatlarini – mahalliy tuzilma doirasidagi qayta ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi barcha iqtisodiy subyektlarning (turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, moliya-kredit institutlari, aholi) moliyaviy resurslarini amalga oshiradi.

54. Mahalliy moliyaga V.V.Sokolova tomonidan berilgan ta'rifni aniqlang.

a) Mahalliy moliya birinchidan, mahalliy hokimiyat organlari va ikkinchidan, mazkur mahalliy tuzilma hududida istiqomat qiluvchi aholi, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidir;

b) Mahalliy moliya mahalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning hududida istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasini oshirish masalasini yechish uchun moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlari majmuidir;

c) Mahalliy moliya mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun shakllantiriladigan va foydalaniladigan pul mablag‘lari majmuidir;

d) Mahalliy moliya hududning moliyaviy salohiyatini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish borasidagi barcha pul munosabatlarini – mahalliy tuzilma doirasidagi qayta ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi barcha iqtisodiy subyektlarning (turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, moliya-kredit institutlari, aholi) moliyaviy resurslarini amalga oshiradi.

55. Rossiya Federatsiyasining byudjet tizimiga oid adabiyotlarda mahalliy moliyaning turli jihatlari ochib berilgan bo‘lib, xususan, unga qanday ta'rif beriladi?

a) Mahalliy moliya birinchidan, mahalliy hokimiyat organlari va ikkinchidan, mazkur mahalliy tuzilma hududida istiqomat qiluvchi aholi, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidir;

b) Mahalliy moliya mahalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning hududida istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasini oshirish masalasini yechish uchun moliya resurslarini shakllantirish, taqsimlash va

foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlari majmuidir;

c) Mahalliy moliya mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish uchun shakllantiriladigan va foydalaniladigan pul mablag‘lari majmuidir;

d) Mahalliy moliya hududning moliyaviy salohiyatini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish borasidagi barcha pul munosabatlarini – mahalliy tuzilma doirasidagi qayta ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi barcha iqtisodiy subyektlarning (turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, moliya-kredit institutlari, aholi) moliyaviy resurslarini amalga oshiradi.

56. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar soliqning bitta turi bo‘yicha qancha muddatgacha berilishi mumkin?

a) 2 yilgacha;

b) 3 yilgacha;

c) 4 yilgacha;

d) 5 yilgacha.

57. Soliq to‘lovchi imtiyozga ega bo‘lgach, yana shunday imtiyoz olishi uchun kamida qancha muddat o‘tishi lozim?

a) 3 yil;

b) 4 yil;

c) 5 yil;

d) 10 yil.

58. Mahalliy byujetlar qanday bo‘g‘inlardan iborat?

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjeti, shaharlar byudjeti, tumanlar byudjeti, shaharlar tarkibidagi tumanlar byudjeti;

b) viloyatlar byudjeti, shaharlar byudjeti, tumanlar byudjeti;

c) Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjeti, shaharlar byudjeti, tumanlar byudjeti, shaharlar tarkibidagi tumanlar byudjeti, tumanlar tarkibidagi shaharlar byudjeti;

d) Viloyatlar byudjeti, shaharlar byudjeti, tumanlar byudjeti, shaharlar tarkibidagi tumanlar byudjeti, tumanlar tarkibidagi shaharlar byudjeti.

59. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi 938-XII-sonli qonuni qachon qabul qilindi?

a) 1993-yil 3-sentyabr;

b) 1992-yil 23-oktyabr;

c) 1993-yil 5-mart;

d) 1994-yil 13-sentyabr.

60. Necha yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida necha yil bo‘lgan taqdirda erkaklar pensiyaga chiqadilar?

a) 57 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda;

b) 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda;

c) 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda.

61. Necha yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida necha yil bo‘lgan taqdirda

ayollar pensiyaga chiqadilar?

- a) 57 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;
- b) 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda;
- c) 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda.

62. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari ijtimoiy jamg'armalarga to'lanadigan majburiy to'lovlar hisobidan shakllanadi bu:

- a) yagona ijtimoiy to'lov;
- b) kasaba uyushmasi fondiga (jamg'arma daromadi hisoblanmaydi);
- c) fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (ish haqiga nisbatan);
- d) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- e) hammasi to'g'ri.

63. Jamg'armaning daromadlari bo'yicha jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq qaysi funksiyalarni amalga oshiradi?

- a) jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;
- b) zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;
- c) har yili jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;
- d) pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi.

64. O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi qachon tashkil etilgan?

- a) 2006-yil 11-maydagi PF-3751-sonli farmoniga muvofiq tashkil etilgan;
- b) 2007-yil 21-maydagi PF-3751-sonli farmoniga muvofiq tashkil etilgan;
- c) 2006-yil 31-martdagi PF-3751-sonli farmoniga muvofiq tashkil etilgan;
- d) to'g'ri javob yo'q.

65. O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi vazifalari:

- a) investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlarini hamda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha tender hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish;
- b) strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni, birinchi navbatda, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;
- c) davlatning jamg'armaga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larini jamlash;
- d) to'g'ri javob b va c.

66. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari qanday shakllanadi?

- a) maqsadli byudjet mablag'lari;

- b) yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;
- c) mahalliy va xorijiy grantlar;
- d) to'g'ri javob a va c;
- e) to'g'ri javob b va c.
67. Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari qanday shakllantiriladi?
- a) qo'shimcha va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznes sub'yektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalaridan foizlar;
- b) yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;
- c) mahalliy va xorijiy grantlar;
- d) to'g'ri javob a va b;
- e) to'g'ri javob b va c.
68. Davlat pensiyalarining qanaqa turlari hisoblanadi?
- a) yoshga doir pensiya;
- b) nogironlik pensiyasi;
- c) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi;
- d) to'g'ri javob yo'q;
- e) hammasi to'g'ri.
69. Kim iqtisodiy (kredit) munosabatlar(i)ning mumtoz (klassik) shaklida, odatda, mablag'larni qarz oluvchi bo'lib hisoblanadi?
- a) jismoniy shaxslar;
- b) yuridik shaxslar;
- c) davlat;
- d) to'g'ri javob yo'q.
70. Qaysi biri davlat krediti emitentlar bo'yicha bo'ladi:
- a) markaziy boshqaruv organlari tomonidan joylashtiriladigan qarzlar;
- b) bozorli qarzlar;
- c) barqaror (qat'iy) daromadli qarz majburiyatlari;
- d) to'g'ri javob yo'q.
71. Qaysi biri kredit mablag'larni jalb qilish muddatiga ko'ra bo'ladi:
- a) qisqa muddatli;
- b) o'rta muddatli;
- c) uzoq muddatli;
- d) hammasi to'g'ri.
72. Qaysi biri kredit qarz majburiyatlari ta'minlanganligiga qarab bo'ladi:
- a) foizli qarz majburiyatlari;
- b) garovli;
- c) yutuqli qarz majburiyatlari;
- d) nol kuponli qarz majburiyatlari;
- e) to'g'ri javob a, c va d.

73. Qarzlarni qaytarishning qancha usuli mavjud?
- a) 2;
  - b) 3;
  - c) 1;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
74. Qarzlarni qaytarishning qanaqa usuli mavjud?
- a) bir vaqtning o'zida;
  - b) hech qachon qaytarishmaydi;
  - c) qismlarga bo'lib;
  - d) to'g'ri javob a va c.
75. Amaliyotda qarziy mablag'larni jalb qilish, asosan, qanaqa yo'l bilan amalga oshiriladi?
- a) ixtisoslashtirilgan moliya-kredit institutlaridan kreditlar olish;
  - b) qarziy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;
  - c) to'g'ri javob a va b.
76. Davlatning ichki qarzlariga xizmat qilish bo'yicha bosh vakil funksiyasini kim bajaradi?
- a) tijorat banklari;
  - b) Markaziy bank;
  - c) Moliya vazirligi;
  - d) to'g'ri javob a va b.
77. Qaysi biri kredit qarz chiqarilgan paytda belgilangan (o'rnatilgan)?
- a) muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega bo'lgan majburiyatlar;
  - b) «suzuvchan» daromadli qarz majburiyatlari;
  - c) barqaror (qat'iy) daromadli qarz majburiyatlari;
  - d) to'g'ri javob b va c.
78. Qaysi biri kredit joylashtirilish joyiga qarab belgilanadi?
- a) bozorli qarzarlar;
  - b) tashqi qarzarlar;
  - c) bozorsiz qarzarlar;
  - d) to'g'ri javob yo'q.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008 yil. – B. 40.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi 432-II-sonli Konstitutsiyaviy qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi 524-II-sonli qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda “Davlat byudjetining G‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi 664-II-sonli qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 474-I-sonli qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi 717-I-sonli qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2005-yil 21-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi 154-I-sonli qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda “Lizing to‘g‘risida”gi 756-I-sonli qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 17-dekabrda “Xususiy bank va moliya institutlari to‘g‘risida”gi qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi qonuni.
12. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi 938-XII-sonli qonuni.
13. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-aprelda “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi 358-II-sonli qonuni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevralda “Davlat byudjetining G‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594-sonli qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrda PQ-1449-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 21-iyunda “O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3093-sonli farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda “Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4161-sonli farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1252-sonli qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-mayda “O‘zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3751-sonli farmoni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 553-sonli qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-yanvarda “Davlat aktivlarini sotish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 10-noyabrda “Ta‘lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash bo‘yicha byudjetdan tashqari jamg‘armani tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1432-sonli qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 173-sonli qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 31-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-718-sonli qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda “Xalq ta‘limi xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 275-sonli qarori.

26. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. – T., Xalq so‘zi. 2012-yil 18-fevral.

27. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B. 36.

28. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” nomli ma‘ruza. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 48.

29. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. T.19. – B. 37.

30. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 80.
31. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 56.
32. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994. – B. 300.
33. Abulqosimov X.P. Davlatning makroiqtisodiy siyosati // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B. 28.
34. Alimov I.I. Moliya // O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU. 2007. – B. 54.
35. Anoshkina V. O‘zbekistonda byudjet islohoti: hozirgi davrdagi maqsadlar va yo‘nalishlar // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. №3(21) 2008.
36. Afanasev M.P., Krivogov I.V. Modernizatsiya gosudarstvenno`x finansov. Uchebnoe posobie. – M.: Izd. dom GUVShE, 2006. – C. 440.
37. Kovalev V.V. Finanso: Uchebnik. 2-e izd., pererab. i dop. – M: TK Velbi, Izd-vo PROSPEKT, 2006. – C. 634.
38. Olimjonov O.O. Moliyalashtirish tizimi takomillashadi // Agrobiznes. – T., 2010. - №3.
39. Rid. A. F. Byudjetni ijro natijalariga asoslanib rejalashtirish // Qo‘llanma: O‘zbekiston Respublikasi uchun. – Nyu-York: Davlat Boshqaruvi Instituti. 1999. – B. 72.
40. Sirojiddinova Z.X. Byudjetnaya sistema Respubliki Uzbekistan // Uchebnik. – T.: Izd-vo “info COM.UZ”, 2010. – C. 480.
41. Eklund K. Effektivnaya ekonomika Shvedskaya model. – M: Ekonomika, 1991. – C. 286.
42. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosati. – Toshkent: Moliya, 2004. – B. 152.
43. Qosimova G.A. Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – B. 372.
44. Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta‘minlash // O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – B. 280.
45. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – B. 316.
46. Vahobov A.V., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish // O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – B. 231.
47. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya Darslik. Toshkent Moliya instituti. — Toshkent: “Noshir”, 2011. – B. 7.
48. Fayzullayev Yo.Sh., Azizova I.A. Srednesrochnoe byudjetnoe planirovanie // Uchebnoe posobie. –T.: Izd-vo “info COM.UZ”, 2010. – B.148.



49. Malikov T.S. Moliya: xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi // O‘quv qo‘llanma. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent, 2010. – B. 276.
50. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. – Toshkent: Akademiya, 1999. – B. 254.
51. Malikov T.S., Qaydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – B. 556.
52. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati // Monografiya. – T.: Akademyashr, 2011. – B. 472.
53. Polyak G.B. Territorialno`e finanso` // Uchebnoe posobie. – M.: Vuzovskiy uchebnyk, 2006. – S. 349.
54. Rashidov O.Yu., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiyev R.R. Pul, kredit va banklar // Darslik –T.: TDIU, 2009. – B. 439.
55. Samuelson P.A., Nordhaus V.D. Ekonomika: per. s angl. – M.: “BINOM”, 1997. – S. 800.
56. Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. – TMI, 2003. – B. 105.
57. O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi // Darslik. – Toshkent: “Sharq”, 2006. – B. 480.
58. Vahobov A.V., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish // Darslik. – Toshkent: “Sharq”, 2009. – B. 400.
59. Vahobov A.V., Jumayev N.X., Xoshimov E.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta’sirini yumshatish yo‘llari. – Toshkent: Akademyashr, 2009. – B. 144.
60. Vahobov A.V., Burhonov U., Jumayev N.X. Chet mamlakatlar moliyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – B. 268.
61. Odilov E.T. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish. i.f.n. ... aftoreferati. – T.: BMA, 2012. – B. 25.
62. Olimjonov O.O., Malikov T.S., Noraliyev T.M. Zamonaviy moliya-bank atamalarining inglizcha-o‘zbekcha-ruscha lug‘ati. – Toshkent: “Sharq”, 2009. – B. 232.
63. Birman A.M. Organizatsiya finansovoy raboto na promo`shlenno`x predpriyatiyax. – Moskva, 1967.
64. Olimjonov O.O. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida soliq siyosati: hayot va iqtisod. – T.: 1992.
65. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Toshkent Moliya institute. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – B. 13.
66. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosati. – Toshkent: Moliya, 2004. – B. 43-44.
67. Qosimova G.A. Sog‘liqni saqlash sohasida o‘z-o‘zini moliyalashtirish: bozor, pul va kredit. – T.: 2006. - №4. – B. 41-44.
68. Сумароков В.Н. Государственные финансы. В системе макро

экономического регулирования. – Москва: Финансы и статистика, 1996. – С. 64.

69. Лукашина Ольга. Рекомендации по изучению налогового законодательства. – Рига, 2005. – С. 37.

70. Ковалева А. М. Финансы // Учебное пособие. – Москва. Финансы и статистика, 2005. – С. 29.

71. Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль. –М.: Российский университет, 2000. – С. 10.

72. Ваксова Е.Е., Габуня Ф.Г. Сборный вопрос // Журнал "Директор". – Москва, февраль 2008.

73. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы // Учебник. – Москва: "ЮНИТИ", 1999.

74. Соколова В.В. Финансы // Учебник. – Москва: "ЮНИТИ", 1999.

75. Поляка Г.Б. Бюджетная система Российской Федерации // Учебник. Под ред. Г.Б. Поляка. – Москва: "ЮНИТИ", 2001. – С. 514.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI  
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**D. A. RAXMONOV  
L. O‘. MINGISHOV**

**M O L I Y A**

**O‘quv qo‘llanma**

Nashrga taqdim etilgan materiallar, ularda keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlar, shuningdek, nashrga taqiqlangan ma’lumotlarni oshkor qilish uchun nashr mualliflari javobgar

Format 84x108 1/32. Hajmi 9,25 b.t.  
Adadi 100

---

JIDUda chop etilgan  
100113, Toshkent, Mustaqillik ko‘chasi, 54.